Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘zilar dispepsiyasini davolashda antibiotik, probiotik, infuzion eritmalar va Elbahor o‘simligi damlamasini qo‘llashning yuqori terapevtik samarasi asoslab berilgan.

Аннотация. В статье представлена высокую терапевтическую эффективность применения метода лечения ягнят при диспепсии, включающего антибиотиков, пробиотика, регидратационных растворов и отвара растения.

Kalit so‘zlar. Dispepsiya. Qo‘zi. Antnatal va postnatal sabablar. Metabolik omillar. Klinik belgilar. Diareya. Suvsizlainish. Pulsning susayishi. Periferik gipotermiya. Toksemiya. Taloq atrofiyasi. Xo‘jalik ratsioni (ona suti). Antibiotik. Probiotik. Elbahor o‘simligi damlamasi. Regidratatsion eritmalar.

Ключевые слова. Диспепсия. Ягненок. Аннатальные и послеродовые причины. Метаболические факторы. Клинические признаки. Диарея. Обезвоживание. Снижение пульса. Периферическая гипотермия. Токсемия. Атрофия селезенки. Хозяйственный рацион (материнское молоко). Антибиотик. Пробиотик. Настойка Эльбагора. Регидратационные растворы.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi «Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4576-sonli hamda 2022-yil 8-fevraldagi «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-121-sonli qarorlarida belgilab berilgan ustivor vazifalarning bajarilishida, xususan, chorvachilikda qo‘ychilik tarmog‘ining barqaror rivojlanishida qo‘zilar orasida ko‘p uchraydigan dispepsiya kasalligi katta to‘siqlardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu boisdan, tadqiqotning maqsadi Respublikamizning turli sharoitlaridagi qorako‘l qo‘zilarda dispepsiya kasalligining etiopatogenezini o‘rganish va unga qarshi takomillashgan davolash usulini ishlab chiqishga qaratildi.

Tadqiqotning ob‘yekti va uslublari. Tajribalar 2021-2024-yillar davomida Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan «Olg‘a» MCHJ, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi «Bobur Murodalievich XK»ga qarashli qo‘ychilik fermer xo‘jaligi va Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi «Qum kamar» fermer xo‘jaligi hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariysi sharoitida olib borildi. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan «Ol-

g‘a» MCH ga qarashli dispepsiya bilan kasallangan 30 bosh qo‘zi ajratib lindi va ular 10 boshdan uch guruhga bo‘lindi.

Nazorat guruhidagi kasal qo‘zilar 3 soat davomida och holda saqlandi va keyin kuniga 2 martadan 200 ml miqdorida 0,9 %-li natriy xlorid eritmasidan ichirildi, kuniga bir martadan muskul orasiga 1 ml miqdorida 5 %-li oksitetratsiklin gidroxlorid antibiotigi yuborildi.

1-tajriba guruhidagi kasal qo‘zilarga 0,9 % li natriy xlorid eritmasini ichirish o‘rniga tarkibi 10,0 natriy xlorid, 3,0 natriy gidrokarbonat, 30,0 glyukoza, 0,4 kaliy xlorid, 0,4 kalsiy xlorid, 0,5 kofein natriy benzoat, 0,5 g (500000 TB) benzilpenitsillinning natriyli tuzi va 1000,0 ml gacha distillangan suvdan iborat bo‘lgan va qaynatilib 38-39°C gacha sovitilgan eritma (regidratatsion eritma) kuniga bir martadan 200 ml miqdorida qorin bo‘shlig‘iga yuborildi va 5% li oksitetratsiklin gidroxlorid o‘rniga 1g/10 kg miqdorida Innoprovot probiotigi ichirildi.

2-tajriba guruhidagi kasal qo‘zilarga esa 1-tajriba guruhidagi davolash muolajalariga qo‘shimcha ravishda 50 ml/10 kg miqdorida Elbahor o‘simligi damlamasi ichirildi (1-jadval).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nazorat guruhidagi qo‘zilarda diareya belgisi davolashning birinchi kunida 40% hayvonda kuzatildi va uning 3 kunida bu ko‘rsar-kich 50% gacha ko‘tarildi, 5 kunida 40% ga, 7-kunida

Tajribadagi qo'zilar klinik tekshirish natijalari

T/r	Ko'rsatkichlar	Davolash kumlari				
		1	3	5	7	
Nazorat guruhi						
1	Diareya belgisi kuzatilgan qo'zilar, %	40	50	40	30	
2	Enofalmiya belgisi kuzatilgan qo'zilar, %		20	30	20	
3	Teri quruqligi belgisi kuzatilgan qo'zilar, %		30	40	20	
4	Puls soni, marta/daq		156±3,3	168±4,1	159±2,4	
5	Nafas soni, marta/daq	52±1,15	58±3,11	64±4,16	67±3,12	
6	Tana harorati, C°	38,5±1,02	37,7±1,43	37,5±1,07	36,5±0,08	
7	Periferik gipotermiya kuzatilgan qo'zilar, %		30	70	70	
8	O'lim darajasi, %		10	20	30	
9	Sog'ayish darajasi, %				70	
1-tajriba guruhi						
1	Diareya belgilari kuzatilgan qo'zilar, %	40	30	20	20	
2	Enofalmiya belgilari kuzatilgan qo'zilar, %		20	20	10	
3	Teri quruql. belgilari kuzatilgan qo'zilar, %		20	20	10	
4	Puls soni, marta/daq	142±4,6	150±2,6	138±3,1	135±2,7	
5	Nafas soni, marta/daq	54±2,32	45±2,17	40±3,16	35±1,02	
6	Tana harorati, C°	39,6±1,12	39,9±1,08	39,8±1,24	39,0±0,09	
7	Periferik gipotermiya kuzatilgan qo'zilar, %		10	20	10	
8	O'lim darajasi, %			10	10	
9	Sog'ayish darajasi, %				90	
2-tajriba guruhi						
1	Diareya belgilari kuzatilgan qo'zilar, %	40	30	10		
2	Enofalmiya belgilari kuzatilgan qo'zilar, %		10	10		
3	Teri quruql. belgilari kuzatilgan qo'zilar, %			10		
4	Puls soni, marta/daq	143±3,8	146±3,3	140±4,1	136±2,4	
5	Nafas soni, marta/daq	50±1,15	48±3,11	44±4,16	37±3,12	
6	Tana harorati, C°	39,5±1,02	39,7±1,43	39,6±1,07	39,6±0,08	
7	Periferik gipotermiya kuzatilgan qo'zilar, %		10			
8	O'lim darajasi, %					
9	Sog'ayish darajasi, %				100	

30% ga tushdi.

Enoftalmiya belgisi davolashning 3-kunidan boshlab paydo bo'ldi (20%), davolashning 5 kunida 30% gacha ko'tarildi va 7-kuniga kelib 20% ga tushdi.

Teri quruqlashishi belgisi davolashning 3-kunidan boshlab paydo boldi (30%), davolashning 5 kunida 40% gacha ko'tarildi va 7-kuniga kelib 20% ga tushdi.

Periferik gipotermiya kuzatilgan qo'zilar davolashning 3-kunidan boshlab paydo boldi (30%), ning 5 kunida 70% gacha ko'tarildi va 7-kuniga kelib ham bu korsatkich 70% holda saqlanib qoldi.

Puls soni davolash jarayonida o'rtacha $156 \pm 3,3$ dan $168 \pm 4,1$ marta/daq ni ($P < 0,01$), nafas soni $52 \pm 1,15$ dan $67 \pm 1,15$ marta/daq ni ($P < 0,001$) tashkil etdi. Tana harorati davolashning boshidagi $38,5 \pm 1,02$ dan uning oxiriga kelib $36,5 \pm 0,08$ °C gacha pasayishi ($P < 0,05$) kuzatildi.

Davolashning 7-kuniga kelib o'lim darajasi o'rtacha 30% (sog'ayish darajasi 70%) ni tashkil etdi.

1-tajriba guruhidagi qo'zilar daireya belgisi davolashning birinchi kunida 40% hayvonda kuzatildi va uning 3 kunida bu ko'rsatkich 30% gacha, 5 kunida 20% gacha, 7-kunida ham 20% gacha pasaydi.

Enoftalmiya belgisi davolashning 3-kunidan boshlab paydo boldi (20%), uning 5-kunida ham shundayligicha saqlanib turdi va 7-kuniga kelib bu ko'satkich 10% ni tashkil etdi.

Teri quruqlashishi belgisi ham xuddi enoftalmiya belgisidek davolashning 3-kunidan boshlab paydo bo'ldi (20%), uning 5-kunida ham shundayligicha saqlanib turdi va 7-kuniga kelib bu ko'rsatkich 10% ni tashkil etdi.

Periferik gipotermiya kuzatilgan qo'zilar davolash-

ning 3-kunidan boshlab paydo boldi (10%), uning 5 kunida 20% ni va 7-kuniga kelib 10% ni tashkil etdi.

Puls soni davolash jarayonida o'rtacha $135 \pm 2,7$ dan $150 \pm 2,6$ marta/daq ni, nafas soni $35 \pm 1,02$ dan $54 \pm 2,32$ marta/daq ni tshki etdi. Tana harorati esa $39,0 \pm 0,09$ dan $39,9 \pm 1,08$ °C oralig'ida bo'ldi ($P < 0,01$; $P < 0,05$; $P < 0,001$).

Davolashning 7-kuniga kelib o'lim darajasi o'rtacha 10% (sog'ayish darajasi 90%) ni tashkil etdi.

2-tajriba guruhidagi qo'zilar daireya belgisi davolashning birinchi kunida 40% hayvonda kuzatildi va uning 3 kunida bu ko'rsatkich 30% gacha, 5 kunida 10% gacha pasaydi va davolashning 7-kunida qayd etilmadi.

Enoftalmiya belgisi davolashning 3-kunidan boshlab paydo bo'ldi (10%), uning 5-kunida ham shundayligicha saqlanib turdi va 7-kuniga kelib bu ko'satkich qayd etilmadi.

Teri quruqlashishi belgilari davolashning 5-kunida 10% ni tashkil etdi va uning oxiriga kelib qayd etilmadi.

Periferik gipotermiya belgilari faqat davolashning 3-kunida paydo bo'ldi (10%), keyin qayd etilmadi.

Puls soni davolash jarayonida o'rtacha $136 \pm 2,4$ dan $146 \pm 3,3$ marta/daq gacha, nafas soni $37 \pm 3,12$ dan $50 \pm 1,15$ marta/daq gacha, tana harorati esa $39,5 \pm 1,02$ dan $39,7 \pm 1,43$ gacha °C oralig'ida bo'ldi ($P < 0,01$; $P < 0,05$; $P < 0,01$).

Davolash tajribasining 7 kuniga kelib o'lim holati kuzatilmadi va kasal qo'zilarinig sogayish darajasi 100% ni tashkil etdi.

Xulosa.

1. Dispepsiya paytida kasal qo'zilar kam harakatchanlik, so'rish refleksining susayishi (yo'qolishi), diareya, taxikardiya (bradikardiya), ko'z olmasi-



Qo'ylarni klinik tekshirish jaroyanidan lavhalar



Qo'zilarini klinik tekshirish jaroyani lavhalar

ning choʻkishi (enoftalm), teri turgorligining pasayishi, nafasning tezlashishi (siyraklashishi), ataksiya, depressiya, yotib qolish va periferik gipotermiya belgilari kuzatiladi.

2. Tarkibi 10,0 natriy xlorid, 3,0 natriy gidrokarbonat, 30,0 glyukoza, 0,4 kaliy xlorid, 0,4 kalsiy xlorid, 0,5 kofein natriy benzoat, 0,5 g (500000 TB) benzilpenitsillin natriyli tuzi va 1000,0 gacha distillangan suvdan iborat boʻlgan va qaynatilib 38-39°C gacha sovitilgan eritmani (regidratatsion eritma) kuniga bir martadan 200 ml miqdorida qorin boʻshligʻiga yuborish, 1g/10 kg miqdorida Innoprovet probiotigini ichirish va iziga 20 daqqadan keyin 50 ml/10 kg miqdorida Elbahor oʻsimligi damlamasini ichirishga asoslangan davolash usulini qoʻllash boshqa davolash variantlariga qaraganda yuqori terapevtik samaradorlikni namoyon etadi va kasal qoʻzilarning 7 kunda toʻliq (100%) sogʻayishini (nazorat guruhida oʻlim darajasi 30% boʻlgan holda) taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar toʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi «Chorvachilik tarmogʻini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ -4576-sonli qarori.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ-121-sonli qarori.

3. Рўзиқулов Н.Б. Ёш ҳайвонлар ва паррандалар терапияси. Дарслик. Тошкент, “Фан зиёси”, 2021. – Б. 70-81.

4. Бакиров Б., Рўзиқулов Н.Б., Даминов А.С. ва б.лар. Ҳайвонлар касалликлари. Маълумотнома (Ўқув қўлланма). – Самарқанд: “Насимов” ХК, 2019. – 552 б.

5. Норбоев Қ.Н., Бакиров Б.Б., Эшбўриев Б.М. Ёш ҳайвонлар юқумсиз касалликларининг патологияси ва терапияси. Самарқанд, 2006. Б. 71-76.

6. Практикум по внутренним болезням животных / Под общ. ред. Щербакова Г.Г., Яшина А.В., Курденко А.П., Мирзагулова К.Х.: Учебник. —

СПб.: Издательство «Лань», 2021. – С. 543.

7. Ruzikulov, N. B. (2021). Main causes and development mechanisms of Karakol sheep Ketonuria. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 556-559.

N Ruzikulov, S Askarov, N Rasulov, O Boboev. (2022). *Results of treatment of lambs dyspepsy. Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации. Сборник статей VIII Международной научно-практической конференции. Пенза, 2022. 226-229.*

8. Lashkova T. B., Petrova G. V., Zhukova M. Y. Effectiveness of various treatment regimens for calves with dyspepsia in Novgorod region //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2020. – Т. 613. – №. 1. – С. 012069.

9. Lashkova, T. B., G. V. Petrova, and M. Yu Zhukova. “Effectiveness of various treatment regimens for calves with dyspepsia in Novgorod region.” *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*. Vol. 613. No. 1. IOP Publishing, 2020.

10. Lashkova, T. B., Petrova, G. V., & Zhukova, M. Y. (2020, December). Effectiveness of various treatment regimens for calves with dyspepsia in Novgorod region. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 613, No. 1, p. 012069). IOP Publishing.

11. Novikova T. V., Mekhanikova M. V., Bilkov V. A. The Reaction of Hematological Parameters of Calves to Transferred Dyspepsia //Journal of Biochemical Technology. – 2023. – Т. 14. – №. 2-2023. – С. 1-5.



РАДИОИЗОТОПНЫЙ МЕТОД ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ ПАТОГЕННЫХ И НЕПАТОГЕННЫХ И НЕПАТОГЕННЫХ ЭШЕРИХИИ КОЛИ

Резюме. Идентифицировать патогенные штаммы кишечной палочки можно, используя методы определения либо сложны в техническом отношении и трудоёмки. Из изотопов для метки бактерий с целью дифференциации наиболее удобным оказался сульфат натрия, меченный по сере-35. Микробы метятся после установления их принадлежности к эшерихиям.

Ключевые слова: Кишечная палочка, энтеропатогенность, радиоизотоп-ный метод, патогенный штамм, радионуклид.

Многие исследователи полагают, что кишечная палочка-условно-патогенная разновидность микроорганизмов.



Цель и задачи. В литературе появляются сообщения о наличии, наряду с кишечной палочкой комменсалов (Симбиоз.-Комменсализм (commensalism), организм живущий в тесной взаимосвязи с другими, отличающимися от него организмами, не причиняя им при этом ни вреда, ни пользы. Один из них – возбудитель колибактериоза сельскохозяйственных животных.

Идентифицировать патогенные штаммы кишечной палочки можно, используя методы определения энтеропатогенности, изучения токсичности и гемолитичности бактерий, ответной реакции изолированной кишечной петли на введение бактерий, исследования завершённого фагоцитоза, заражения лабораторных животных.

Представляя большую практическую ценность, эти методы, либо сложны в техническом отноше-

нии и трудоёмки. Развитие изотопной техники позволило применять радиоактивные вещества в микробиологии, в частности, для получения меченых бактерий. Такой методический подход даёт возможность изучать различные свойства бактерий и использовать полученные результаты в лабораторной практике. Из изотопов для метки бактерий с целью дифференциации наиболее удобным оказался сульфат натрия, меченный по сере-35. Микробы метятся после установления их принадлежности к эшерихиям.

Материалы и методы. Выделенные от больных или павших животных культуры высевают на мясо-пептонный печеночный агар (МППА) для получения суточной культуры, которая затем пересеивается на радиоактивную среду.

Подготовка радиоактивной питательной среды и получение меченных бактерий: В расплавленный мясо-пептонный агар (МПА с РН 7,2-7,4 добавляют радиоактивный сульфат натрия из расчета 4 микрокюри на 1 мл среды.

Общий объем добавляемого изотопа не должен превышать 4 мл на 100мл среды, так как увеличение количества вносимого раствора может изменить свойство среды и повлиять на результаты исследований.

Среда тщательно встряхивается и стерилизуется в автоклаве при 0,7 атм в течение 20-25 минут, после чего пробирки с незастывшей средой укладываются на наклонной плоскости для получения скошенного агара. Каждый штамм высевается в 3 пробирки с радиоактивной питательной средой и инкубируется в течение 24 часов в термостате при температуре 37С. Выросшие бактерии смываются с агара стерильным

физиологическим растворам и центрифугируются 3-4раза на центрифуге ЦЛН-2 по 10минут при 6-7 тыс. об/мин.

Затем готовят два образца по 0,5мл каждый из надосадочной жидкости для проверки чистоты отмывание бактерий отусвоенного изотопа. Радиоактивность этих образцов не должна превышать фон более чем в 2раза. Бактериальный осадок ресуспензируется физиологическим раствором до концентрации 2 млрд микробных тел в 1мл по оптическому стандарту мутности или измерением плотности на фотоэлектроколориметре ФЭК-56М.

В качестве образцов для радиометрии берут по 1млрд микробных тел, суспензированных в физиологическом растворе, и наносят на тарелочки из фольги. Из каждой культуры готовят по 2 образца.

Радиометрию образцов проводят на установке ПП-9 или других установках с предварительным определением эффективности счета для серы-35, с учетом которой данные радиометрии из импульсов в минуту переводят в нанокюри.

Результаты и обсуждение Полученные результаты позволяют дифференцировать патогенные штаммы от непатогенных кишечных палочек. Необходимо соблюдать сроки исследования бактерий после выделения их из патологического материала. Штаммы можно хранить в холодильнике и подвергать ежемесячным пересевам на питательные среды. Однако идентификации можно подвергать штаммы не позднее чем через 3 месяца после выделения их из патологического материала. При более длительных сроках хранения изменяется интенсивность обменных процессов и соответственно степень усвоения изотопов бактериями, что может затруднить диагностическое использование радиоизотопного метода, усложнить процесс практического применения в условиях производственных учреждений ветеринарного профиля.

Выводы: Дифференциация патогенных и непатогенных кишечных палочек поданным радиометрии образцов: Радиоактивность 1 млрд микробных тел эшерихий, меченных по сере -35 сульфата натрия, составляет:

для патогенных штаммов – 6,3+ - 0,9 нанокюри,
для непотогенных штаммов – 12,5+ - 0,8 нанокюри.

Эти данные приведены для детектора Т-25-БФЛ. (Счетчик Гейгера для регистрации бета излучения.)

Установка эффективность счета, можно использовать и другие детекторы. Абсолютная радиоактивность образцов при этом будет в пределах вышеуказанных величин.

Радиоизотопный метод дифференциации патогенных и непатогенных кишечных палочек может быть применен в радиологических отделах ветеринарных лабораторий. Работа с использованием этого метода должна проводиться совместно бактериологическим и радиологическим отделами. При этом бактериологической отдел выделяет культуру эшерихии коли, а радиологический -определяет их патогенность.



Использование этого метода открывает новые возможности практического применения радионуклидов в ветеринарии, расширяет арсенал прикладной радиобиологии.

Мы считаем, что применение указанного метода в учебной процессе будет способствовать приобретению навыков радиобиологических исследований.

Использованная литературы.

1. Н.А.Корнеева, А.Н.Сироткина, З. В. Дубровина, О. М.Белова, Г. С. Мешалкина, Г. А. Донской. «Гигиенические требования к качеству и безопасности продовольственного сырья и пищевых продуктов». knowledge.allbest.ru. agriculture.
2. А.М.Ахмин., Д.П.Гасюк. Управление качеством пищевых продуктов на основе принципа ХАССП. Учебное пособие./2010. mtbcat.org.by. opac. Pls
3. Положение о системе государственного ветеринарного контроля радио-активного загрязнения объектов ветеринарного надзора в Российской Федерации, утвержденное Минсельхоз-продом России 20 февраля 1998 года.
4. Положение о сети наблюдений и лабораторного контроля Минсельхоз-прода России, утвержденное Минсельхозпродом России 25 мая 1994 г. N 116.
5. Лысенко Н. П., и др. Радиобиология: Учебник 3-е изд.,СПБ Издательство «Лань», 2017.- 576.: ил. – (Учебник для ву-ов. Специальная литература).

BROYLER JO‘JALARINI XITOZAN VA SUT ZARDOBI KUKUNI BILAN OZIQLANTIRGANDA ULARNING FIZIOLOGIK-BIOKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARI

Annotatsiya. Respublikamiz aholisining parhez mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada yaxshiroq qondirish Respublikamiz Prezidentining qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida katta iqtisodiy hamda siyosiy masala deb belgilangan. Prezidentimizning “2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2460-sonli qarori va shu qaror ijrosi yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar dasturining ijrosini ta‘minlash barcha soha mutasaddilari, shuningdek chorvachilik va parrandachilik tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislarining zimmasiga ham muhim vazifani yuklaydi. Hozirgi davrda Respublikamizda parrandachilikning tovuqchilik yo‘nalishini rivojlantirishga katta e‘tibor berib kelinmoqda.

Kalit so‘zlar. Xitozan, xitin, quruq sut zardobi kukuni, broyler, parrandachilik, yem, oqsil, biopolimer, fiziologik, biokimyoviy.

Kirish. Xitozan-bu tabiatda eng keng tarqalgan organik birikmalardan biri bo‘lgan polisaxaridli tabiiy polimer. “Xitozan” biopolimeri yuqori sorbsiya qobiliyati, toksik emasligi, yaralarni davolash qobiliyati, antikoagulyant, bakteriostatik va antitumor faollik kabi xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, u yaxshi flokulyant, emulsifikator, quyuqlashtiruvchi va tuzilish quruvchidir. Xitin va xitozanning kimyoviy o‘zgarishlaridan turli tuzilish va xususiyatlarga ega materiallarni olish uchun foydalanishning keng imkoniyatlari bu polimerlarni eng qiziqarli xom ashyo turlaridan biriga aylantiradi [1].

Hozirgi vaqtda “Xitozan” biopolimeri va uning hosilalarini qo‘llashning 100 dan ortiq sohalari ma‘lum, shu jumladan yaqinda olingan mikro va nanoxitozanlar [2]. Mikotoksikozlar muammosi bugungi kunda shunchalik muhimki, u shubhasiz, butun zanjir bo‘ylab daladan tortib to odamgacha bo‘lgan toksinlarni oldini olish va yo‘q qilish strategiyasini asoslashni talab qiladi [3].

So‘nggi paytlarda arzon mahsulot, sut zardobi miqdoriy ommaviy ishlab chiqarishning o‘rishiga jalb qilinmoqda. Bu tvorog, pishloq, sut va boshqa sut mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida olinadigan qo‘shimcha mahsulotdir. Aylanma iqtisodiyot tizimida uni ishlab chiqarish tobora ko‘proq ishlab chiqaruvchilarni zardobni qayta ishlashga undamoqda, bu esa qo‘shimcha daromad keltiradi va oziq-ovqat resurslarining ichki manbalarini shakllantiradi. Zardob eng boy oziq-ovqat mahsulotidir [4, 5].

Oziq-ovqat ratsionining tannarxini pasaytirish yo‘llarini ishlab chiqish oziq-ovqat sanoatining ikkilamchi mahsulotlarini qo‘llash orqali kirish komponentlari assortimentini kengaytirish orqali hal qilinishi mumkin [6, 7].

Ishning maqsadi-biopolimer xitozan + quruq sut zardobini broyler tovuqlarining fiziologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Optimal dozalarni ishlab chiqish va Xitozan + sut zardobi kukuni preparatining broyler tovuq mahsulotlari xavfsizligi va sifatiga ta‘sirini baholash bo‘yicha tadqiqot va ishlab chiqarish tajribasi umumiy qabul qilingan vivarium usuli sharoitida amalga oshirildi. Tadqiqot ob‘ekti Kobb 500 broyler tovuqlari edi. Tajribada 100 ta tovuq ishtirok etdi. Broyler tovuqlari “Super Don” yemi bilan oziqlangan. Qo‘shimcha ratsionga 7 kunlik yoshdan boshlab ichimlik suvi bilan birga, biopolimerni sirka kislotasining 2% eritmasi eritilgandan so‘ng kiritilgan. Hayotning so‘nggi o‘n yilligida broyler tovuqlar uchun premiksdan foydalanish zaharli ozuqa komponentlari va antibiotiklarni tanadan olib tashlash uchun amalga oshirildi.

Tajriba tovuqlarining rivojlanishini nazorat qilish maqsadida ularning xavfsizligini inobatga olgan holda 28 kunligida va tajriba oxirida (42 kunligida) tarozi o‘tkazildi. Tajriba davomida tajriba va nazorat guruhlar tovuqlari klinik holati, xavfsizligi, vazn ortishi hisobga olingan holda kuzatildi. 3, 4, 5 va 6 haftalarda qon namunalari olindi, unda fiziologik va biokimyoviy ko‘r-

satkichlar aniqlandi. Gistologik tadqiqot uchun broyler tovuqlarining tanasiga toksik ta'sirini aniqlash uchun har xil dozadagi premiks, jigar va buyraklar olindi. Material 10% formalin eritmasida, so'ngra an'anaviy usullar bo'yicha kerosinga quyilib aniqlandi [8, 9, 10].

Fizik-kimyoviy tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-yanvardagi 36-sonli "Go'sht va go'sht mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida"gi qaroriga asosan quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazildi: - ammiak va ammoniyga reaksiya, tuzlar (usul ammoniy tuzlaridan ammiakning reagent bilan hosil bo'lish qobiliyatiga asoslanadi, Nessler merkurammoniy yodidid sariq-jigarrang moddadir); peroksidaza reaksiyasi (usul vodorod peroksid ishtirokida peroksidazaning benzidinni oksidlash va eritmani ko'k-yashil rangga bo'yalishiga asoslangan); - yog'ning kislotali soni (usul yog'ni dietil efir va etil spirti aralashmasi bilan eritishga va erkin yog' kislotalarini kaliy gidroksid bilan titrlashga asoslangan); - yog'ning peroksid soni (usul yog'ni sirka kislotasi va xloroform aralashmasi bilan kaliy yodid eritmasi bilan ishlov berishga va erkin yodni natriy sulfat eritmasi bilan titrlashga asoslangan); - pH (parranda go'shti muhitining reaksiyasi 1:10 nisbatda tayyorlangan go'shtdan suvli ekstraktida "pH METR HANNA 9025" qurilmasi yordamida potensimetrik usulda aniqlandi) [11, 12, 13].

Go'sht tarkibidagi namlikni aniqlash sinov namunalarini quritish paytida vazn yo'qotish bilan aniqlandi (GOST 9793-74. "Go'sht mahsulotlari. Namlikni aniqlash usullari"). Kimyoviy tarkibini o'rganish (yog', kul, oqsil) GOSTlari bo'yicha o'tkazildi: 23042-86, 31727-2012, 25011-81.

Go'shtning nisbiy biologik qiymati va toksikligi "Tetrachymena piriformis siliatlari yordamida go'sht, go'sht mahsulotlari va sutni toksiko-biologik baholash bo'yicha yo'riqnoma" ga muvofiq aniqlangan.

Parranda go'shtining bakteriologik tadqiqotlari GOST 7702.2.0-95 "Parranda go'shti, parrandaning qo'shimcha mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlar. Namuna olish usullari va mikrobiologik tadqiqotlarga tayyorlash". Izlangan mazoklarning bakterioskopiyasi bilan bir qatorda suyuq va qattiq ozuqa muhitida emlashlar o'tkazildi.

Olingan barcha eksperimental raqamli materiallar kompyuterda "Microsoft Excel-2007" dasturidan foydalangan holda statistik ishlovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tovuqlarga premiksda boqish broyler tovuqlarining o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, bu gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 3-tajriba guruhidagi broyler tovuqlari tajriba davomida katta o'sish intensivligi bilan ajralib turardi. Undagi o'rtacha kunlik o'sish 51 g (nazoratda - 45,1 g) ni tashkil etdi. Guruhdagi qushlarning eng katta tirik vazni 3-tajriba guruhida edi. U boshqa eksperimental guruhlariga nisbatan 0,8 va 4,6% ga yuqori va 2182 g ni tashkil etdi.

Tadqiqotning keyingi bosqichi broyler tovuqlarga premiks bilan oziqlantirishdan keyin go'sht sifati ko'rsatkichlarini o'rganish edi.

Parranda go'shtining bakterial ifloslanishi so'yish mahsulotlarining sanitariya holatini tavsiflovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Mikroorganizmlar nafaqat organoleptik xususiyatlarni yomonlashtirishi, balki go'shtni oziq-ovqat maqsadlari uchun yaroqsiz va hatto inson salomatligi uchun xavfli holga keltirishi mumkin. Mikrobiologik ko'rsatkichlar bo'yicha gigienik me'yorlar mikroorganizmlarning 4 guruhi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi: sanitariya-indikativ, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: mezofil aerob va fakultativ anaerob mikroorganizmlar va ichak tayoqchasi guruhining bakteriyalari - koliformlar; shartli patogen mikroorganizmlar, ular orasida E.coli, S.aureus, Proteus jinsi bakteriyalari, B.cereus va sulfitni kamaytiruvchi klostridiyalar; buzilish mikroorganizmlari - asosan xamirturush va mog'or qo'ziqorinlari; patogen mikroorganizmlar, shu jumladan: salmonellalar, mikrobiologik sifat va oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan tartibga solish mikroorganizmlarning ko'p guruhlari uchun muqobil printsipga muvofiq amalga oshiriladi, ya'ni, mahsulot massasi normallasadi, unda Escherichia coli guruhining bakteriyalari, ko'pchilik opportunistik mikroorganizmlar, shuningdek patogen mikroorganizmlar, shu jumladan, salmonellalar ham. Boshqa hollarda, standart mahsulotning 1 g (ml) tarkibidagi koloniya hosil qiluvchi birliklar sonini aks ettiradi. Bakteriologik tadqiqotlar natijasida, tajriba va nazorat guruhlarida parranda go'shtining barcha namunalaridan E.coli, S.aureus mikroorganizmlari, Proteus, B.cereus bakteriyalari va sulfitni kamaytiruvchi klostridiyalar, shuningdek salmonellalar ajratilmagan.

Olingan ma'lumotlar nazoratdagi kirpiklar soni bilan taqqoslandi va natija foiz sifatida ifodalandi. O'rganilayotgan namunalarning zaharliligi (zararsizligi) o'lik kipriklarning mavjudligi, ularning shaklidagi o'zgarishlar, harakat tabiati va tetraximenlarning o'sishini inhibe qilish bilan aniqlandi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Barcha o'rganilgan guruhlarining tana go'shtini organoleptik tekshirishda quyidagi ko'rsatkichlar qayd etilgan. Barcha namunalarda tana go'shti yuzasi quruq, pushti tusli oq-sariq rangda; og'iz bo'shlig'ining shilliq

qavati porloq, och pushti, ozgina namlangan; tumshug‘i porloq; ko‘z olmasi qavariq, shox pardasi yaltiroq; och sariq rangdagi teri osti va ichki yog‘; qorin bo‘shlig‘ining seroz membranasi nam, porloq; kesilgan muskullar bir oz nam, och pushti rang, elastik tuzilishga ega; hidi o‘ziga xos, yangi go‘shatga xosdir.

1-jadval

Parranda go‘shini toksik-biologik baholash

Ko‘rsatkichlar	Tajriba 1	Tajriba 2	Nazorat
Nisbiy bio. qiymat, %	100,4±1,2	100,2±1,2	100
Toksiklik, % patolog. hujayra shakllari	0,1±0,09	0,1±0,09	0,1±0,10

Go‘shni tekshirishda pishirish testi barcha eksperimental namunalardagi bulon shaffof, xushbo‘y ekanligini aniqladi. Hech qanday begona hid aniqlanmadi.

Bakteriologik tekshirish natijasida eksperimental namunali go‘shdan mikroorganizmlar ajratilmagan.

2-jadval

Go‘shning fizik-kimyoviy tadqiqotlari natijalari keltirilgan

Ko‘rsatkichlar	Nazorat	Tajriba guruhlar		
		1	2	3
Ammiak va ammoniy tuzlariga reaksiya	Salbiy	Salbiy	Salbiy	Salbiy
Peroksidazaga reaksiya	Ijobiy	Ijobiy	Ijobiy	Ijobiy
pH	5,95±0,07	5,99±0,06	6,06±0,05	6,05±0,06
Nisbiy biologik qiymat, %	100	107±1,35***	112,1±0,94***	116,5±0,58***

Jadvalda shuni ko‘rsatadiki, ratsionga premiksning kiritilishi broyler tovuq go‘shining biologik qiymatining oshishiga olib keladi. Shunday qilib, ozuqa qo‘shimchasini olgan guruhlarda biologik qiymat nazorat guruhi bilan solishtirganda 7–16,5% ga oshadi.

Xulosa.

1. 80 mg dozada olingan premiks broyler tovuqlarining qon parametrlari fiziologik me‘yorda bo‘lgan. Shuningdek, ushbu sxema bo‘yicha preparatni qo‘llashda jigar va buyraklarda patologik o‘zgarishlar aniqlanmadi.

2. Premiks, mikotoksinlar, og‘ir metallar va bakteriyalarning metabolik mahsulotlari uchun sorbent sifatida va oshqozon-ichak traktining shilliq qavatini o‘rab olish vositasi sifatida, ularning tovuq tanasiga kirishini kamaytiradi. Bu broylerlarning mahsuldorligini va go‘shning biologik qiymatini oshirishga olib keladi.

3. Premiks ta‘sirida broyler tovuqlarining xavfsizligi va mahsuldorligini va uning go‘sh sifatiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, uning eng maqbul dozasi kuniga 80 mgdan tashkil etdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Артамонов В. С., Голембовский В. В. Хитозан в рационе молодняка крупного рогатого скота (обзор) // Сельскохозяйственный журнал. – 2021. – №. 3 (14). – С. 41-49.
2. Варламов В. П. и др. Хитин/хитозан и его производные: фундаментальные и прикладные аспекты // Успехи биологической химии. – 2020. – Т. 60. – С. 317.
3. Косолапова В. Г., Халифа М. М. Проблема микотоксинов в животноводстве // Всероссийская с международным участием научная конференция молодых учёных и специалистов, посвящённая 155-летию со дня рождения Н.Н. Худякова. – 2021. – С. 86-89.
4. Rahmonov Farkhod Holbayevich. Chitosan and study of physiological and biochemical indicators of broiler chicks feeding whey powder (Review article). Open Access Repository, 4(3), –1389–1395. –2023.
5. Паладий И. и др. Молочная сыворотка: обзор работ. Часть 1. Классификация, состав, свойства, производные, применение // Электронная обработка материалов. – 2021. – Т. 57. – №. 1. – С. 52-69.
6. Байда В. А. Анализ ассортимента и товароведная характеристика молочных коктейлей. – 2018.
7. B. Azim, R. Farxod, E. Kamol. Indicators of endogenous intoxication in the model of burn injury in correction with chitosan derivatives. Educational Research in Universal Sciences. 1, 2. 2022. 56-63.
8. Богущ, А.А. Мясо, его переработка и хранение: учебное пособие / А.А. Богущ. – Минск: Ураджай, 1995. – 168 с.
9. Ветеринарно-санитарное правила осмотра убойных животных и ветеринарно-санитарной экспертизы мяса и мясных продуктов // Сборник технических нормативных правовых актов по ветеринарно-санитарной экспертизе продукции животного происхождения / под ред. Е.А. Панковса, А.А.Русиновича. – Минск: Дизел – 91, 2008. – С. 6-211.
10. Балобинн, Б.В. Влияние жидкой мультиэнзимной композиции «ФЕКОРД-У» на качество мяса бройлеров / Б.В. Балобин // Актуальные проблемы интенсивного развития животноводства: матер. междунар. науч.-практ. конф., посвящённой 70-летию зооинженерного факультета и памяти почетного проф. БГСХА П.И. Шумского, Горки, 23–24 июня 2000 г. // БГСХА; редкол.: Б.В. Балобин [и др.]. Горки, 2000. 322 с.
11. Волгин В. И. и др. Полноценное кормление молочного скота–основа реализации генетического потенциала продуктивности. – 2018.
12. Кузнецов, С. Пигмент в кормлении птицы / С. Кузнецов, В. Омелченко, В. Евтишенко // Комбикормовая промышленность. 1998. №8. С.47.
13. Rakhmonov F, Kh. Influence of Chitosan and Serum on the State of Broiler Chickens. Eurasian Research Bulletin 20 (2023): 23-27.

НАТРИЙ ФТОРИДНИ ОҚ СИЧҚОНЛАР ОРГАНИЗМИГА ЗАХАРЛИЛИК ВА ХАВФЛИЛИК ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ

Аннотация: Илмий мақолада натрий фториднинг турли фоизли эритмаларини оқ сичқонлар организмига 3 ой мобайнида сурункали таъсири натижасижа юзага келган захарлилик ва хавфлилик даражаси аниқланган. Шунга мувофиқ тажрибалардан олинган маълумотлар таҳлилдан натрий фторидни оқ сичқонлар организмига юқори захарлилик хусусиятига эга бўлган модда эканлиги аниқланди.

Калим сўзлар: натрий фторид, оқ сичқон, захарланиш, паталогоанатомик, паренхиматоз, мг/л, грамм

Кириш. Бугунги кунда бутун жаҳон ҳамкорлик мамлакатларида саноат ишлаб чиқариш соҳасининг ривожланиши билан, атроф муҳитни юқори даражада ифлосланишига олиб келмоқда.

Дунёда атроф муҳитни юқори даражада ифлослантирувчи токсикантлар асосан оғир метал тузлари (симоб, қўрғошин, кадмий, мис, рух, маргумуш) кўплаб дори воситалари пестицидлар ва кимётерапевтик моддалар ҳамда ташқи саноат ишлаб чиқариш чиқиндилари ҳисобланади.

Тадқиқот объекти ва услублари. Шунга мувофиқ бизлар фторли бирикмалардан натрий фторид моддасини турли фоизли эритмаларида оқ сичқонлар организмига сурункали таъсир этириб, унинг захарлилик ва хавфлилик даражасини аниқлаш мақсадида тадқиқот тажрибаларини ўтказдик. Турли хил дозадаги натрий фторид эритмасини захарлилик даражасини ўрганиш мақсадида лаборатория тадқиқотлари «Veterinariyaда qo'llaniladigan kimyoviy moddalar va farmakologik preparatlarni toksikologik baholash bo'yicha ko'rsatmalar» асосида ўтказилди. Натрий фториддан захарланиб ўлган сичқонлардаги паталогоанатомик ўзгаришлар эвиратсия усулида ёриб кўрилди ва микроскопик усул билан ўрганилди.

Ўшбу тадқиқот тажрибаларини ўтказиш мақсадида 35 та оқ сичқонлар олинди, ҳар бир гуруҳда 5 бошдан тажриба ва назорат гуруҳига ажратилди. Оқ сичқонларнинг ўртача тирик вазни 48,5 грни ташкил қилган бўлиб, улар ҳаракатчан ва озукани яхши истеъмол қилиши тажрибадаги оқ сичқонларга лаборатория шароитида натрий фто-

риднинг турли фоиздаги сувли эритмалари тайёрланиб, 3 ой мобайнида, кунига ичириб борилди. Назорат ва тажриба гуруҳларидаги барча оқ сичқонлар кунлик назоратда бўлди. Яъни уларни кунлик натрий фторид эритмасини қабул қилиш миқдори, клиник текширишлардаги организмнинг умумий ҳолати, ошқозон-ичак ва марказий нерв тизимларидаги ўзгаришлар ҳисобга олиб борилди. Оқ сичқонларни тажриба бошида ва охирида тана вазни ўлчанди. Тажриба якунида турли хил дозадаги натрий фторид эритмасини қабул қилган оқ сичқонлар паталого анатомик текширишлар учун ёриб кўрилди.

Натрий фторидни оқ сичқонлар организмига захарлилик ва хавфлилик даражасини аниқлаш мақсадида дастлаб назорат гуруҳидаги оқ сичқонларга таркибида 0,02 мг/л натрий фторид бўлган сув, биринчи тажриба гуруҳидагиларга 1,5 мг/л, иккинчи тажриба гуруҳидагиларга 15 мг/л, учинчи тажриба гуруҳига 50 мг/л, туртинчи тажриба гуруҳига 150 мг/л, бешинчи тажриба гуруҳига 300 мг/л ва олтинчи тажриба гуруҳи оқ сичқонларга 450 мг/л миқдоридаги натрий фторидли сув ичириб борилди. Тажриба 3 ой мобайнида давом этди.

Олинган натижалар таҳлили. Тажриба гуруҳидаги 3 ой мобайнида турли хил дозадаги натрий фторид эритмасини қабул қилган оқ сичқонлар ички органлари ҳамда тишларидаги ўзгаришлар қайд қилинди. Аниқланишича натрий фторид эритмаси дозасини ошириб бориши билан оқ сичқонларнинг яшовчанлигига ўзининг салбий таъсирини намоён қилишига гувоҳ бўлдик.

Назорат гуруҳидаги оқ сичқонларни клиник кузатишларда айтарли салбий ўзгаришлар кузатилмади. Жун қопламаси майин, ялтироқ, озукани яхши истеъмол қилди, ошқозон ичак ва марказий нерв тизимида ўзгаришлар қайд қилинмади.

Натрий фторидни оқ сичқонлар организмга захарли таъсирини ўрганиш бўйича тажриба тартиби (n=35)

Гуруҳлар	Зарарлантириш миқдори ва усули	Оқ сичқонлар бош сони (тажриба бошида)	Оқ сичқонлар бош сони (тажриба охирида)
1-назорат	0,02 мг/л	5	5
1-тажриба	1,5 мг/л	5	5
2-тажриба	15 мг/л	5	5
3-тажриба	50 мг/л	5	4
4-тажриба	150 мг/л	5	2
5-тажриба	300 мг/л	5	1
6-тажриба	450 мг/л	5	0

Таркибида 1,5 мг/л миқдориди натрий фторид қабал қилган 1 тажриба гуруҳи оқ сичқонлар тиши эмал қисмида чизиқча ҳосил бўлганлиги ва фторни тўқималарда юқори миқдорда тўпланганлигига, 15 мг/л қабул қилган иккинчи тажриба гуруҳида эса сичқонларнинг ярмида қалқонсимон безида, буйраклар ва суякда патологистологик ўзгаришлар кузатилди. Бундан ташқари, ичимлик суви таркибида фтор миқдорини 50 ва 150 мг/л бўлганда оқ сичқонлар тишидаги ўзгаришлардан ташқари, ички органлар ва суякларда патогистологик ўзгаришлар, ферментлар фаоллигининг пасайиши ва ҳайвонлар умумий ҳолатини ёмонлашуви билан захарланишдан битта оқ сичқон (50 мг/л), кейинги гуруҳда эса (150 мг/л) учтта сичқонда ҳам захарланишдан ўлим ҳолати кахексия туфайли юзага келди.

Ичимлик суви таркибида фторни 300 мг/л миқдориди бўлган тажрибадаги оқ сичқонларда юқоридаги ўткир захарланиш белгилари намоён бўлиши билан туртта ўлим ҳолати кузатилган бўлса, 450 мг/л қабул қилган олтинчи тажриба гуруҳи оқ сичқонлари ўткир захарланишдан бир неча кун ўтгандан сўнг барчасида ўлим содир бўлганлиги аниқланди.

Паталогоанатомик текширишлар таҳлили. Гавданинг ташқи кўриниши. Оқ сичқон массаси 55 грамм, тана қуриниши озғин, орқа жунлари силлиқ, қорин кўкрак жунлари ёпишган. Бурун оғиз

шиллик қаватлари сарғиш қизғиш рангда, тишлари сарғайган, тана қотмаган, бурундан оқмалар йўқ куруқ. Кўзи очиқ, шиллик қаватлари қизғиш рангда, қулоқдан оқмалар йўқ, қон томирлар эса қонга тўлган, қулоқ ички пардаларида нуктасимон қизил доғлар ҳосил бўлган, орқа чиқарув тешиги атрофи куруқ.

Кўкрак ва қорин бўшлиқлари очилиб, ички органлар ажратиб олинди. Паренхиматоз органларнинг ҳажми, шакли, ранги, консистенсияси ва кесилган юзлари текширилди.

Кўкрак ва қорин бўшлиқлари куруқ, ички органларининг анатомик жойлашиши меъёрида. Кўкрак қафаси остида майда нуктали қон қуйилишлар аниқланди. Қон ивимаган, тўқ қизил рангда, тери ости мускуллари атрофия ҳолатида.

Ўпка ялтироқ қизил рангда. Қон қуйилиш ва гиперимия ўчоқлари ҳосил бўлган, юрак эпикаридида қон томирлар гиперемияси, жигарни ҳажми катталашган, мускат рангда жигар қобиғида қон қуйилишлар ҳосил бўлган, кесилган юзада қон кўринади, талоқ қисман ҳажмига катталашган, буйраклар қобиғида майда нуктасимон қон қуйилишлар мавжуд. Консистенсияси юмшоқ, кесилган юзада ивимаган қон кўринади, қалқонсимон безида яллиғланиш белгилари мавжуд.

Ошқозон бўшлиғида кўпиксимон озиқа, оқиш кулранг. Ички шиллик қаватлари қизарган қон томирлар кенгайган қизил қон қуйилишлар мавжуд.

Ингичка ичаклар озиқа билан тўлган, озиқа сариқ рангда, ички шиллик қаватлар оч қизғиш рангда. Йўғон ичакларда қисман озиқа массаси бор, ички шиллик қаватлар оч қизғиш рангда, кўр ичак озиқа билан тўлган қорамтир қизғиш рангда шиллик қавати оч қизғиш рангда, қон томирларида гипиремия. Организмда қон томирлар реакцияси кучайган, улар гиперемия, қон қуйилишлар билан характерланди.

Хулосалар

1. Лаборатория ҳайвонларига турли хил дозадаги натрий фторид эритмасини сувга қўшиб берилиши улар организмга узининг салбий таъсирларини намоён қилди. Унинг сичқонлари учун ўткир захарловчи миқдор кўрсаткичлари 50 мг/лни, тўлиқ ўлдирувчи дозаси эса 450 мг/л ни ташкил қилди.

2. Фторидли захарланишлардаги асосий патологик ўзгаришлар кўкрак қафаси ва ўпкада нуктасимон қон қуюлишлар ҳамда гиперимия, жигар, талоқ ва

буйрақлар катталашган, юрак қон томирларда гипертимия, ошқозон шиллиқ қавватларида қизариш ҳамда қон қуюлишлар билан намоён бўлди. Тишлар эмал қатламида сарғиш рангдаги қўнғир нуқтасимон белгилар мавжуд бўлиб, суяқлар муртлашуви билан намоён бўлди.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Габович Р.Д Экспериментальное исследование Токсичности малых концентраций фтора. Врачебное дело №4 Гигиена и санитария, №7.

2. Гайдаш А.А., Цуканов В.В. Влияние терапевтических доз фтора и цеолитового энтеросорбента на ультраструктуру печени // Гепатология. — 2005. — № 5. — С.24-28.

3. Емельянов, А.М. Сбродов Ф.М., Бураев М.Э. Защита животных от техногенных воздействий // Проблемы экологии и охраны окружающей среды: Тез. докл. научно-практ. семинаров на междунар «Уралэкология-96». Екатеринбург. 1996. С. 22. 23.

4. Коротенко О.Ю., Панев Н.И. и др. Хроническая фтористая интоксикация как фактор риска развития атеросклероза. Гигиена и сам. 2015; 94 (5): 91-4

5. Любашевский, Н.М. Клинико-морфологические изменения у животных в зоне загрязнения фтором / Н.М. Любашевский, А.М. Емельянов, М.И. Джураев и др. // Ветеринария. 1992 № 2. С. 50-52

6. Николаева Л.А. Хроническая интоксикация фтором и его соединениями. Естественное и гуманизм. – Т. ВИ. – 2010.– № 1.

7. Шалина Т.И., Васильева Л.С. Общие вопросы токсического действия фтора // Сибирский медицинский журнал. – 2009. – № 5. – С. 5–8.

8. Ядикина Т.К и др “Клинико-экспериментальные исследования сердечно-сосудистых нарушений в условиях фтористой интоксикации организма” Russian Journal of Occupational Health and Industrial Ecology - 2020; 60 (6).

9. Espallarques M. Sampietro-Colom L, Estrada M.D Identifying bonemassrelated risk factors for fracture to guide bone densitometry measurements. Osteoporosis lut-2001. Vol. 12.P 811-822.

10. Haikel Y., Voegel J.C., Frank R.M. Fluoride content of water, dust, soils and cereals in the endemic dental fluorosis area of Khouribga (Morocco). Arch. Oral Biol., 1986, 31(5): 279-286.



JO‘JALAR QONINING MORFOLOGIK VA AYRIM BIOKIMYOVIY KO‘RSTGICHLARIGA VITAMINLI PREPARATLARNING TASIRI

Annotatsiya: Maqolada introvit YES-200 vitaminli preparatning boshqa vitaminli komplekslarga taqqoslab jo‘jalar qonining morfologik ko‘rsatgichlariga va ayrim biokimyoviy ko‘rsatgichlariga ta’sir doiralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan.

Annotation. The article provides information on the effects of the introvit EC-200 vitamin preparation on morphological indicators and some biochemical indicators of the blood of chickens in comparison with other vitamin complexes.

Kalitso‘zlar: Jo‘ja, guruh, eritrosit, gemoglobin, leykotsit, trombosit, vitamin, kalsiy, anorganik moddalar, ishqoriy fosfataza.

Key words: Chick, group, erythrocyte, hemoglobin, leukocyte, thrombocyte, vitamin, calcium, inorganic substances, alkaline phosphatase.

Mavzuning dolzarbligi. Chorvachilikning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan parrandachilik hozirgi vaqtda ma’suliyati cheklangan, aksionerlik jamiyatlarda, dehqon fermer va shaxsiy yordamchi xujaliklarda asralib kelayotgan ozuqalarning sifat ko‘rsatgichlarining pastligi sababli ularning orasida turli xildagi gipovitaminozlar uchrab turadi va oqibatda yosh parrandalar o‘sib va rivojlanishidan orqada qolibgina qolmasdan katta yoshdagi tovuqlarning maxsuldorlik ko‘rsatgichlari pasayadi. Bunday vaqtlarda albatta ozuqaga vitaminli aralashmalar qushib berish orqali ozuqaning sifat ko‘rsatgichlari qisman bulsada yaxshilanishga erishiladi.

Vitaminli preparatlar Respublikamizga asosan xorijiy mamalakatlardan keltiriladi. Ularning sifat darajalarini aniqlash maqsadida qonning morfologik va biokimyoviy ko‘rsatgichlariga ta’sir doiralari o‘rganish dolzarbdir.

Materiallar va metodlar. Laboratoriya tajribalarini amalga oshirish uchun Samarqand viloyati, Pastarg‘om xududida joylashgan “Nargiza parranda” tovuqchilik xo‘jaligidan 80 bosh bir kunlik “Loman LSL Klassik” zotiga mansub jo‘jalar olib kelinib uy sharoitidagi kichik tovuqxona to‘shamalar ustiga joylashtirildi. Jo‘jalar o‘n besh kunlik bo‘lganida 20 boshdan qilib oddiy tarozida tirik vazinlari o‘lchab to‘rtta guruh tuzildi. Jumladan: birinchi qiyosiy nazorat guruhi bo‘lib, ular tajriba oxirigacha xo‘jalik ratsioni asosida oziqalantirildi. Qolgan uchta guruhdagi jo‘jalar tajriba uchun olindi va ularni ham yigirma boshdan tirik vazinlari o‘lchanishi bilan oq Turkiya mamlakatida ishlab chiqarilgan Lyusmiks vitaminli kompleksdan 2gr/kg

ozuqaga aralashtirib kun davomida berildi. (2-guruh). Uchinchi tajriba guruhidagi jo‘jalarga Gollandiya mamlakatida ishlab chiqarilgan Introvit YES-200 preparatining 1gr/l suvga aralashtirib 30 kun davomida ichirildi va to‘rtinchi tajriba guruhidagi 20 bosh jo‘jalarga esa Rossiya federatsiyasidan keltirilgan Reks vital vitaminli kompleksdan 0,5gr/kg ozuqa orqali 7 kun davomida berildi. Qo‘llanilgan vitaminli preparatlarning qonning morfologik ko‘rsatgichlariga ta’sir doiralari tajribaning 10, 20 va 30-kunlari qanot osti venasidan qon olinib aniqlandi.

1mm³ qondagi eritrotsitlar, leykotsitlar va trombositlar soni Romanov Gimza va metelviolet bo‘yoqlari bilan bo‘yalganidan keyin Goryayev sanoq to‘rida I.A. Bolotnikov va V.S. Solovyovlar usulida sanaldi. (1980). Qon tarkibidagi gemoglobin miqdori gemoglobinsianid usulida atsitontsiangidrin bilan KFK-2 fotoelektrokolorimetrdan aniqlandi. I.P. Kondraxin va boshqalar (1985). Olib borilgan tajribaning oxirgi kuni barcha guruhdagi jo‘jalar so‘yilib qon zardobida Ca, anorganik P va ishqoriy fosfataza fermentlari Samarqand shahar Arsimed tibbiyot laboratoriyasida ST-180 nomli asbobida aniqlandi. Laboratoriya tajribalaridan olingan raqamlar S.I. Lyutinskiy va V.S. Stepin (1989) usulida statistik ishlab berilib olingan raqamlar orasidagi farqlarga Student jadvaliga qarab aniqlik kiritildi.

Olingan natijalar. Laboratoriya tajribalarning natijalari shuni kursatadiki, vitaminlar jo‘jalar qonining morfologik ko‘rsatgichlariga ta’sir doiralari o‘rganish maqsadida ularni qullanmasiga asosan jo‘jalarga berilganda tajriba guruhdagi yani ikkinchi guruhdagilar Ly-

1-jadval.

Jo'jalar qonining morfologik ko'rsatkichlariga vitaminli preparatlarining ta'siri

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Tekshiruv kunlari											
			10				20				30			
			Eritrosit(10 ¹² /l)	Gemoglobin(g/l)	Leykosit(10 ⁹ /l)	Trombotsitlar(10 ⁹ /l)	Eritrosit(10 ¹² /l)	Gemoglobin(g/l)	Leykosit(10 ⁹ /l)	Trombotsitlar(10 ⁹ /l)	Eritrosit(10 ¹² /l)	Gemoglobin(g/l)	Leykosit(10 ⁹ /l)	Trombotsitlar(10 ⁹ /l)
1	Qiyosiy nazorat		4.65±0.05	89.1±1.15	27.3±1.10	35.4±1.77	3.79±0.10	91.5±0.17	27.5±0.16	36.1±1.10	4.10±0.05	101.2±0.07	18.4±0.71	36.3±1.17
2	Tajriba	Lyusimks	4.67±1.05	94.3±0.07	27.6±2.03	36.1±1.05	4.48±0.09	97.0	28.1±1.95	36.4±1.05	4.94±0.09	110.5±0.05	27.8±2.00	36.8±1.00
3	Tajriba	Introvit YES-200	4.73±1.95	96.5±1.10	26.5±1.05	36.5±2.00	4.84±1.12	98.0±1.21	28.3±1.45	36.8±1.02	4.90±0.10	110.8±1.10	28.4±1.04	36.5±0.09
4	Tajriba	Reks vital	4.68±1.50	92.4±0.03	27.2	36.7±1.75	4.37±1.15	96.4±1.12	27.8	36.5±1.44	4.59±1.40	116.5±1.18	27.9±1.05	36.3±1.95

Jo'jalar qonining ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga vitaminli preparatlarning ta'siri

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi	Tovuqlardagi jo'jalar bosh soni	Kalsiy mmol/l	Anorganik fosfor mmol/l	Ishqoriy fosfat Me/l
1	Kimyoviy nazorat	-	-	20	2.45±0.01	1.02±0.03	2485±119
2	Tajriba	Lyusmiks	2g/kg ozuqa bilan 30kun	20	2.53±0.03	1.13±0.04	2542±123
3	Tajriba	Introvet YES-200	1g/l suv bilan 30 kun	20	2.71±0.02	1.24±0.05	2694±130
4	Tajriba	Reks vital	0.5 g/kg ozuqa bilan 7 kun	20	2.62±0.03	1.11±0.04	2624±112

usmiks vitaminli kompleksni qullash davomida tajribaning uchinchi kunidan boshlab tajribaning oxirigacha 1mm³ qondagi eritrositlar soni 18,2-20,5%gacha, gemogloblin miqdori 6,0-9,2-gacha uchinchi tajriba guruhidagi jo'jalar Introvet YES-200 vitaminli kompleksni 1kg\l suv bilan o'ttiz kun davomida berilganda qondagi eritrositlar soni 18,2-20,4%-gacha, gemogloblin miqdori 8,3-15,4%-larga va to'rtinchi tajriba guruhidagi jo'jalar Reks vital vitaminli kompleksni 0,5gr\kg ozuqaga qushib 7kun davomida berilganda 1mm³ qondagi eritrositlar soni 15,3-20,5%-larga gemogloblin miqdori esa 12%,0-15,1%-larga qiyosiy nazorat guruhidagi jo'jalarning qon ko'rsatkichlariga nisbatan kupaygan. Leykotsitlar va trombositlar soni birinchi qiyosiy guruhdagi jo'jalarning qon kursatkichlaridan farq qilmasdi. P 0,05 olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Tajriba tugashi bilan barcha guruhdagi jo'jalar so'yilib qoni olindi va uning zardobi ajratib olinib uning tarkibidagi kalsiy, anorganik fosfor miqdorlari hamda ishqoriy fosfatga fermentining faolligiga qullanilgan vitaminli premiksning ta'sir doiralarini aniqlaganimizda olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib tajriba va kuzatishlar shuni kursatadiki, ikkinchi tajriba guruhidagi jo'jalar qullanmasiga asosan Lyusmiks vitaminli kompleksni 30kun davomida olganlarida qon zardobidagi kalsiy miqdori tajriba oxirigacha 3,2%, anorganik fosfor 11,0%-ga kupaygan bo'lsa ishqoriy fosfatga fermentining faolligi 2,3%-larga qiyosiy nazorat guruhidagi jo'jalarning qon ko'rsatkichlariga nisbatan oshgan. Uchinchi tajriba guruhidagi jo'jalar Introvet YES-200 vitaminli kompleksdan 1gr\l ichimlik suvi orqali 30 kun davomida olganlarida qon zardobidagi kalsiy miqdori 11,0%-ga, anorganik fosfor 21,5%-larga va ishqoriy fosfatga fermentining faolligi 8,4%-larga va to'rtinchi tajriba guruhidagi jo'jalar

reks vital vitaminli kompleksni 7kun davomida 0,5gr\kg ozuqa bilan olganlarida qon zardobi tarkibida kalsiy miqdori 7,0%-ga, anorganik fosfor 9,0%-larga va ishqoriy fosfatga fermentining faolligi qiyosiy nazorat guruhidagi jo'jalarning qon kursatkichlariga nisbatan oshgan.

Xulosa Qo'llanilgan vitaminli premikslar jo'jalarning fiziologik xolatlariga ijobiy ta'sir qilibgina qolmasdan qonning tarkibidagi eritrositlar sonini, gemogloblin miqdorini, qon zardobidagi kalsiy, anorganik fosfor zaxaralarini ekan va ishqoriy fosfatga fermentining faolligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Активность пищеварительных ферментов в дуоденальном химусе и плазме крови у исходных линий и гибридов мясных кур при использовании биологически активных добавок в рационе / В. И. Фисинин, И. А. Егоров, В. Г. Вертипрахов [и др.] // Сельскохозяйственная биология 2017. Том 52. № 6.-С. 1226-1233.

3.Юкори дозалар (10 мкг/бош) патлар қопламининг оғирлигига салбий таъсир қилади (9,41% пасайиш), шунингдек ўсишни сусайтиради ва янги патлар учлари сонини камайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бреславец, В.М. Эффективность различных гормональных препаратов при нормализации дисфункции яичников // Известия Оренбургского государственного аграрного университета. 2013. № 3 (41). С. 252–254.

2.Саколов В.Д. Ветеринарная фармакология // Учебник. Санкт-Петербург, 2010. С.270-273.

3.Салимов Ю. Ветеринария фармакологияси // Ўқув қўлланма. Ташкент, 2019. 178-182-б.

4.Акчурина Е. С. Эффективность гормональных препаратов для стимуляции воспроизводительной способности коров при гипофункции яичников. Диссертация на соискание ученой степени кандидата ветеринарных наук. Саратов – 2017 .С-118-120.

5. Субботин, В.М. Современные лекарственные средства в ветеринарии / В.М. Субботин, С.Г. Субботина, И.Д. Александров. – Ростов–на–Дону: «Феникс», 2010. – 592с.

6.Bartlett S., Polley J., Rowlands S.J. Oestrogenic in grass and their possible effects on milk secretion.// Nature, 2018, 162, p.845

7. Denicol, A.C. Low progesterone concentration during the development of the first follicular wave reduces pregnancy per insemination of lactating dairy cows / A.C. Denicol, G.Jr. Lopes // J Dairy Sci. – 2012. – Vol. 95. – № 4. – P. 794–806. 120

8. Холиков А.А.«Ветеринария амалиётида янги утероген моддаларни қўллаш». Зооветеринария журнали, – № 1, 2009 йил январ.



“BIOSTIMVET” PREPARATINI QUYONLARNING O‘SISH VA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya. В данной статье описаны результаты исследования, проведенного по изучению влияния тканевого препарата «Биостимвет» из печени форели на рост и развитие кроликов.

Kalit so‘zlar: Biostimvet, natriy xlorid, oqsil, atrofiya, ketogen aminokislota, amiloidli distrofiya, konservatsiya, forel, biogen stimulyatorlar, biosintez, hujayra.

Kirish. Bugungi kunda chorvachilikda o‘shish va rivojlanishni tezlashtirish hamda boqish vaqtini qisqartirish maqsadida turli xil to‘qima preparatlari va oziqa qo‘shimchalridan keng foydalanilmoqda. To‘qima preparatlari organizmga murakkab ta’sir ko‘rsatib, immunobiologik xususiyatlarini, regenerativ jarayonlarni, patogen omillarga chidamliligini va himoya tizimlari funksiyalarini oshirish xususiyatiga ega [2; 4].

Hayvonlardan olingan xomashyodan tayyorlangan to‘qima preparatlari tanaga umumiy ta’sir ko‘rsatadi, so‘ngra shu asosida ularning tegishli organlari va tizimlariga selektiv ta’sir ko‘rsatadi. Doimiy ravishda metabolism jarayonlarini, umuman organizmning hayotiy faoliyatining integratsiyasini va uning tashqi muhit bilan aloqasini muvofiqlashtiradi. Makro va mikroelementlar, shuningdek hayvon organizmidagi boshqa biologik faol moddalar o‘rtasida almashinuvni yaxshilaydi [6; 5].

To‘qima preparatlari ta’sir mexanizmi asosan fermentlar faolligiga, proteoliz va glikoliz jarayonlarini

faollashtirishga, endokrin bezlarning faollashishiga, taloqning retikuloendotelial tizimiga, jigarga, suyak iligiga, asosiy metabolismni normallashtirishda ta’siri nomoyon bo‘ladi. To‘qima preparatlari butun organizmning ma’lum darajada faollashtirib, markaziy asab tizimiga, vegetativ innervatsiyaning efferent uchlariga, ferment jarayonlariga, gormonal va sekretor faollikka, immunobiologik holatga, gemopoezning faollashishiga va boshqalarga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi [1; 3].


Hayvonlarning o‘shish va rivojlanishida biokimyoviy jrayonlarning faolligi muhim hisoblanadi hamda barcha o‘sovchi organizm to‘qima va azolarida muhim vazifalarni bajaradi. Qon tarkibidagi oqsillar dinamik holatining muvozanatda bo‘lishi birinchi navbatda oqsillar konsentratsiyasining alohida fraksiyalarining o‘ziga xoslik xususiyatlariga, oziqlanishiga va moddalar almashinuvlariga bog‘liq. Organizm ehtiyojlari uchun muskullar oqsilining ishlatilishi oqibatida ularning atrofiyasi, organizmda oraliq mahsu-

1-jadval.

“Biostimvet” ta’sirida quyonlarning tirik vaznining o‘zgarishi (kg) n=15

Davrlar	Hayvonlar guruhleri		
	I tajriba guruhi	II tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Preparat yuborishdan oldin	2,080±0,061	2,090±0,076	2,100±0,054
3 kundan keyin	2,190±0,59	2,191±0,081	2,158±0,072
5 kundan keyin	2,258±0,87	2,292±0,061	2,207±0,083
10 kundan keyin	2,398±0,71	2,481±0,073	2,283±0,069
15 kundan keyin	2,484±0,63	2,591±0,051	2,326±0,76
20 kundan keyin	2,532±0,86	2,706±0,65	2,394±0,62
25 kundan keyin	2,614±0,75	2,827±0,93	2,478±0,59

P<0,05



1-rasm. Quyoning tirik vaznining o'zgarishi (%) hisobida.

lotlarning, ketogen aminokislotalarning to'planib qolishi, hamda parenxamatoz va boshqa a'zolarida yog'li, oqsilli, amiloidli distrofiya, organizmning hayotiy muhim funksiyalarini izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada hayvonlar o'sish, rivojlanishdan ortda qoladi [1; 7].

Tadqiqot ob'ekti va uslublari. Ta'siri o'rganilayotgan forel balig'i jigari ekstrakti "Biostmvet" preparatini quyoning fiziologik ko'rsatkichlari va tana vaznining ortishiga ta'sirini aniqlash uchun tajribalar o'tkazildi. Tekshirishlar uchun jami 15 bosh quyonglar tanlab olindi va uch guruhga ajratildi. Birinchi tajriba guruhidagi quyonglarga forel balig'i jigari ekstrakti teri ostiga bir marta, ikkinchi tajriba guruhi quyonglariga 72 soatlik oraliq bilan ikki marta tirik vazniga 0,5 ml miqdorda teri ostiga yuborildi. Uchinchi nazorat guruhi quyonglarga esa 0,9 % natriy xlorid eritmasi yuborildi.

Natijalar va ularning tahlili. "Biostmvet" preparatni quyonglarga qo'llashdan oldin va 3, 5, 10, 15, 20 va 25 kundan keyin muntazam ravishda tarozida tortish orqali tana vaznining o'zgarishlari aniqlab borildi.

Tajribalarda olingan natijalar 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra tajriba guruhidagi quyonglarga "Biostmvet" preparati qo'llanilgandan 3 kun o'tgach, I tajriba guruhi quyonglarining tirik vaznda nazorat guruhiga nisbatan 32 gr yoki 1,48%ga, II tajriba guruhida esa 33 gr yoki

1,52%ga yuqori bo'lganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotning 5-kunida quyonglarning tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi tirik vaznidagi farq mos ravishda ortib borganligi kuzatildi. I tajriba guruhida nazoratga nisbatan 51 gr yoki 2,31% ga, II tajriba guruhida bu ko'rsatkich 85 gr yoki 3,85% ga oshganligi kuzatildi. Quyonglarni tarozida tortishning 10 kunda tirik vazndagi sezilarli farq ikkinchi guruh quyonglarida qayd etildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ikkinchi guruh quyonglari nazorat guruhi quyonglardan mos ravishda 198 gr yoki 8,67% ga yuqori bo'ldi. Tadqiqotlarning qolgan davrlari bo'yicha ham mos ravishda ikki marta "Biostmvet" preparati qo'llanilga II tajriba guruhi quyonglari yuqori ko'rsatkichda ekanligini 1-diagrammada kuzatish mumkin (1-jadval).

Tajriba oxirida barcha guruhlardagi quyonglarning tirik vaznini oshish tendentsiyasi kuzatildi. Biroq bir marta "Biostmvet" preparati qo'llanilgan quyonglarning o'sishi 20 kundan keyin sezilarli ravishda pasaygan. Bu ko'rsatkich mos ravishda 25 kundan keyin ham kuzatildi. Ikki marta "Biostmvet" preparati qo'llanilgan quyonglarning o'sishi 25 kundan keyin nazoratga nisbatan 349 gr yoki 14,08% ga yuqori bo'lgan (1-rasm).

Xulosa. Tajriba natijalariga ko'ra, "Biostmvet" preparati qo'llanilgan quyonglarning o'sishi nazoratga nisbatan yuqori bo'lganligini ko'rsatdi. Ikki marta

“Biostmvet” preparati qo‘llanilgan quyonlarning o‘si-
shi 10-kundan boshlab, nazorat hayvonlariga nisbatan
sezilari ravishda oshib bordi va 25-kunga kelib 14,8%
ga yuqori bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Даричева Н.Н., Ермолаев В.А. Тканевая
терапия в ветеринарной медицине: Монография. –
Ульяновск, Угсха, 2011. -168 с.

2. Ноздрин, Г.А., Рафикова, Э.Р., Лемяк, А.И., эт
ал. Нев препаративон баседон дуддингтониафлагранс
ас ан алтернативе триггер фор гровтх стимулатинг
фасторс ин тхе организмс оф броилерс // Жоурнал
оф Пхармасаеутисал Сиенсес анд Ресеарч. - №10. -
Р. 253-254.

3. Хатамов Т.Т. Использование биогенных

стимуляторов в ветеринарии и фармацевтические
требования к ним. Лифе Сиенсес анд Агрисултуре
№3. 2020. 44 с.

4. Хатамов Т.Т, Холиқов А.А., Қулдосhev G‘.М. Ef-
ficacy of tissue products in karakul lambs, when shown
by different nutrition. European Journal of Agricultural
and Rural Education (EJARE). 40-41 b.

5. Хатамов Т.Т. Forel balig‘i jigari ekstraktini qor-
ako‘l qo‘zilari qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlariga
ta’siri. International Conference on Developments in
Education, Sciences and Humanities. Hamburg, Ger-
many Conference-2022. 355 b.

6. Машковский, М.Д. Лекарственные средства. -
М.: Новая волна, 2001. - 160-264 с.

7. Толкач Н.Г. Ятусевич И.А. Ятусевич А.И.
Петров В.В. Ветеринарная фармакология. Минск
«Техноперспектива» 2007. 248-253 с



SCENEDESMUS SUVO'TIDAN CHORVACHILIKDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola bir hujayrali Scenedesmaceae oilasi yashil suvotlar turkumiga mansub Scenedesmus suvo'tining chorvachilikda foydalanish istiqbollari mavzusida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib bu orqali ular tuzilishi va yashash tarzi, suspenziyasining ishlatilishi o'rganilib chiqilgan.

Kalit sozlar: Scenedesmaceae oilasi, Protokokkalar, yashil suvotlar, suspenzia, biomassa, chorva mollari, mikrofit

Kirish. Hozirgi vaqtda miksuvo'tlar biomassasi qayta tiklanadigan qimmatli xom ashyo sifatida katta qiziqish uyg'otmoqda. Ular turli xil tijorat maqsadlarida ishlatiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun - kimyo, neft-kimyo va oziq-ovqat sanoatida muhim ahamiyatga ega. Fototroflarni qo'llanilishining eng muhim jihati miksuvo'tlarning karbonat angidridning bioutilizatsiya qilishi hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqotchilar e'tiborini mikrosuvo'tlar oqsillar, uglevodlar, yog'lar, vitaminlar va boshqa fiziologik faol moddalar manbai sifatida tobora ko'proq jalb qilmoqda. Protokokkalar, ayniqsa xlorella va scenedesmus kabi suv o'tlari katta qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu mikrofitalar o'sish sharoitlariga qarab, hujayralardagi organik birikmalarning miqdoriy tarkibi, shu jumladan biomassaning umumiy kabi ko'rsatqichlarni o'zgartirish qobiliyatiga egalar.

Tahlil natijalari. Scenedesmaceae oilasi yashil suvo'tlar turkumiga mansub. Yon devorlar bilan bog'langan 4-16 cho'zinchoq hujayradan iborat senobiya (koloniyalar) hosil qiladi. Hujayralarning yuzasi silliq yoki turli proektsiyalarga ega bo'lib, tashqi hujayralarda ko'pincha tikanaklar mavjud (1-rasm).


Scenedesmus avtosporalar orqali ko'payadi, ular (avtosporala) har bir hujayrada 4, 8 yoki 16 tadan hosil bo'ladi va keyin birlashib, yangi senobiylar hosil qiladi.

Scenedesmus avlodiga 100 ga yaqin turlar kirib, ular toza suvlarda uchraydi. Scenedesmusni oziq-ovqat va ozuqa manbai sifatida yetishtirishga harakat qilinmoqda.

Scenedesmus avlodi boshqa mikrosuvo'tlarga qaraganda karbonat angidridning sezilarli darajada yuqori konsentratsiyasiga bardosh bera olishligi bilan boshqa mikrofitalardan ajralib turadi.

Qulay sharoitda intensiv ko'paya oladigan Scened-

esmus kulturalarining kimyoviy tarkibi ancha barqaror. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash joizki, Scenedesmus metabolizmining o'ta yuqori plastikligi va uning turli xil tashqi omillar ta'siri ostida va etishtirish sharoitlariga qarab, biosintez yo'nalishini tubdan o'zgartirish qobiliyati mavjuddir.



1-rasm. Scenedesmus senobiylari

Oziqlanish elementlari suvo'tlari uchun moddiy va hayotiy asosdir. Scenedesmus mikroyosunlarini yalpi etishtirishda, odatda yuksak o'simliklarni etishtirish-

da ishlatiladigan tuzlar qo'llaniladi. Biroq, protokokk suvo'tlari, yuksak o'simliklardan farqli o'laroq, ozuqa eritmasidagi tuzlarning o'zgacha konsentratsiyasida o'sishga qodir.

Ozuqa muhitlarning tarkibi har doim ma'lum bo'ladi, ammo uning tarkibiy qismlarining konsentratsiyasi tajriba davomida o'zgartirilishi mumkin. Odatda mikrosuvo'tlarni etishtirish uchun mineral ozuqa muhiti ishlatiladi. Asosiy komponentlarni tanlash ancha murakkab va uzoq davom etadigan jarayon. Muhitning asosiy komponentlari uglerod, azot, fosfor, oltinugurt, mikroelementlar, o'sish garmonlari va biomassa o'sishini boshlash uchun vitaminlar manbalari hisoblanadi. Ammo asosiy tanlov qilingan bo'lsa va oziqa muhitining tarkibi allaqachon ma'lum bo'lsa ham, ushbu elementlarning nisbatlarini yana bir bor aniqlash kerak. Bu nisbat olingan natijalar sifatini yaxshilashga imkon beradi.

Qulay sharoitda intensiv ko'paya oladigan Scenedesmus kulturalarining kimyoviy tarkibi ancha barqaror. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash joizki, Scenedesmus metabolizmining o'ta yuqori plastikligi va uning turli xil tashqi omillar ta'siri ostida va etishtirish sharoitlariga qarab, biosintez yo'nalishini tubdan o'zgartirish qobiliyati mavjuddir.

Yosunlarni, shu jumladan scenedesmusni maxsus qurilmalarda etishtirish chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik va baliqchilikda qimmatli ozuqa va biostimulyator sifatida ishlatiladigan suspenziya olish imkonini beradi.

Scenedesmusni muntazam ravishda ishlatish, chorva mollarning immunitet tizimini holatini yaxshilaydi, kasalliklarga chidamliligini oshiradi va to'qimalarning yangilanishiga yordam beradi. Quruq biomassani emas, balki aynan ularning suspensiyasini ishlatish yaxshi natija berishligini bir qator tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida ko'rsatib o'tishgan.

Suspenziya holda hayvonlar nafaqat suv o'tlari biomassasini, balki eritmada hujayralar hayoti davomida hosil bo'lgan barcha moddalarni (vitaminlar, aminokislotalar, fermentlar) va mineral moddalarni ham oladi. Ma'lumki, yuqoridagi moddalarning yetishmasligi organizmdagi metabolik jarayonlarning buzilishiga olib keladi, bu hayvonlarning rivojlanishi, o'sishi, ko'payishi va mahsuldorligiga salbiy ta'sir qiladi.

O'z navbatida, suspenziya oshqozon-ichak traktiga kirib, u erda joylashgan sut kislotasi bakteriyalarini zarur bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minlaydi, chun-

ki bu ular uchun eng maqbul oziqlantiruvchi vositadir. Oziq-ovqatning hazm bo'lishini oshirish sut kislotasi bakteriyalarining faolligi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun chorva mollari ozuqasida suspenziyadan foydalanish, ularning o'sishi va rivojlanish tezligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, suv o'tlarini suspenziya shaklida ishlatish, pasta yoki quruq biomassa shaklidan ko'ra ancha samarali. Yosunlilardan foydalanishda kultural suyuqlikdan biomassani ajratish, konservalash, quritish, saqlash, tashish va boshqa amaliy jarayonlar bilan bog'liq bir qator ishlar qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Bundan tashqari, biomassa kultural suyuqlikdan ajratilganda, unda suvo'tlarining ko'plab metabolik mahsulotlari qoladi, buning natijasida hosil bo'lgan mahsulotning ozuqaviy qiymati kamayadi.

Xulosa. Shunday qilib, suvo'tlari, shu jumladan Scenedesmus suspenziyasi vitamin-mineral bioqo'shimchasi sifatida qo'shilgan holda hayvonlarni aralash ozuqalar bilan boqish bo'yicha tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish uning import qilinadigan qimmatbaho ozuqalarni mahalliy ozuqalar bilan almashtirish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Музафаров, А.М. Культивирование и применение микроводорослей / А.М. Музафаров, Т.Т. Таубаев. – Ташкент: «Фан» УзССР, 1984. – 136 с.
2. Veterinariya va chorvachilik sohasida dolzarb muammolar va ularning yechimi to'plami 2023-yil, 12-13 may
3. N.Xo'jaeva, K.Buranova, Narzullaev F., N.Xodjaeva. Xlorella vulgaris suvo'tining o'sish dinamikasi
4. Veterinariya va chorvachilik sohasida dolzarb muammolar va ularning yechimi to'plami 2023-yil, 12-13 may Xodjaeva N.J., Akbarova G.V., Tojiev Sh., Azamatov
5. Тремасов М.Я. Новые технологии в утилизации органических отходов и реабилитации почвы / М.Я. Тремасов, А.А. Иванов // Ветеринарный врач. – 2008. - № 1.- С.2-3.
6. Куницын, М. Хлорелла – будущее птицеводства / М. Куницын // Птицеводство. – 2009. - № 04. – С. 11-13.
7. Khodjayeva. N. et al. The Use of Ginseng in Medicine and Pharmaceuticals //Kresna Social Science and Humanities Research. – 2022. – Т. 5. – С. 48-51.

TUXU619M YO'NALISHIDAGI JO'JALARNING VA TUXUMDOR TOVUQLARNING FIZIOLOGIK HOLATLARIGA ANTISTRESSAR PREPARATLARNING TA'SIRI

Annotasiya: Ushbu maqolada tuxum yo'nalishidagi jo'jalarning o'sib va rivojlanishiga hamda katta yoshdagi tuxumdor tovuqlarning maqsuldorlik ko'rsatkichlariga, sifatiga askorbin kislotasi biosupervit HEO va V-chitomin vitaminlar komplekslarining ta'sir doiralari berilgan.

Annotation: in this article, the spheres of influence of the complexes of ascorbic acid biosupervit Heo and V-chitomin vitamins are given to the growth and development of chicks in the egg direction and the indicators of the effectiveness, quality of adult egg-bearing chickens.

Kalit so'zlar: Vitsimin, kompleks, guruh, jo'ja, tovuq, tuxum, A vitamin, karotin, saqlanuvchanlik, tirik vazn.

Keywords: Vitsimin, complex, group, Chick, chicken, egg, vitamin A, carotene, preservation, living weight.

Mavzuning dolzarbligi. Vazirlar mahkamasining qator ishlab chiqqan qarorlariga asosan chorvachilikning eng serdaromad sohalaridan biri bo'lgan tovuqchilik hozirgi vaqtda asosan dehqon fermer va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida asralib kelinmoqda. Tovuqlarning jo'jalari bir kunligidan boshlab 120 kunligigacha yosh tovuqlar bo'lib bu muddatgacha alohida tovuqxonalarda saqlanilib barcha yuqumli kasalliklarga qarshi emlaniladi. Keyingi davri alohida tovuqxonalariga transportlar orqali tashilib kata tovuqlar saqlaniladigan hududga o'tkazilib to 560 kuncha ya'ni to'lig'icha ulardan olinadigan tuxum mahsulotlari olinib bo'lguniga qadar foydalaniladi. Mana bu davrda o'tkazilgan veterinariya chora tadbirlari, oziqalarning tez tez almashinuvchi, ularga qo'shiladigan komponentlarning yetishmasligi yoki miqdorining oshib ketishi tovuqxona haroratining o'zgarishlari, yorug'likning bo'lmay qolishi sababli muammolar hosil bo'lib turishida tovuqlar organizmining zo'riqishi sababli yosh parrandalarning ko'pchiligi nobud bo'ladi. Katta yoshdagi tovuqlarning esa tuxum maqsuldorligi pasayadi. Stress omillar ta'sirida G Sele ta'limotiga asosan qaralganda turli xil ta'sirotchilar ta'sirida organizimda patologik, biokimyoviy va endokrin bezlar faoliyatlarining o'zgarishlari hosil bo'lar ekan.

Yuqoridagi muammolarning oldini olishda antistress preparatlar misolida turli xil vitamin va vitaminli komplekslarning yosh jo'jalarning ayrim fiziologik holatlariga hamda katta yoshdagi tovuqlarning tuxum maqsuldorligiga va sifat ko'rsatkichlariga ta'sir doiralarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Materiallarni tekshirish uslublari va metodlari. Laboratoriya tajribalarida oldimizga qo'yilgan muammolarni bajarish uchun bir kunlik "Loman LSL Klassik" zotiga mansub jo'jalar Samarqand viloyati, Past darg'om tumaniga qarashli "Nargiza parranda" tovuqchilik xo'jaliklaridan olib kelinib kichik tovuqxonaga joylashtirildi. Ulardan 15 kunligida 4 ta guruh tuzildi har birida 20 boshdan jo'jalardan: birinchisi qiyosiy nazorat guruhi, ikkinchi tajriba guruhidagi 20 bosh jo'jalarga oziqasiga askorbin kislotasi 0,05 g/r oziqasi orqali 30 kun, uchinchi tajriba guruhiga biosupervit neo vitaminli kompleksdan 0,3 ml/l suv bilan 10 kun va nihoya to'rtinchi tajriba guruhidagi jo'jalarga V-chitaminidan 0,1 ml/l suvga qo'shib 30 kun tajriba oxirigacha berildi.

Qo'llanilgan antistressar preparatlarning samaradorlik ko'rsatkichlari tajriba oxirida jo'jalarning saqlanuvchanlik darajalariga va o'rtacha bir bosh jo'ja tirik vaznining o'sish foyiziga qarab baholandi.

Qo'llanilgan vitaminli preparatlarning tovuqlar tuxum maqsuldorligiga va uning sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan tuxum sarig'i tarkibidagi A vitamin va karotin miqdori aniqlandi. Bu borada yuqorida qayd etilgan xo'jalikdan shu zotga mansub 40 bosh 300 kunlik tuxumdor tovuqlar olib kelinib ulardan 4 ta guruh tuzilib parallel ravishda qo'llanmasiga asosan barcha guruhlariga tajriba guruhlarida qo'llanilgan vitaminli preparatlar yuqorida qayd etilgan dozada va 30 kun muddatda berilib borildi. Jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi tajriba oxirida qolgan jo'jalar bosh soniga qarab, tirik vaznining ushbu foizi M.V.Krilovning (1969)

Jo'jalarning ayrim fiziologik holatlariga vitaminli preparatlarning ta'siri

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Guruhlardagi jo'jalar bosh soni	O'rtacha 1 bosh jo'janing tajribadan oldingi tirik vazni(g)	Saqlanuvchanlik (%)	O'rtacha 1 bosh jo'janing tajribadan keying tirik vazni (g)	Tirik vaznining o'sish
1	Qiyosiy nazorat	—	20	130	98	458	72,0
2	Tajriba	Vitamin C 0,05 mg yem bilan 30 kun	20	130	100	467	73,5
3	Tajriba	Biosupervit Neo 0,3ml/l suv bilan 10 kun	20	130	100	469	74,0
4	Tajriba	V-chitamin 2 ml/2 l suv bilan 30 kun	20	130	100	465	73,5

takomillashgan usulida, tuxum sarig'idagi A vitamin va karotin miqdorlari B.F.Besarapov va boshqa usulida aniqlandi olingan raqamlarga S.I.Lyutenskiy va V.S. Stepen (1990) lar bo'yicha statistik ishlov berildi. Ular orasidagi xatolik darajalariga Styudent jadvaliga qarab aniqlik kiritildi.

Olingan natijalar. Laboratoriya tajribalarni amalga oshirish uchun "Loman SLS Klassik" zotiga mansub bir kunlik jo'jalar olib kelinib oldin umumiy gala qilib simli katakchaga joylashtirilib boqildi. Jo'jalar un besh kunlik bo'lganlarida har birida 20 boshdan qilib tirik vaznlari o'lganib to'rta guruh tuzildi. Birinchi guruh jo'jalar qiyosiy nazorat bo'lib xizmat qildi va ular

xo'jalik ratsioni asosida berildi. Ikkinchi tajriba guruhi-dagi jo'jalar tirik vazni o'lchanishi askorbin kislotaya'ni C vitaminda 0.05 mg/kg yemiga qo'shib 30 kun davomida berildi. Uchinchi tajriba guruhidagi jo'jalarga esa Biosupervit neo vitaminli kompleksdan 0.3 ml/l suvga qo'shib 10 kun va nixoya to'rtinchi tajriba guruhidagi jo'jalarga esa V-chitomin vitaminli kompleksdan 2 ml/2 l suv bilan 30 kun berilganda tajribadan olingan natijalar quyidagicha bo'ldi. Shunday qilib barcha tajriba guruhlardagi jo'jalarning saqlanuvchanlik darajalari 100 % larni tajriba oxirida o'rtacha bir bosh jo'ja tirik vaznining o'sish 73.5, 74.0, 73.5%- larni tashkil qilgan bo'lsa (2,3,4-guruhlar) qiyosiy nazorat guruhidagi

Tovuqlarning tuxum mahsuldorligi va sifatiga vitaminli pereparatlar tasiri

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi	Guruhlardagi jo'jalar bosh soni.	Tuxumdorlik darajasi (%)	Tuxum sarig'idagi A vitamin miqdori (mkg)	Tuxum sarig'idagi karotin miqdori (mg)
1	Kimyoviy nazariya	-	-	10	95,7	5,0	10
2	Tajriba	Vitamin C	0,05 kg yem bilan 30 kun	10	96,5	5,6	11,2
3	Tajriba	Biosupervit neo	0,3 ml/l suv bilan 10 kun	10	97,3	6,1	11,7
4	Tajriba	V-chiktonim	2 ml/2 l suv bilan 30 kun	10	96,0	5,3	10,3

joʻjalar xoʻjalik ratsioni bilan oziqalantirilganda ularning saqlanuvchanlik darajalari 98%-ni va oʻrtacha bir bosh joʻja tirik vaznining oʻsishi 72.0 % ni tashkil etdi. Olingan natijalar 1 jadvalda keltirilgan

Tajribaning navbatdagi qismini bajarish uchun “Loman LSL Klassik” zotiga maʼnsub 40 bosh tuxumdor tovuqlardan olib kelinib ulardan toʻrtta guruh tuzildi va birdaniga yuqorida qayd qilingan vitaminli preparatlarni qoʻllanmasiga asosan oziqasi yoki ichimlik suvi orqali ularga berilganda ikkinchi tajriba guruhidagi tovuqlarning 30 kun davomida tuxumdorlik koʻrsatkichlari 96.5 %-ni tashkil qilib tuxum sarigʻidagi A vitamin 5.6 ml/g ni ham karotin miqdori esa 11.2 mg-ni tashkil qildi. Uchinchi tajriba guruhidagi tovuqlar 0.3ml/l suv bilan 10 kun davomida Biosupervit Neo vitaminli kompleksini olganlarida tovuqlarning tuxumdorlik koʻrsatkichlari 97,3 %, tuxum sarigʻidagi A vitamin miqdori 6 mkg-ni va karotin esa 11.7 mg-larni tashkil qildi.

Toʻrtinchi tajriba guruhidagi tovuqlar qoʻllanmasiga asosan V-chitomin vitaminli kompleksidan 2ml/ 2 l suv bilan 30 kun davomida berilganida tovuqlarning tuxumdorlik koʻrsatkichlari 96.0% ni, tuxum sarigʻidagi A vitamin miqdori 5.3 mkg ni va karotin esa 10.3 mg larni tashkil qildi. Birinchi tajriba guruhidagi tovuqlar xoʻjalik ratsioni asosida oziqalantirilganda ularning tuxumdorlik koʻrsatkichlari 95.7 % -ni, tuxum sarigʻidagi A vitamin 5.0 mkg-ni hamda karotin esa 10 mg-larni tashkil qildi. Olingan natijalar 2 jadvalda keltirilgan.

Xulosa. Laboratoriya tajribalarida qoʻllanilgan C vitamin, Biosupervit Neo, V-chitomin vitaminli kom-

pleks preparatlar yoki joʻjalarning saqlanuvchanlik darajalarini 100% larga yetkazibgina qolmasdan tirik vaznining oshishiga ijobiy taʼsir qilar ekan. Bu vitaminli preparatlar tuxumdor tovuqlarning maxsuldorlik koʻrsatkichlarini hamda uning sifat koʻrsatkichlariga ham ijobiy taʼsir koʻrsatar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Активность пищеварительных ферментов в дуоденальном химусе и плазме крови у исходных линий и гибридов мясных кур при использовании биологически активных добавок в рационе / В. И. Фисинин, И. А. Егоров, В. Г. Вертипрахов [и др.] // Сельскохозяйственная биология 2017. Том 52. № 6.- С. 1226-1233.

2. Астраханцев, А. А. Переваримость питательных и использование минеральных веществ кормосмесей у кур-несушек при скормливании кормовых добавок с различными формами селена / А. А. Астраханцев // Известия Вели колукской государственной сельскохозяйственной академии 2015. - № 1. - С.2

3. Батоев, Ц. Ж. Физиология пищеварения птиц /Ц. Ж. Батоев. Улан-Удэ : Издательство Бурятский государственного университета, 2001. 214 с

4. Бауман, В. К. Кальций и фосфор: обмен и регуляция у птиц / АП Латвийской ССР. Институт биологии. Рига Зинатне, 1968. – 270 с.



ALTERATIONS IN THE NITRIC OXIDE SYSTEM OBSERVED DURING EXPERIMENTAL HYPERCHOLESTEROLEMIA

Abstract In Central Asia, high cholesterol levels and the development of atherosclerosis continue to be significant factors contributing to mortality rates. The research study involved 28 Chinchilla rabbits with an average weight of 2.5-3.0 kg. The study assessed the impact of medications over time: initially for a period of 3 months, followed by observation after one month of drug administration. The findings were compared with those from control and intact groups. The activity of the enzyme nitrate reductase in the blood serum showed a gradual increase: by 1.15 times on the 30th day after the introduction of exogenous cholesterol, followed by 1.3 times on the 60th day, and 1.76 times on the 90th day. Throughout the progression of hypercholesterolemia and atherosclerosis, significant alterations in the NO-ergic system were noted in the dynamics of blood serum.

Key words: hypercholesterolemia, atherosclerosis, nitrate reductase, endothelin, endothelial dysfunction, NO -ergic system.

Introduction. Endothelial dysfunction, which signifies the early stage of atherosclerosis advancement, is characterized by diminished endothelium-dependent vascular relaxation. The primary culprit behind endothelial dysfunction is believed to be a decline in the biological function of nitric oxide (NO), the key mediator released by endothelial cells [1, 2].

Endothelial dysfunction arises from a decrease in the biological activity of nitric oxide (NO), the primary signaling molecule released by endothelial cells. NO plays a crucial role in regulating various physiological processes in the body: it inhibits platelet adhesion and aggregation, restrains the growth and movement of vascular smooth muscle cells, fosters interactions between endothelial cells and circulating leukocytes, and affects the permeability of endothelial cells to lipoproteins and other substances that promote atherosclerosis.

NO is produced from the amino acid L-arginine through the catalysis of three isoforms of nitric oxide synthase: endothelial (eNOS), neuronal (nNOS), and inducible (iNOS). These enzymes enable the incorporation of molecular oxygen into the nitrogen atom of L-arginine's guanidine group [11-20].

eNOS is primarily found within specialized microdomains called alveoli on the plasma membrane of endothelial cells, where it interacts with caveolin. In this localized state, eNOS activity is low. When endothelial

cells are stimulated by various receptor-dependent factors such as acetylcholine, bradykinin, thrombin, and others that elevate calcium levels, eNOS is activated by calcium-calmodulin. This activation leads to the oxidation of L-arginine and the synthesis of small amounts of NO. NO production can also be increased by receptor-independent stimuli, mechanical forces like vessel wall stretching, blood flow-induced shear stress, and other factors [3-9].

Aim. Exploring the molecular mechanisms involved in endothelial dysfunction within the context of changes in the nitric oxide system during experimental hypercholesterolemia.

Materials and methods. A group of 28 Chinchilla rabbits, with an average weight of 2.5-3.0 kg, and following a standard diet, were used in the study. Experimental hypercholesterolemia was induced in the animal model utilizing the Anichkov method. This was accomplished by orally administering cholesterol dissolved in sunflower oil at a ratio of 0.2 g per 1 kg of body weight daily over a period of 3 months.

After 2 months from the start of the experiment, the rabbits were divided into the following groups:

group 1 - intact (3 rabbits), which were injected with vegetable oil daily at a rate of 1.0 ml/kg through the oral cavity;

group 2 model of experimental hypercholesterolemia with water intake - control (5 rabbits);

group 3 model of experimental hypercholesterolemia with gemfibrazil 100 mg/kg (5 rabbits);

group 4 model of experimental hypercholesterolemia with the intake of chitosan derivative No. 1 at 25 µg/kg (5 rabbits);

group 5 model of experimental hypercholesterolemia with the intake of chitosan derivative No. 2 at 50 µg/kg (5 rabbits);

Group 6 model of experimental hypercholesterolemia with heparin at 15 units/kg (5 rabbits).

The study focused on observing the impact of drugs over time, comparing the initial 3-month condition with the results after one month of drug administration. The outcomes were then analyzed in comparison with those of control and intact groups.

To assess endothelial dysfunction, the level of endothelin was measured using enzyme immunoassay with ELISA reagents [14].

The level of nitric oxide (NO) was determined by measuring the sum of nitrite and nitrate metabolites (NO₂ and NO₃). This analysis was conducted following the method outlined by Golikov P.P. et al., as modified by Metelskaya V.A. et al. The samples were treated with 2.5% phosphoric acid (Sigma, USA) and incubated for 10 minutes at room temperature. The absorbance was then measured at a wavelength of 546 nm using an SF-46 spectrophotometer (Russia). Sodium nitrite (NaNO₂) served as the standard for calibration [13].

Where is the calculated coefficient, E is the extinction index of the sample.

Method for determining the activity of nitric oxide synthase (e NOS). To 0.2 ml of the sample was added a reaction system containing 0.1 M Tris- HCl buffer (pH=7.4), which also included CaCl₂ (10 mm), 0.3 ml of an aqueous solution of arginine (substrate e NOS) at a concentration of 80 µM and 0.1 ml of 10 mM aqueous solution of NADPH₂. Incubation was carried out in a water bath at 37°C for 20 min. The reaction was stopped by introducing 0.02 ml of a 0.02% aqueous solution of sodium azide (NaCN) into the cuvette, and the decrease in extinction at 340 nm was recorded on an SF-46 spectrophotometer (Russia). Control samples were prepared similarly, but instead of NADPH₂, 0.1 ml of distilled water was added [12].

Nitrate reductase activity was determined by the method of Vavilova T.P. and Petrovich Y.A. NaHCO₃, 0.1ml 50m006Dol NADPH, 0.1 ml NaNO₃ (1 10⁻¹M). The resulting mixture was incubated at 37°C in a water

bath for 30 minutes. After incubation, the samples were vigorously shaken until complete discoloration and the volume was adjusted to 2.0 ml with distilled water. Then reagents for nitrites were added, including Griess reagent [11].

The level of peroxynitrite (ONOO⁻) was determined by the oxidation of hydroxylamine (NH₂O⁻) formed peroxynitrite. The reaction was started by adding 0.2 ml of a 1.5% aqueous solution of hydroxylamine to 0.2 ml of the sample. 0.1 ml H₂O was added to a blank sample. The reaction was stopped after 10 minutes by adding 1.0 ml of a 4% ammonium molybdate solution. The intensity of the developed color was measured on an SF-46 at a wavelength of 410 nm against a control sample.

The results obtained were compared with those of the control and intact groups. The digital material was processed by the method of variation statistics.

Results and its discussion. The NO-ergic system plays a critical role in the functions of vascular endothelium and in the development of endothelial dysfunction. During the progression of vascular pathologies, there is a disruption in intracellular signaling within the NO synthesis system involving eNOS. In experimental atherosclerosis, a notable decrease in nitric oxide production is observed, which correlates with the advancement of hypercholesterolemia. The quantification of nitric oxide products reveals a significant decline over time.

For example, on the 30th day of the experiment, there is a 1.29-fold reduction in nitric oxide levels compared to intact rabbits. By the 60th day of cholesterol administration, nitric oxide production is further hampered, showing declines of 1.19 and 1.53 times compared to previous values and those of intact rabbits. As the pathological process progresses, nitric oxide content diminishes by 1.64 and 2.11 times respectively when compared to the levels during the 30-day hypercholesterolemia phase and in intact rabbits. Consequently, the production of endothelial nitric oxide decreases as experimental atherosclerosis advances (Table-

The advancement of hypercholesterolemia and atherosclerosis leads to an elevation in the bioconversion product of NOx called peroxynitrite (ONOO⁻), a powerful oxidizing agent that can harm cellular structures. Specifically, in the presence of hypercholesterolemia, the serum levels of ONOO⁻ are significantly higher compared to intact rabbits, influencing the activity of another enzyme in the NO-ergic system responsible for nitric oxide conversion - nitrate reductase. The data

Table 1.

Indicators of the nitroergic blood system in the dynamics of experimental atherosclerosis

Group, terms (month)	Indicators of the nitroergic system			
	NOx, $\mu\text{mol/l}$	eNOS, $\mu\text{mol/min*mg protein}$	OONO, $\mu\text{mol/l}$	NR, $\mu\text{mol/min*mg protein}$
Intact	16,68 \pm 0,28	35,05 \pm 0,76	0,15 \pm 0,01	2,72 \pm 0,19
Experimental hypercholesterolemia				
1	12,94 \pm 0,1	28,29 \pm 0,49	0,2 \pm 0,01a	3,12 \pm 0,11
2	10,91 \pm 0,15	25,8 \pm 0,73	0,29 \pm 0,02	3,54 \pm 0,1
3	7,89 \pm 0,31	18,05 \pm 0,7	0,37 \pm 0,01	4,78 \pm 0,14

illustrates significant changes in the activity of nitrate reductase and the HP enzyme in response to hypercholesterolemia.

While the activity of nitrate reductase in the blood serum shows a modest increase of only 1.15 times on the 30th day following the introduction of exogenous cholesterol, this elevation rises to 1.3 and 1.76 times on the 60th and 90th days, respectively. Consequently, hypercholesterolemia and atherosclerosis trigger the activation of enzymes involved in nitric oxide transformation. The observed changes in nitrate reductase enzyme activity align with the levels of ONOO- found in the blood serum. Furthermore, higher nitrate reductase activity corresponds to an increased level of peroxynitrite.

The data underscores significant disruptions in the NO-ergic blood system in the presence of hypercholesterolemia and atherosclerosis. Given that NO in blood serum is crucial for the functional activity of vascular endothelium, the link to the development of hypertension in these conditions becomes evident. The reduction in NOx levels in the blood serum of experimental animals due to eNOS enzyme inhibition supports this observation. Additionally, the heightened levels of peroxynitrite indicate the detrimental impact of the NO-ergic system, emphasizing the pathological role of these disturbances in initiating and advancing atherosclerosis.

Our evaluation of the ratios of components within the NO-ergic system of blood serum in experimental animals supports the conclusion. The ratio of NOx to ONOO- in blood serum is approximately 111.2:1, indicating that the normal level of NOx is 111 times higher than that of peroxynitrite. This equilibrium is disturbed in animals with hypercholesterolemia, primarily due to a significant increase in peroxynitrite concentration, a product of nitric oxide bioconversion.

The NOx:ONOO- ratio is lower in hypercholester-

olemic animals compared to intact rabbits by factors of 1.72, 2.96, and 5.22. A similar pattern is observed in the ratio of NOS to nitrate reductase enzymes. This imbalance in the NOS:nitrate reductase ratio is attributed to the predominant increase in nitrate reductase enzyme activity, which influences nitric oxide transformations.

To support the claim that the disruptions observed in the NO-ergic system of blood serum in experimental hypercholesterolemia are primarily pathological rather than compensatory, we further analyzed the ratios of NOS:NOx and nitrate reductase:ONOO- based on the “substrate ratio enzyme” principle. The NOS:NOx ratio under hypercholesterolemia showed no significant differences compared to the intact group, while the nitrate reductase:ONOO- ratio was notably altered.

Therefore, the changes in the NOx:ONOO- and NOS:nitrate reductase ratios during the progression of experimental hypercholesterolemia and atherosclerosis are primarily driven by variations in the nitrate reductase:ONOO- ratio, rather than the NOS:NOx ratio. The presence of ONOO- as a signaling molecule that executes cell-destructive processes highlights the pathological nature of these alterations.

As hypercholesterolemia and hyperbetalipoproteinemia progress, the synthesis of nitric oxide and the activity of its synthase in endothelial cells are hindered, resulting in an accumulation of its reactive radicals. This accumulation is further supported by an increase in nitrate reductase activity.

Conclusions. Experimental hypercholesterolemia manifests as endothelial dysfunction characterized by interconnected alterations in CRP, endothelin-1, and homocysteine levels. The severity of these changes is influenced by the experiment duration and the concentration of cholesterol in low-density lipoprotein, culminating in atherosclerosis, disruption of vascular en-

endothelium integrity, and dysfunction. The progression of hypercholesterolemia and atherosclerosis is distinguished by notable disruptions in the NO-ergic system in the blood serum.

These disturbances entail a deficiency in NOx due to decreased NOS activity, alongside an accumulation of peroxynitrite, a product of nitric oxide bioconversion resulting from heightened nitrate reductase activity and potential failure of the antioxidant defense system. The reduction in nitric oxide levels in blood serum correlates with the dysfunction of mechanisms responsible for regulating the functional activity of both the vascular endothelium and blood cells. These disruptions trigger feedback mechanisms within endothelial function, exerting a negative influence on the progression and outcome of the pathology under study.

Therefore, recognizing these disturbances is crucial in devising treatment strategies and approaches for managing hypercholesterolemia and atherosclerosis.

References

1. Suchkova E. I. Comorbidity in hypertension in outpatient practice: analysis, remote monitoring of blood pressure, correction of metabolic disorders and endothelial dysfunction: dis. – Ryazan State Medical University. acad. IP Pavlova, 2019.
2. Chusova N. A. The role of endothelial dysfunction in obesity // International Student Scientific Bulletin. – 2019. – no. 5-2. – S. 67-67.
3. Fedin A. I., Saverskaya E. N., Badalyan K. R. Multimodal therapeutic strategies in the treatment of cerebrovascular disease // Journal of Neurology and Psychiatry. SS Korsakov. - 2021. - T. 121. - No. 12. - S. 112-118.
4. Serebrennikova S. N., Guzovskaya E. V., Seminsky I. Zh. Nanomolecular mechanisms of metabolic syndrome formation // Transbaikal Medical Bulletin. – 2019. – no. 2. - S. 169-187.
5. Kenjayeich BA et al. Changes of basic intermediates in blood in myocardial infarction // Journal of Positive School Psychology. - 2022. - S. 1775-1781.
6. Azim B. et al. The state of free-radical oxidation of lipids in experimental myocardial infarction in rats // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. - 2021. - T. 8. - No. 3. - S. 816-820.
7. Ivanov A. N. et al. Vasomotor function of the endothelium // Successes of physiological sciences. - 2020. - T. 51. - No. 4. - S. 82-104.
8. Kuznetsova L. A. Metabolic syndrome: the effect of adipokines on the L-arginine-NO-synthase-NO signaling pathway // Acta biomecnica scientifica. - 2021. - T. 6. - No. 2. - S. 22-40.
9. Chertok VM, Khramova IA, Kotsyuba AY Gasotransmitters in the regulation of the functions of the intraorganic blood vessels of the uterus //Morphology. - 2020. - T. 157. - No. 1. - S. 98-111.
10. Vnukov VV et al. The role of myeloperoxidase, para-oxonase and the nitric oxide system in the blood and pericardial fluid in coronary artery disease after direct myocardial revascularization //Advances in Gerontology. - 2019. - T. 32. - No. 1-2. - S. 93-101.
11. Kenjayeich B. A., Vaxriddinova U. G. Experimental giperxolesterolemiyada nitregik tizim dinamikasi // Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1452-1458.
12. Байкулов А. К., Убайдуллаева Г. Б., Хайитова Б. А. Эндотелиальная дисфункция сосудов с экспериментальной гиперлипидемией //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 620-626.
13. Убайдуллаева Г. Б. и др. Экспериментал миокард инфарктини ЛДГ билан коррекциялаш //Tadqiqotlar. uz. – 2024. – Т. 35. – №. 1. – С. 167-171.
14. Байкулов А. К., Убайдуллаева Г. Б., Эшбуриева Б. Р. Коррекция экспериментальной гиперлипидемии с производными хитозана //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 937-947.
15. Акрамова А. А., Хайитова Б. А., Убайдуллаева Г. Б. Динамика показателей продуктов пол в крови у крыс с экспериментальным термическим ожогом //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 17. – №. 3. – С. 25-32.
16. Яхшибоева Л., Убайдуллаева Г. Б. Эмбриотоксическая активность препаратов производных хитозана //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 17. – №. 3. – С. 18-24.
17. Убайдуллаева Г. Б., Хайитова Б. А. Динамика эндотелиальной дисфункции при экспериментальной гиперлипидемии //Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 95-103.
18. Байкулов А. К. и др. Исследования эффективности производных хитозана на процессы репаративной регенерации ожоговых ран в эксперименте //World science. – 2016. – Т. 3. – №. 5 (9). – С. 53-58.
19. Байкулов А. К., Муртазаева Н. К., Тошбоев Ф. Н. Динамика влияния лактатдегидрогеназы при экспериментальном инфаркте миокарда //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 244-251.
20. Милушева Р. Ю. и др. Синтез противоожоговых препаратов на основе хитозана *bombux mori* //Известия Уфимского научного центра РАН. – 2018. – №. 3-2. – С. 18-21.
21. Кадырова Д. А. и др. Изучение связывания хитозана со специфическими участками ДНК при термическом ожоге //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2012. – Т. 10. – №. 5. – С. 31-35.
22. Bayqulov A. K., Halimova S. A., Eshburieva N. R. Dynamics of the influence of lactate dehydrogenase during experimental myocardial infarction //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 232-238.

QUYONLARDA GIPOVITAMINOZLARNING ETIOLOGIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada quyonlarda gipovitaminozlarning etiopatogenezi klinik belgilari, gematologik ko'rsatkichlari o'zgarishlar bayon etilgan. Ona quyonlarda bo'g'ozlik davrida to'yimligi past, sifatsiz oziqlantirish, ona quyonlar organizmining vitaminlar va makro-mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirilmaligi hisoblanadi. Quyonlar gipovitaminozlarida tashqi ta'sirotlarga javob reaksiyasining pasayishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqlikning pasayishi, shilliq pardalarning kuchli darajada oqarishi, tana vaznining kamayishi, ishtahaning o'zgarishi kabi simptomlar bilan kechadi.

Abstract: this article describes the clinical signs of the etiopathogenesis of hypovitaminoses in rabbits, changes in hematological indicators. Malnutrition in mother rabbits during chocking is low, poor-quality nutrition, incomplete satisfaction of the needs of the mother rabbit organism for vitamins and macro-microelements. In rabbit hypovitaminoses, the response to external influences is accompanied by such symptoms as a decrease in reaction, hoarseness of the skin coating, a decrease in glare, a strong whitening of the mucous membranes, a decrease in body weight, a change in appetite.

Kalit so'zlar: quyon, vitamin, anemiya, gemoglobin, glyukoza, umumiy oqsil, gipogemoglobinemiya, gipoglikemiya, distrofiya, gipotrofik.

Keywords: rabbit, vitamin, anemia, hemoglobin, glucose, total protein, hypogemoglobinemia, hypoglycemia, dystrophy, hypotrophic.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda chorvachilikni, xususan, quyonchilikni rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 mart 2021 yildagi «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ 5017-sonli qarorini ta'kidlash mumkin. Bu qarorda quyonlar uchun to'la qiymatli, yuqori oqsilli ozuqalar ishlab chiqarish uchun yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish yo'li bilan quyonchilik tarmog'ining ozuqa bazasini mustahkamlash; quyonchilik mahsulotlarini etishtirish va uni qayta ishlash sohasida ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni tashkil qilish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda quyonchilik katta e'tibor qaratilayotgan sohalaridan biri hisoblanadi, shuning uchun ona quyonlarni to'yimligi yuqori va sifatli oziqlantirish ulardan sog'lom nasl olishda muhim ahamiyatga ega. Quyonlarning bo'g'ozlik davrida to'yimligi past, sifatsiz ozuqalar bilan oziqlantirish, ona quyonlar organizmining vitaminlar, makro va mikroelementlarga

bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirilmaligi ularda modda almashinuvlarining buzilishlariga hamda ulardan olinayotgan quyon bolalarining o'sish va rivojlanishidan orqada qolishi, shu jumladan ona quyonlarning qayta otalanishining kechikishiga sabab bo'ladi. Quyonlarda uchraydigan vitaminlar almashinuvi buzilishlarini barvaqt diagnostika qilish, oldini olish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Gipovitaminozlarning moddalar almashinuvida fermentlar tarkibiga kiruvchi vitaminlar katta ahamiyatga ega. Vitaminlar barcha fiziologik guruhlardagi hayvonlar uchun, ayniqsa o'sayotgan yosh hayvonlar, laktasiya davrida va bo'g'ozlik davridagi quyonlar uchun zarurdir. Erkak quyonlarga ko'proq A, D, E va B₁₂ vitaminlari zarur bo'ladi. Gipovitaminoz yoki gipervitaminozda har bir guruh vitamini hayvonlarning organizmiga o'ziga xos salbiy ta'sir ko'rsatadi va organizmda jiddiy patologik jarayonlarga sabab bo'ladi. [11; -127-132.b.].

Quyonlarda vitaminlarning ahamiyati. A (retinol) gipovitaminozni naslning hayotchanligini va urg'ochilarning nasldorligini pasayishiga olib keladi, shuningdek nafas olish va urogenetal yo'llar shilliq pardalari epiteliysining shoxlanishiga ta'sir qiladi. Bir

bosh quyoning A vitaminiga bo'lgan ehtiyoji kuniga o'rtacha 2mg ni tashkil qiladi. Aralash tipda oziqlantirilgan quyonlarda A vitamin yetishmasligi, ayniqsa B guruhidagi vitaminlar yetishmasligi deyarli bo'lmaydi [12; 368-b.].

D guruhi yog'da eriydigan vitamin (kalsiferol) beqaror, chunki u qizdirilganda parchalanadi. D gipovitaminozida paytida yosh hayvonlarda raxit paydo bo'ladi, bu kalsiy va fosfor o'rtasidagi metabolizmning buzilishi bilan bog'liq. Voyaga yetgan quyonlar osteomalyasiyadan aziyat chekishadi. Yog'da eriydigan vitaminlar guruhiga E guruhi (tokoferol) vitaminlari kiradi. Bu issiqlikka chidamli vitamin, ammo yog' kuydirilganda parchalanadi. Ushbu vitaminning yetishmovchiligida urg'ochilarida ko'payish funksiyalari buziladi, bu esa embrionlarning so'rilishiga olib keladi va erkak quyonlarda sperma shakllanishi kechikadi. O'sish va rivojlanishning dastlabki bosqichida quyonchalarda ushbu vitaminning yetishmovchiligi mushaklar distrofiyasini keltirib chiqaradi, bu esa falaj bilan tugashi mumkin. E vitamini A vitaminining so'rilishiga yordam beradi [9; 23-b., 10; 296 b.].

C vitamini (askorbin kislotasi) quyonlarning tanasida sintez qilinishi mumkin. Ushbu vitamin himoya funksiyasini bajaradi va organizmda sodir bo'ladigan oksidlanish jarayonlarida ishtirok etadi. K vitaminiga kelsak, uni tanada sintez qilinmaydi, shuning uchun unga bo'lgan ehtiyojini faqat ratsiondagi ozuqa bilan qondirish mumkin. K vitamini yetishmovchiligida bo'g'oz quyonlarda abort kuzatilishi mumkin. B guruhi vitaminlari quyonlarning tanasida sintezlanadi. Ularning zarurati asab tizimining ishlashida, shuningdek oqsil va uglevod almashinuvini tartibga solish jarayonlarida ishtirok etish bilan bog'liq. Ular tanadan siydik va tezak bilan chiqariladi. Tananing ushbu vitamining bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun quyonlar yumshoq tezagini iste'mol qiladilar [9; 23-b.].

Quyonlarni oziqlantirishda ratsion tuzishga e'tibor beriladigan jihatlar. Avvalombor xo'jalikda bor ozuqa e'tiborga olinadi. Ratsionning ozuqaviy qiymati, hayvonning fizologik va klinik holati va uning tirik vaznini hisobga olish kerak. Ratsion turli xil fiziologik guruhlardagi hayvonlarini boqish talablari va me'yorlari asosida tuziladi. Oziqaning energiyaga, quruq moddalarga, ozuqa moddalarga, vitaminlarga boy bo'lgan va hayvon ehtiyojini to'liq qondiradigan ratsionga to'yimli oziqa ratsioni deyiladi. Quyonlarni

to'yimli oziqlantirish ularning kliniko-fiziologik holatini me'yorda saqlashga va sifatli mahsulot olishga imkon beradi [8; 642- b.].

2 бош	24	8	23	12
3 орқа	16	9	16	8
4 дум	17	10	22	13
5 бўёқсиз	20	12	18	10
6 бош	19	9	14	9
7 орқа	21	11	23	10
8 дум	26	11	28	11
9 бош	21	10	20	13
10 орқа	20	10	20	10
Жами	205	98	204	107

физиологик эритмаси бор идишга солиб аралаштирилди. Ҳосил бўлган аралашмадан яна 1,0 мл олинди ва 4,0 мл физиологик эритма солинган идишга қуйилди. Ҳосил бўлган эритма яна 1:10 нисбатда суюлтирилди. Идишларда ҳар 1 мл эритмада 1000 МЕ ва 100 МЕ титрли туберкулин ҳосил бўлди. Назоратдаги 3 ва 4-чи эритмалар концентрацияси ҳам шу усулда тайёрланди.

Тажриба ва назорат туберкулинлари денгиз чўчқалари корин деворининг икки ён томонидан 4-нуктага тери орасига юборилди. Инъекция жойи жунидан қўл ёрдамида юлиб олиниб (лезвия ёрдамида ҳам тозалаш мумкин) тозаланди, 70⁰-спиртда дезинфекцияланди. Инъекция қилинган денгиз чўчқалари гавдасининг 4 хил нуктаси (бўёқсиз, бош қисми, орқа томони ва дум қисми).фуксин бўёғида белгиланди. Тажриба ва назорат туберкулинлари юборилгандан сўнг 24 соат ўтгач, реакция натижаси ўлчанди. Бунинг учун инъекция жойида ҳосил бўлган папула контурлари ўлчами целофан орқали қоғозга фломастер билан ёзиб кўчириб олинди ва диаметрлари линейка ёрдамида ўлчанди (жадвал).

Аллергенлар юборилган жойда ҳосил бўлган папулалар диаметри формула ёрдамида ҳисобланди ва тажрибадаги туберкулин препаратининг махсус фа-

оллик кўрсаткичи аниқланди.

$$D_1 = 205 + 98 = 303;$$

$$D_2 = 204 + 107 = 311;$$

$$A = (303 \div 311) \times 50000 = 48713 \approx 49000$$

Текшириш натижасига кўра, ишлаб чиқарилган ППД туберкулин 49000 ТБ махсус фаоллик кўрсаткичига эга бўлди. Бу кўрсаткич Ts 29064660-01:2024 ташкилот стандарти талабларига жавоб беради.

Хулосалар

1. БЦЖ вакцинаси эмланган денгиз чўчқалари ППД туберкулин диагностикамига фаол аллергик жавоб реакцияси кўрсатди

2. M.bovis-149 маҳаллий штаммидан тайёрланган ППД туберкулин диагностикамининг махсуслиги ва туберкулиногенлиги аниқланди

3. Маҳаллий штаммдан ППД туберкулин тайёрлашнинг технологик регламенти Ташкилот стандарти (Ts)техник шартлар талабига жавоб бериши аниқланди

4. Маҳаллий штаммдан ишлаб чиқарилган ППД туберкулин диагностиками денгиз чўчқалари организмда 49000 ТБ махсус фаоллик даражасини кўрсатди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. ГОСТ 32306-2013 Туберкулины очищенные (ППД) для животных. Технические условия ГОСТ 32306-2013 МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫЙ СТАНДАРТ ТУБЕРКУЛИНЫ ОЧИЩЕННЫЕ (ППД) ДЛЯ ЖИВОТНЫХ Технические условия Purified tuberculins (PPD) for animals. Specifications

2. Ерошенко. Л.А.. Использование стандартных сред для выращивания микобактерий // Матер. Всерос. науч. конф. по проблемам хронических инфекций. Омск, 2001. - С. 161— 163.

3. Зубехина Л.И., Зубехин А.В., Информативность аллергических реакций на введение туберкулина и симультанной пробы реагирующим животным // Роль вет.науки в разв. жив-ва / Матер. Межд. Науч. Произ. Конф. КазНИВИ. Алматы 2000. С. 108-109.

4. Кассич Ю.Я., Завгородный А. И. Определение активности туберкулина (ППД) для млекопитающих // Ветеринарна Медицина № 84 Міжвідомчий теметичний науковий збірник / Харків 2004 С. 330-332.

5. Козлов В. Е., Мясоедов Ю.М., Безгин И.М., Оценка эффективности различных доз и методов введения туберкулина // Ветеринария №11,2004. с. 5-8.

6. Назаров С. О комплексном исследовании ППД-туберкулина крупного рогатого скота // Науч. – произв. журнал «Кишоварз» ТАУ Душанбе №3 2002 С. 13-15.

7. Туткышбай И.А. Совершенствование аллергической диагностики и искоренения туберкулеза крупного рогатого скота //Мат. науч. конф. «Перспективы развития животноводства в аридной зоне Казахстана». –Алматы: Бастау, 2005. – С. 186-190.



GIPOKOBALTOZ BILAN KASALLANGAN QORAMOLLAR QONINING MORFOBIOKIMYOVIY KO'RSATKICHLARI

Annotasiya: Mahsuldor sigirlarda kobalt yetishmovchiligi kasalligining o'rganilganlig darajasi, tarqalishi, kasallikni rivojlanishi, kobalt mikroelementining fiziologik jarayonlardagi ishtiroki, qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari hamda davolash bo'yicha ilmiy ma'lumotlari bayon etilgan.

Аннотация: Уровень исследования кобальтодефицитной болезни у продуктивных коров, распространенность, развитие заболевания, участие микроэлемента кобальта в физиологических процессах, морфобioхимические показатели крови представлена научная информация о лечении.

Summary: The level of research into cobalt deficiency disease in productive cows, the prevalence, development of the disease, the participation of the microelement cobalt in physiological processes, morphobiochemical blood parameters, scientific information on treatment is presented.

Kalit so'zlar: Eritrosit, leykosit, leykogramma, eritrositar indeksi, gipokobaltoz.

Ключевые слова: эритроциты, лейкоциты, лейкограмма, эритроцитарные индексы, гипокобальтоз.

Key words: erythrocytes, leukocytes, leukogram, erythrocyte indices, hypocobaltosis.

Mavzuning dolzarbligi. Kobalt muhim mikroelementlardan biri bo'lib, u mikroelementlar guruhiga kiradi. Kobalt mikroelementi organizimni fiziologik holatda ishlashi uchun zarur bo'lgan biologik faol modda hisoblanib, gematopoezda, nuklien kislotalar almashinuvda, muskul oqsillari sintezida, nafas olish jarayonida ishtirok etadi va ushbu jarayonlarni stimullaydi. Kobalt mikroelementi oqsil, uglevod va mineral almashinuvini tartibga soluvchi fermentativ tizimlarning bir qismi bo'lib, temirning ionlashishini tezlashtirib, qizil qon xujayralarini va asab tizimini stimullaydi [3,4,5].

Bundan tashqari hayvonlar organizimidagi kobalt ionlari ko'plab fermentlarni (arginaza, katalaza, aldolaza, dekarboksilaza va boshqalar) faollashtiruvchisi bo'lib, sitoxrom oksidazlarni, suksinat dehidrogenazlarni, oksidoreduktazlarni va ureazalarni bloklaydi [4,5].

Odamlar va hayvonlarda kobalt faqat B₁₂ (siyonokobalamin) tarkibida biologik faollikni namoyon qilib, korrinoidlar deb ataladigan birikmalar oilasiga kiradi.

Gipokobaltoz bilan kasallangan hayvonlarning oshqozon oldi bo'limlarida oziqa moddalarining gidrolizi o'zgarib, mikrobiotsenoz va proteolitik fermentlarning faolligi buziladi. Bu jarayonlar organizimdagi barcha moddalarning muvozanatiga, gematopoez va immunogenezning sezilarli darajada buzilishiga olib keladi. Shu sabab ushbu muhim mikroelementning yetishmasligi

hayvonlarda gipokobaltoz kasalligining rivojlanishiga olib keladi. Bu mikroelement Rossiya Federatsiyasida, MDH mamlakatlarida, Avstraliya, AQSH, Yangi Zelandiya, Shotlandiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda ro'yxatga olingan endemik patologiya hisoblanadi [3].

Shu sababli veterinariya amaliyotida gipokobaltozni davolashdan tashqari anemiyani, oshqozon oldi bo'limlari mikroflorasini, kalsiy va fosfor buzilishlarini davolash va oldini olishda kobalt xlorid tabletkalari keng qo'llaniladi. Bu preparat tarkibida 0,04 g kobalt xlorid, 0,92-0,95 g NaCl va 1 grammgacha shakl beruvchi modda - talk mavjud [6. www.webvet.ru / preparats / kobalt-hloristy. Кобальт хлористый. Инструкция, описание, дозировка].

Tadqiqotning maqsadi: Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklari sharoitida gipokobaltozning etiologiyasi, sabablari, hayvonlarni saqlash va alimantar omillarning ahamiyati, kasallikning diagnostikasi, davolash va oldini olish chora tadbirlari, hamda qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari kasallikning kechish xususiyatlari va ertachi aniqlash usullarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumaniga qarashli qoramolchilik fermer xo'jaligidagi 4-5 tug'gan mahsuldor sigirlardan olingan qon, asosiy oziqa namunalari, Yuberin preparati va kobalt xlorid tabletkalaridan foydalanilgan.



Tadqiqotning usullari. Gematologik tekshirishlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetiga qarashli o'quv laboratoriyasida va Respublika shoshilinch tibbiyot markazining Samarqand filialiga qarashli laboratoriyalarda o'tkazildi. Bunda eritrositlar soni (Goryayev sanoq turida), gemoglobin (Sale-gemometri yordamida), gemotokrit (Gematologik analizatorlar yordamida) qon tarkibidagi mikroelementlar miqdori (Atomli-absorbsion spektrofotometriya usulida). Gipokobaltozga xos klinik belgilar kuzatilgan sog'in sigirlardan har birida 8 boshdan hayvonlar bo'lgan ikkita guruh tashkil etilib, tajribalarni boshlashdan oldin ularda klinik va morfobiokimyoviy tekshirishlar o'tkazildi. Tajribadagi hayvonlarning ratsioni optimallashtirilib, 5 kun davomida Yuberin preparati bilan davolanib, nazorat guruhidagi sigirlar faqat xo'jalik ratsionida oziqlantirildi tajriba va nazorat guruhlaridagi sigirlardan tajribaning 15-30 kunlarida yana qon namunasi olinib tekshirildi.

Tadqiqot natijalari. Hayvonlarni Yuberin preparati bilan davolaganda, davolashning 15 kunida qonning morfologik ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, tajribalarning oxirgi 30 kunida hayvonlar qonidagi eritrositlar soni $6,2 \pm 0,4$ ga ko'tarildi. Ushbu tajribalar davomida gemoglobin va gemotokrit konsentratsiyasining sinxron o'sishi, gemotopoezning me'yorlashishi, eritrosit indekslarini me'yor ko'rsatkichlariga to'g'ri kelishi va eritrositlarni tarqalish kengligi ko'rsatkichi 24 dan 25,6 % ga o'zgarib, anizotsitozni ko'rsatdi.

Tajribalarning oxiriga kelib, tajriba guruhidagi sigirlarda dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan qondagi kobaltni o'rtacha 93,5 % ga, eritrositlar sonini - 15,6 % ga va gemoglobinni - 13,3 % ga ko'payganligi, gematokritni 12,8 % ga o'zgartirish aniqlandi.

Xulosa. Qishloq xo'jalik hayvonlari (qoramollar) ga diagnoz qo'yishda gipokobaltozga oid xarakterli klinik belgilar, qondagi kobaltning miqdori, morfologik ma'lumotlar va eritrosit ko'rsatkichlari hisobga olgan holda kompleks yondashuvga rioya qilish tavsiya etiladi. Gipokobaltozni davolashda Yuberin preparatini qo'llash ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Коваленок, Ю.К. Микроэлемент-тозы крупного рогатого скота на откорме в условиях республики Беларусь: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора ветеринарных наук. – СПб., 2012. – 38 с.
2. Коваленок, Ю.К. Рекомендации по применению комплексов микро-элементов при гипокобальтозе и гипокуп-розе телят на откорме / Ю.К. Коваленок, А.А. Голубь, П.Г. Роскач. – Витебск: Изд. УО ВГАВМ, 2007. – 15 с.
3. Ковальский, В.В. Микроэлементы в растениях и кормах / В.В. Ковальский. – М.: Колос, 1971. – 235 с.
4. Микроэлементозы человека / А.П. Авцын, А.А. Жаворонков, М.А. Риш, Л.С. Строчкова. – М.: Изд. «Медицина», 1991. – 486 с.
5. Ноздрюхина, Л.Р. Биологическая роль микроэлементов в организме животных и человека / Л.Р. Ноздрюхина. – М.: Наука, 1977. – 184 с.
6. [www.webvet.ru/preparats/kobalt-hloristy. Кобальт хлористый. Инструкция, описание, дозировка].
7. Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.
8. Бакиров, Б., Бобоев, О. Р., & Хайитов, Б. Н. (2021). Ўзбекистон шароитидаги махсулдор қорамолларда метаболизм бузилишларининг алиментар-микробиал табиати ва гепатоген ҳамда эндокрен хусусиятлари. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).
9. Бакиров, Б., Хайитов, Б. Н., & Улуғмуродов, Ю. (2021). Микробиологические и метаболические аспекты ацидоза рубца у высокопродуктивных коров. *Вестник Ошского государственного университета*, (1-2), 210-214.
10. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocobaltosis in productive cows. *Academica: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.

QUYONLAR QONINING AYRIM BIOKIMYOVIY KO'RSATGICHLARIGA VITAMINLI PREPARATLARNING TA'SIRI

Annotatsiya: Maqolada Vinoral Spektra vit A D₃E-122, Introvit kabi vitaminli preparatlarning quyvonlar qonidagi umumiy oqsil, albumin va Na⁺, K⁺, Ca⁺ ionlariga ta'sir doiralari berilgan.

Summary: The article presents the effects of vitamin preparations such as Vinoral Spectra vit A D₃E-122, Introvit on total protein, albumin and Na⁺, K⁺, Ca⁺ ions in the blood of rabbits.

Kalit so'zlar: Quyvon, qon, zardob, guruh, vitamin, oqsil, albumin, ion.

Key words: Rabbit, blood, serum, group, vitamin, protein, albumin, ion.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda quyvonchilik chorvachilikning eng serdromad sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, ulardan parhez go'sht, teri va boshqa mahsulotlar olinadi.

Quyvonlar tez ko'payadigan va tez yetiladigan hayvonlar qatoriga kiradi. Uning go'shti tarkibida oqsillar miqdori ko'p bo'lib yosh organizm uchun foydali hisoblanadi. Chunki, oqsillar tarkibi aminokislotalardan tashkil topgan. Oqsillar organizmda muhim vazifalarni bajaradi ya'ni himoya vazifasini o'taydi. Vaqti-vaqti bilan uning miqdorini va fraksiyalarini aniqlab turish orqali organizmni himoya darajalariga baho beriladi. Bularidan tashqari, qondagi mineral moddalar yosh organizmning o'sish-rivojlanishida hamda katta yoshdagi hayvonlar mahsuldorligini oshiradi. Qondagi elektrolitlarning bajaradigan vazifalari turlicha bo'lib ularning faolligiga vitaminli preparatlarning ta'siri to'g'risida ma'lumotlar ilmiy manbalarda ham keltirilganligini inobatga olib, quyvonlar qon zardobidagi ayrim vitaminli preparatlarning qon zardobidagi Na⁺, K⁺ va Ca⁺ ionlariga ta'sir doiralarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydek.

Materiallarni tekshirish usullari va metodlari.

Laboratoriya tajribalarini o'tkazish uchun quyvonchilik xo'jaligidan "Shinshilla" zotiga mansub 1.5 oylik quyvon bolalaridan 24 bosh olib kelinib katakchalarga 6 boshdan qilinib 4 ta guruh tuzildi. Jumladan: birinchisi qiyosiy nazorat guruhi bo'lib ular preparatsiz oziqa bilan tajriba oxirigacha boqildi.

Ikkinchi tajriba guruhidagi quyvonlarga Vinoral 0.5 ml/2l ichimlik suviga qo'shib 10 kun davomida qo'llanmasiga asosan berildi. Uchinchi tajriba guruhidagi quyvonlarga esa, Spektra vit AD₃E-122 vitaminli kompleksidan 0.5ml/l suv orqali 7 kun berildi va nihoyat to'rtinchi tajriba guruhidagi quyvonlarga esa, Introvit

vitaminli aralashmasidan 2,5g/kg oziqa bilan 30 kun davomida oziqasiga qo'shib berildi.

Olib borilgan 30 kunlik tajribadan keyin barcha guruhdagi quyvonlar so'yilib qoni olindi va muzlatgichda saqlanilib qon zardobi ajratib olindi. Keyin uning tarkibidagi umumiy oqsil va albumin miqdori biokimyoviy analizator TS 180 asbobida aniqlandi. Qon zardobi tarkibidagi elektrolitlar miqdori alangali fotometrik usulda "Keys-3" asbobida va birdaniga natriy hamda kaliy ionlari Н.А Емельянова (1964), kalsiy ioni esa Г.П. Гусева (1968) usullarida aniqlandi. Laboratoriya tajribalaridan olingan raqamlarga С.И.Лютинский va В.С.Степень (1990) usullarida ishlov berildi. Raqamlar orasidagi farqga Student jadvaliga qarab aniqlik kiritildi.

Olingan natijalar. Quyvonlar qonining ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga turli xildagi vitaminli komplekslarning quyvonlar qonining ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'sir doiralari o'rganilganda olingan natijalar quyidagicha bo'lib, ikkinchi tajriba guruhidagi quyvonlar vinoral vitaminli preparatni 0.5ml/2l suv bilan 10 kun, uchinchi tajriba guruhidagilar Spektra vit AD₃E-122 ni 0.5ml/l suv bilan 10 kun va Introvit vitaminli kompleksni 2.5g/kg oziqa orqali 30 kun (4-guruh) olganlarida tajriba oxirida qon zardobidagi umumiy oqsil miqdorlari 13,5,5% larga, albumin miqdorlari 2,5,4,2,3,6% ga, qon zardobidagi Na⁺ ionlari 2,0,3,2,2,4%-larga, K⁺ ionlari 13,0,18,2,8,0% ga, Ca⁺ ionlari esa 9,0,16,4 va 14,3%-lar qiyosiy nazorat guruhidagi quyvonlarning qon ko'rsatkichlariga nisbatan ko'paygan.

Olingan natijalar 1-jadvalda

Xulosa. Laboratoriya tajribalarida qo'llanilgan vitaminli preparatlar quyvonlar qonining zardobi tarkibidagi umumiy oqsil miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatmagan.

Quyonglar qon zardobidagi ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga vitaminli preparatlarning ta'siri

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi	Umumiy oqsil (g/l)	Albumin	Qon zardobidagi Na ⁺ , K ⁺ , Ca ⁺⁺ ionlari miqdori		
						Na ⁺	K ⁺	Ca ⁺⁺
1	Qiyosiy nazorat	-	-	61.15±1.20	60.55±1.77	334±3.5	22.5±1.0	9.62±0.15
2	Tajriba	Vinoral	0.5ml/2l suv bilan 10 kun	63.05±1.12	62.12±2.35	340±4.2	25.4±1.2	10.49±0.17
3	Tajriba	Spektra vit A D ₃ E-122	0.5ml/1 suv bilan 7-kun	64.17±1.25	63.10±1.97	345±3.2	26.6±1.7	11.20±0.19
4	Tajriba	Introvit	2.5gr/kg yemga 30 kun	64.21±1.19	62.75±1.21	342±4.5	24.3±1.8	11.00±0.55

P>0.05 Albumin miqdoriga ham Na⁺, K⁺ va Ca⁺ ionlarining faolligini oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

Влияние транквилизаторов на морфологические показатели крови цыплят. Д Тошмуродов, Д Эшимов, Д Ибрагимов... - 2021

1. Барышников, А.А. Распространение эймериоза кроликов в хозяйствах северного Зауралья, профилактика и меры борьбы/А.А. Барышников // Сибирский вестник сельскохозяйственной науки, 2006. -№ 5. 82-83

2. Белова, Л.М. Кокцидиозы кур / Л.М. Белова, М.Б. Крилов // Актуальные вопросы ветеринарной биологии, 2013. -№ 3(19). -С. 43-48.

3. Дергунов А.А. Биотехнологические аспекты получения и эффективность применения новых тканевых препаратов // Труды Кубанского государственного аграрного университета. Краснодар, 2007. №8. С. 162-170.

4. Клиническая лабораторная диагностика в ветеринарии И.П. Кондрахин и др. Москва Во "Агропромиздат" 1985. 65-с.

5. Кузнецов, В.В. Влияние некоторых эймериостатических препаратов и схем профилактики эймериоза на клинический статус и энтеробиоценоз цыплят-бройлеров: Дисс. ... кандидата вет наук: 03.00.19/ В.В. Кузнецов - Тюмень, 2006. - 122 с.

6. Лукьянов, М.Д. Патологическая анатомия и патогенез кокцидиоза цыплят / М.Д. Лукьянов // Ученые записки Казанского зооветинститута, 1937. -Т. 47.-С. 29-32.

7. Майоров, А.И. Эффективность байкокса при эймериозе кроликов / А.И. Майоров, Т.К. Карелина, Т.С. Скрыбина // Кролиководство и звероводство, 2012. - № 4. - С.

8. Родин В.В., Дергунов А.А. Биохимические показатели крови кроликов при введении им тканевых

препаратов // Ветеринарная служба Ставрополья. Ставрополь, 2005. №6. С. 33-34

9. Способ окраски мазков крови. / В.И. Трухачев, В.В. Родин, В.В. Михайленко, А.А. Дергунов // Патент RU на изобретение № 2304776. Приоритет от 22.02.2005. Оpubл. 20.08.2007. Бюлл. № 23.

10. Сравнительная активность кокцидиостатиков при эймериозе птиц Р.Б.Давлатов, Д.Ибрагимов - Вестник ветеринарии, 2012.

11. Журавлева, А.З. Кинетика мадурамицина в организме цыплят при применении препаратов мадувет и цигро / Журавлева А.З., Русаков С.В. // Российский паразитологический журнал, 2011. - №4. -С. 114-117.

12. Болотников И.А. Гематология птиц / И.А. Болотников. - Ленинград. Наука. Ленинградское 1980.- 116 с

13. Влияние, кормовой добавки СИНКРА™ на биохимические и морфологические показатели крови цыплят-бройлеров /В Г. Вертлепрахов и др.// Птица и птицепродукты. 2020 -N3, С-42-45.

14. Герасименко, В.В. Тематологические показатели у цыплят-бройлеров при введении в рацион лактобактерий и семян/В.В. Герасименко и др. // Фундаментальные исследования. -2011. -N28. - С88-89.

15. Клинические и биохимические показатели крови цыплят: монография/В. В. В. Пронин и др. -Иваново: Престо, 2014. - 287 с.

16. Дергунов А. А. Влияние биогеогенных препаратов на обмен веществ, кмениско - биохимическое состояние и продуктивность животных. Автореф. на соискание уч. степ. канд бная наук. Дубровица- 2010.-С.14.

17. Родионов Н.М., Александи С.А. Влияние химококцира - 0,5/А4 силикокури и А-4 полимера А на рост, развитие и Электролитный состав сыворотки крови Прастлеров: Сб. науч. тр. ЛВИ. Л. - 1989. -С 81-85.

ҚОРАМОЛЛАРНИ ОШҚОЗОН ОЛДИ БЎЛИМЛАРИДА КЕЧАДИГАН БИОКИМЁВИЙ ЖАРАЁНЛАР

Аннотация: Мақолада кавшовчи ҳайвонларни ошқозон олди бўлимларида кечадиган биокимёвий жараёнлар тўғрисидаги тадқиқот натижалари келтирилган.

Аннотация: В статье представлены результаты исследования биохимических процессов, происходящих в преджелудочных отделах жвачных животных.

Калит сўзлари: Сигирлар ошқозон олди бўлимлари, гипо –ва атония катта қорин тимпанияси, катта қорин алкалози ва ацидоз.

Ключевые слова: Преджелудочные срезы коров, гипо- и атония, большая барабанная боль в животе, большой брюшной алкалоз и ацидоз.

Мавзунинг долзарблиги. Самарқанд вилояти чорвачилик фермер хўжалик шароитидаги қорамолларда ошқозон олди бўлимларида кечадиган биокимёвий жараёнлар бўлиб бажарилган ушбу мақоладаги тадқиқотлар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026» йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги, 2019 йил 28 мартдаги ПФ-5696-сон «Ветеринария ва чорвачилик соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида»ги фармонлари, 2020 йил 29 январдаги ПҚ-4576-сонли «Чорвачилик тармоғини давлат тамонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча-чора тадбирлари тўғрисида»ги ва 2022 йил 8 февралдаги ПҚ-121-сонли чорвачиликни янада ривожлантириш ва озиқа базасини мустаҳкамлаш чора тадбирлари тўғрисидаги, 2022 йил 31 мартдаги ПҚ-187-сон «Ветеринария ва чорвачилик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги қарорлари ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган устувор вазифаларни амалга оширишда муаян даражада хизмат қилади.

Тадқиқотнинг мақсади: Кавшовчи ҳайвонларни овқат ҳазм қилиш тизимида кечадиган биокимёвий жараёнларни адабиёт маълумотлари асосида тўплашдан иборат.

Олинган натижалар: Ҳайвонларни тикис сақлаш, микроклим ва бошқа санитария-гигиеник меъёрларнинг бузилиши оқибатида ҳайвонларнинг

стресс ҳолатларига тушиши ҳамда ошқозон олди бўлимларининг дистониялари билан касалланишига сабаб бўлиши мумкин. Сигирларда ошқозон олди бўлимлари дистонияларида биокимёвий жараёнлар мураккаб бир тизим бўлиб, қолмасдан моддалар алмашинувининг барча турида иштирок этади. Органлар гипотонияси ва атонияси ошқозон олди бўлимлари ҳаракатининг бузилиши (дистонияси), мускуллар қисқаришининг пасайиши ёки тўхтаб қолиши билан, улар ичидаги озиқалар бўтқаси эвакуатсиясининг қийинлашуви билан характерланади. Гипотония содир бўлганда катта қориннинг қисқариши кучи ва миқдори камайса, яни атония бўлганда қисқариш қобилияти йўқолади. Катта қорин бўтқаси таркибидаги инфузориялар миқдори камайиб муҳитни сут, мой, сирка ва бошқа кислоталар ҳисобига кислоталик (5,8-6,3) томонга ўзгартиради.

Ўчувчи ёғ кислоталари, аминли азот миқдори камаяди ва амиак кўпаяди. Катта қоринда бўтқанинг узок тўхтаб қолиши, зичлашиши, уларни парчалаши, чириши жараёнида ошқозон олди бўлими органларида тўпланган захарли моддалар тасирида рН кўрсаткичи ўзгариб, уларни қайта сўрилиши туфайли, оралик моддалар алмашинувининг бузилишига сабаб бўлади. Шу даврда сут маҳсулдорлиги 45,2-69,5 % га камаяди ва ҳайвон тузалганидан кейин 12 кун ўтгач бошланғич кўрсаткичи 72,9 % га тикланади ҳамда сутдаги ёғ 30 % га камаяди. Қон таркибида сут, пирозум (14,4мг %) кислотаси, қанд (92 мг %), кетон таначалари (50 мг %) пентозалар, ноорганик

фосфор кўпайиб, тиамин кўрсаткичи, ишқорлик даражаси пасаяди[1].

Адабиёт маълумотларига кўра, катта қорини бижғиш жараёни кечадиган камера деб қараши мумкин. Ундаги доимий бир хил муҳит микроорганизмлар популяциясининг ривожланишини таъминлаб туради. Бунда доимий бир хилликни қуйидаги омиллар таъминлайди:

а). Озиқалар билан доимий равишда микроорганизмлар учун субстратларни тушиб туриши.

б). Микроорганизмлар фаолияти натижасида ҳосил бўладиган маҳсулотлар катта қорин девори орқали енгил сўрилиб ўтади ва шунинг учун катта қоринда тўпланиб қолмаганлиги ферментлар таъсирини камайтиради.

в). Катта қоринда ҳарорат 38-42°C атрофида бўлиб, ҳароратни бошқарувчи механизмлар томонидан таъминлаб турилади.

г). Катта қорин массасининг ҳажми унинг суюқ қисмининг вақти-вақти билан тўрқорин ва қатқорин орасидаги тешик орқали қатқоринга ўтказилиб турилиши туфайли бир хилда сақлаб турилади.

ж). Кавшовчи ҳайвонлар таркиби бикарбонатлар ва ионларга бой кўп миқдордаги (50-80 л) сўлак ажратиб, унинг ҳисобига катта қорин суюқлигининг муҳити (рН) ва ионлар таркибини бир хилда сақланиб туради[2].

Ҳайвон эстеъмол қиладиган маҳсулоти асосан ўсимликлар яъни углеводлар бўлиб уларнинг кўп қисми полисахаридлар (клетчатка, крахмал) ҳамда дисахаридлар (сахароза, лактоза) бўлиб монасахаридлар оз миқдорини ташкил этади. Шунга қарамадан ҳайвон организмида уларнинг процент миқдори жуда оз (1,5-2 %) дир. Чунки улар тўхтовсиз ҳолатда, овқат ҳазм қилиш органларида, ферментлар таъсирида таркибий қисмларга парчаланиб, гидролизланиб фақат глюкоза ҳолатидаги қонга сўрилади ҳамда организмни керакли бўлган энергиянинг асосий қисми (50-60%) билан таъминлайдилар. Бир ва кўп камерали ҳайвонларда оғиз бўшлиғидан қизилўнгач орқали ошқозонга ўтган углеводлар ҳеч қандай ўзгаришга учрамайди, чунки муҳит кислотали(рН = 1,5-2) бўлганлиги сабабли амилаза ва мальтаза ферментларининг таъсири йўқолади. Озуқа ўн икки бармоқли ичакка ўтгандан кейингина қайтадан ферментлар таъсирига учраб парчаланган бошлайди[1].

Олимнинг маълумотларига кўра, сигирларнинг катта қоринида ацидоз ривожланиши натижасида А, D, В гуруҳи витаминлари етишмаслиги ва ҳайвонлар организмнинг касалликларга чидамлилигини пасайтиришини таъкидлайди. Кавшовчи ҳайвонларда кобалт катта қориндаги микроорганизмлар томонидан В₁₂ витамини синтези учун ишлатилишини аниқлаган [3,4].

Инфузориялар томонидан бактериал оксилларни парчалаш ва ўзлаштиришининг ва изига уларнинг протозой оксилларига айлантирилишини ўрганиш инфузориялар билан хўжайин - ҳайвон ўртасидаги ўзаро алоқа нуқтаи - назаридан катта қизиқиш уйғотади. Чунки протозой оксиллари озиқавий ва бактериал оксилларга нисбатан юқори ҳазмланиш ва тўйимлилиқ қийматига эга. Ўзининг каламушларда ўтказган тажрибаларида шу нарсани аниқлаганки, протозой оксилнинг ҳазмланиш даражаси 90% ни, бактериал оксилники 74% ни ташкил этган. Бука катта қорин суюқлигида 2 кг инфузориялар бўлади ва шулардан 150 граммини протозой оксиллари ташкил этади[5].

Инфузориялар кунига энг камида бир марта бўлиниш йўли билан кўпайади. Ҳар куни катта қориндаги инфузорияларнинг 69% и ҳосил бўлади ва ширдонга ўтиб туради. Демак, бундан шундай хулоса келиб чиқадики, хўжайин ҳайвон ҳар куни 100 г инфузориялар шаклидаги оксилни ҳазм қилади. Инфузория оксили кўп миқдордаги треонин, метионин, лейцин, изолейцин ва тирозин сақлайди [6].

Олимнинг маълумотларига кўра, катта қорин микрофлораларининг меъёрида фаолият кўрсатиши учун биотин, парааминобензой кислотаси, В₁₂ витамини ва 100 мг/л темир, 10 мг/л кобалт бўлиши лозимлигини таъкидлайди[7].

Ем-хашак турига қараб кавш қайтарувчи ҳайвонлар катта қорнида кунига 1000 литргача газ ҳосил бўлиши мумкин, шундан карбонат ангидрид 60-70% гача, метан 40-50% гача, азот, ацетон ва оз миқдордаги водород, водород сульфиди ва кислород. Катта қорин суюқлигининг таркибига сув, сўлак, аминокислоталар, липидлар, азот, УЁК, дағал озиқа қолдиқлари, микроорганизмлар киради. Анаэроб замбуруғлар энергия манбалари сифатида ўсимлик тўқималарининг моно, олиго ва полисахаридларидан фойдаланадилар. Улар мицелнинг

ўсимлик тўқималарига кириб бориши ва уларни тезда парчаланишига имкон берадиган целлюлолитик, протеаз ва гидролаза фаоллигига эга эканлигини аниқлаган [8].

Хулоса

1. Муаллифларнинг маълумотларни таҳлил қилиш билан шундай хулосага келдикки, дунё олимлари ошқозон олди бўлимларида кечадиган биокимёвий жараёнларни, тизим касалликларни сабабларини, кечиш хусусиятларини, клиник белгилари ва олдини олиш бўйича турлича хулосалар қилишган.

2. Катта қорини бижғиш жараёни кечадиган камера деб қараши мумкин. Ундаги доимий бир хил муҳит микроорганизмлар популяциясининг ривожланишини таъминлаб туради. Сигирларда ошқозон олди бўлимлари дистонияларида биокимёвий жараёнлар мураккаб бир тизим бўлиб, қолмасдан моддалар алмашинувининг барча турида иштирок этади. Органлар гипотонияси ва атонияси ошқозон олди бўлимлари ҳаракатининг бузилиши (дистонияси), мускуллар қисқаришининг пасайиши ёки тўхтаб қолиши билан, улар ичидаги озикалар бўтқаси эвакуатсиясининг қийинлашуви билан характерланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. П.Б.Бобоев.,Д.Э Эшимов Ҳайвонларнинг клиник биокимёси дарслик – Тошкент 2005.
2. Хмельков Я.Т. этиологическая структура, патогенез и лечение вторичных застойных дистоний преджелудок у коров: Автореф. Дисс.канд. вет. наук.- Белгород. 2006 - С. 16-17.
3. Митюшин В.В. Водносольевой обмен у телят при острых расстройствах пищеварения // Ветеринария. Москва, 1984. - № 12. - С. 48-51
4. Уразаев Н.А Биогеоценоз и болезни животных. М.: Агропромиздат, 1990. -С. 116.
5. Пивняк И.Г. Тараканов Б.В. Микробиология пищеварения жвачных. М.: Колос, 1982. -С. 40-176.
6. Тараканов Б.В., Гуштин Н.Н., Долгов И.А., Шавырина Т.А. Микрофлора и микрофауна преджелудков овец при разных уровнях лизина и метионина в рационе // Труды ВНИИФБИП сельскохозяйственных животных. Москва, 1974. -С. 230-240.
7. Blackwell J.G. Chronic lead poisoning (chronic plumbism) in a ewe // Veter. Med. Small Anim. Clin., 1977, vol. № 12. -Р. 1879 - 1882.
8. Лысов А.В. Транспорт метаболитов с кровью и лимфой и параметры липидного и углеводного обмена у животных. В кн.: Сельскохозяйственные животные: физиологические и биохимические параметры организма // Справ. пос. Боровск, 2002. -С. 50-71.
9. Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.
10. . Бакиров, Б., Бобоев, О. Р., & Хайитов, Б. Н. (2021). Ўзбекистон шароитидаги махсулдор қорамолларда метаболизм бузилишларининг алиментар-микробиял табиати ва гепатоген ҳамда эндокрен хусусиятлари. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).
11. . Бакиров, Б., Хайитов, Б. Н., & Улуғмуродов, Ю. (2021). МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТАБОЛИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АЦИДОЗА РУБЦА У ВЫСОКОПРОДУКТИВНЫХ КОРОВ. *Вестник Омского государственного университета*, (1-2), 210-214.
12. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, V. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocobaltosis in productive cows. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.

MUHIT VA EKOLOGIK OMILLARNI TIRIK ORGANIZMLARGA TA'SIRI ETISH QONUNIYTLARI VA TIRIK ORGANIZMLARDA BO'LADIGAN BIOKIMYOVIY O'ZGARISHLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy ekologik omillar hamda ularning tirik organizmlarga ta'siri ya'ni abiotik, biotik, va antropogen omillarning tabiatga ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Muhit, ekologiya, ekologik omillar, tirik organizm, abiotik, biotik, antropogen, tabiat, biokimyoviy o'zgarishlar.

Ekologiya haqida tushuncha. Bu atama nemis biolog Ernest Gekkel (1834–1919) tomonidan 1866–1869 yillarda fanga olib kiritilgan. Ekologiya XX asrning boshlariga kelib fanning mustaqil sohasi sifatida shakllandi. «Ekologiya» so'zi grekcha oikos so'zidan olingan bo'lib, «uy», «turar joy» degan ma'noni anglatadi. Milliy amaliyotga ekologiya tushunchasi sekinlik bilan kirib kelgan. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida ingliz fiziologi I. Berdonsanderson, amerikalik olimlar S. Forbe va K. Shreter ekologiya to'g'risida yozganlar. Ekologiya xususida AQShda 1913-yilda Ch. Edamsning «Hayvonlar ekologiyasiga oid qo'llanma», ingliz zoologi Ch. Eltonning «Hayvonlar ekologiyasi», o'zbek ekologiya maktabining asoschilaridan, zoolog olim D. N. Qashqarovning «Hayvonlar ekologiyasi asoslari» kitoblari hozir ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.

EKOLOGIYA – tirik organizmning tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan biologik fan. Ekologiya muhit omillarining o'simlik va hayvonlar organizmiga ta'siri, organizm hamda populatsiyaning muhit omillariga ko'rsatadigan reaksiyalarini, populatsiya soni va strukturasi bir xilda saqlovchi mexanizmlarni, tabiiy guruhlarining biologik mahsuldorligini, biogeosenozlar hamda tizimlarning harakatlanish qonuniyatini, biogeosenozlar strukturasi va biosferani o'rganadi. Hozirgi zamon ekologiyasi odam va biosfera o'rtasida o'zaro munosabat masalalarini ham jadal o'rganmoqda.

Muhit tushunchasi fanda turli ma'nolarni anglatadi. Bular ekologik, geografik, fizik, falsafiy, ijtimoiy va boshqalar. Ekologiyada muhit deb tirik organizmni o'rab turgan fizik qurshovga aytiladi. Muhit tevarak-atrofdagi o'zaro bog'lanishlardagi shart-sharoitlar va ta'sirlar majmuyidir. Odatda tabiiy va sun'iy muhitlar farqlanadi. Tabiiy muhitni suv, quyosh, shamol, havo, yer, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy omillar majmuyi tashkil etadi. Sun'iy muhit inson tomonidan yaratilgan bo'lib, bunda insonning mehnat mahsuli yotadi. Tabiiy va sun'iy muhitlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ularning bog'liqligini ekologik muhit tushunchasi ifodalaydi. Ekologik muhit tabiiy va sun'iy atrof-muhit bo'lib, tirik mavjudotlar subyekt va obyekt ta'sirlar sifatida qatnashib, ta'sirlar soni esa tevarak-atrofnı saqlab qolish yoki xavf solish sharoitini keltirib chiqaradi. Ekologik muhitning buzilishida atmosferaning yer ostki suvlarining ifloslanishi, qattiq chiqindi moddalarning to'planishi va ozuqalarning zaharlanishi, shovqinlarning ko'payishi, radioaktiv moddalar va boshqalar ta'sirini ortib borishida ko'rinadi. Inson tabiat qonunlarini chuqurroq o'rganish o'rniga hayot muhitini tezkorlik bilan buzib ifloslantira boshladi. Tirik organizmlar – to'rtta asosiy muhitda tarqaladi. Ulardan ikkitasi, ya'ni suv va havo muhitlari o'lik, tuproq muhiti oraliq va organizm (muhit sifatida) tirik xususiyatga ega. Har bir hayot muhiti o'z navbatida organizmlar yashashi uchun turli yashash joylaridan iborat. Masalan suv muhiti quyidagi holatda uchrashi

mumkin, chunki sho'r suv, ko'lmak va oqar suv, chuqur va sayoz, iliq hamda sovuq va hokazolar. Havo va tuproq ham nihoyatda xilma-xil yashash joylarini tashkil etadi. Tirik organizmlar (o'simliklar, zamburug'lar, hayvonlar) ham parazit va simbiotlar uchun muhit sifatida o'ziga xosdir. Sayyoramizda tirik organizmlar bir-birlaridan keskin farq qiluvchi o'ziga xos to'rtta muhitda tarqalgan ekan, ulardan biri hisoblangan suv muhitida dastlab hayot kelib chiqqan. Keyinchalik tirik organizmlar quruqlikka chiqib, tuproq hosil bo'lishida qatnashadi va uni egallaydi. Shuningdek, havo va boshqa bir tirik organizmni ichida yoki sirtida ham tarqaladi. Demak, bizga ma'lum bo'lgan tirik tabiat va uning tarkibiy qismlari hisoblangan uvoqlilar, zamburug'lar, o'simliklar va hayvonlar ana shu muhitlarda yashashga moslashganlar.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda ekologik omillar kelib chiqishiga vaqt bo'yicha, muhitga, xarakteriga, obyektga ta'sir etishiga va boshqa tomonlarini hisobga olib tasniflanadi. Ekologik omillarni abiotik (o'lik tabiatning ta'siri), biotik (tirik organizmlar bilan bog'liq bo'lgan ta'sir) va antropogen (insonning faoliyati natijasida kelib chiqadigan ta'sir) omillarga bo'lib o'rganiladi.

Abiotik omillarga quyidagilar kiradi:

1. Iqlim, yorug'lik, harorat, havo, namlik (har xil shakllardagi yog'ingarchiliklar, tuproq va havoning namligi, qor qoplami).

2. Edafik (yoki tuproq gurunt) – tuproqning mexanik va kimyoviy tarkibi, uning fizik xossalari va boshqalar.

3. Topografik (yoki orografik) – relef sharoiti.

Biotik omillarga quyidagilar kiradi:

1. Fitogen – birgalikda yashayotgan o'simliklarning to'g'ridan-to'g'ri (mexanik ta'sirlar, simbioz, parazitlik, epifitlarning yashashi) va bilvosita (tirik organizmlar yashayotgan muhitni o'zgartirishi) kabi ta'sirlari;

2. Zoogen – hayvonlarning (oziqlanishi, payhon qilishi va boshqa mexanik ta'sirlar, changlatish, meva va urug'larni tarqatishi, muhitga ta'sir etishi kabi ta'sirlar;

3. Mikrobiogen va mikogen-mikroorganizmlar va zamburug'larning (parazitlilik, tashqi muhitni o'zgartirish) ta'siri.

Antropogen omillar insonning faoliyati natijasida kelib chiqadigan omillardir. Antropogen ta'sir natijasida tirik organizmlar yashash muhitining o'zgarishi o'z navbatida ekotizimlarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'lanishlarning buzilishiga, inqirozga yuz tutishiga

(cho'llarni o'zlashtirish, o'rmonlarni kesib yuborish, pichan o'rish va mol boqish, suv, tuproq va havoni sanoat chiqindilari, zararli kimyoviy moddalar, maishiy chiqindilar bilan ifloslantirish va zaharlashga olib keladi. Ba'zi hollarda biosenozlarning butunlay yo'q bo'lib ketishiga sababchi bo'ladi (1-jadval).

Ekologik omillarning tirik organizmlarga ta'siri (minimum) va kuchli (maksimum) ta'sir etishi mumkin. Shunday qilib, har qanday ekologik omilning optimum, minimum va maksimum ta'siri bo'lar ekan. Omilning kuchli ta'sir etishi, ya'ni optimum qonunning organizmlarga ta'sirini tushunib olish uchun g'o'za o'simligini havo haroratiga bo'lgan munosabati va uning optimum, minimum va maksimum nuqtalari haqida to'xtab o'tamiz. Ma'lumki, chigitning unib chiqishi uchun harorat 14–16°C bo'lishi zarur. Bahorda harorat past kelsa, chigitning unib chiqishi kechikadi. Bizning sharoitda g'o'za nihollari paydo bo'lgan vaqtda havo bilan tuproq harorati sekinasta ko'tariladi va odatda, normal darajada bo'ladi. Harorat 38°C dan yuqori bo'lganda, ayniqsa, nam kam bo'lsa, o'simlik qizib ketadi. Harorat 1–2°C bo'lsa, g'o'za nihollarini sovuq uradi. Kuzdagi 3–4°C sovuq ham g'o'zani nobud qiladi. Shunday qilib, g'o'za o'simligining vegetatsiya davomida minimum nuqtadan haroratni 1–4°C pasayishi uni nobud bo'lishiga olib keladi. 14–16°C dan 38°C gacha oraliqdagi harorat o'simlik o'sishi uchun qulay, undan yuqorisi esa, noqulay hisoblanadi. G'o'za o'simligi uchun maksimum nuqta 46–47°C deb qarash mumkin. Muhitning biror omiliga keng doirada moslashgan ekologik turlarga evriold qo'shimchasini qo'shib, tor doirada moslashganlarga steno-old qo'shimchasini qo'shib nomlanadi. Haroratga nisbatan evriterm, stenoterm, namlikka nisbatan evrigidrid, stenogidrid, sho'rlanishga nisbatan evrigal, stenogal deb nomlanadi. Ekologik omillarning ta'sir etish kuchi bilan organizmda bo'ladigan o'zgarishlarning o'zaro ta'siri bosimga nisbatan evribat, stenobat ekologik guruhlar ajratiladi. Ekologik omillar organizmning turli funksiyalariga ham har xil ta'sir etadi. Sovuq qonli hayvonlar uchun havo haroratining 40–45°C bo'lishi modda almashinuvi jarayonini tezlashtiradi, ammo ularning faolligi, ya'ni harakatlantirishi susayadi. Bunda hayvonlar tinim holatiga o'tadi. Muhitning ayrim ekologik omillari organizmga bir vaqtda ta'sir etadi. Ushbu omillarning ta'siri boshqa omillarning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Buni omillarning o'zaro ta'sir etish qonuniyati deyiladi. Organizmning yaxshi o'sishi, rivojlanishi abiotik omillarning op-

timal (zona) sharoiti ta'sirida bo'lsa, ularning yomon holati (nobud bo'lishi) minimal sharoitda, ya'ni abiotik omillarning salbiy ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan boryapti. Yer kurrasining qiyofasini o'zgartirishda biosfera katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini V. I. Vernadskiy tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi. Insonning geologik va geokimyoviy faoliyatini sarhisob qiladigan bo'lsak, biosferaning o'zgarishi nihoyatda katta. Insonning tabiiy jarayonlarga ana shunday munosabatda bo'lishi natijasida XX asrning o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi.

1. Ekologik muammo deganda, insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotida, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofotlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va b.) har qanday hodisa tushuniladi.

Ekologik muammolarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Umumbashariy (global).
2. Mintaqaviy (regional).
3. Mahalliy (lokal).

Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen hodisalar – umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday muammolarga ba'zi bir misollar keltiramiz.

Ekologik omillar — atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlari va elementlari majmui. Ekologik omillar 2 katta guruh — abiotik va biotik omillarga bo'linadi. Ekologiyada „cheklovchi omillar“ tushunchasi ham mavjud, ular tarkibiga organizmlar mavjudligi va rivojlanishini cheklovchi har qanday omilni kiritish mumkin.

Tirik organizmlarga ta'sir etuvchi muhitning har qanday bo'laklari ekologik omillar deyiladi.

Muhit — quruqlik, suv, havo va yer osti qismlaridan iborat. Tashqi muhit tushunchasidan tashqari yashash sharoitlari degan tushuncha ham mavjud bo'lib, bu tushunchaga organizmning yashashi uchun zarur bo'lgan elementlar yoki omillardan yorug'lik, issiqlik, suv, oziqlanish va shu kabilar kiradi. 1933-yilda D.N.Kashkarov muhit omillarini 3 guruh (iqlim, edafik

va biotik)ga bo'ladi. Keyinchalik 1950-yilda Alyoxin ekologik omillarni iqlim, edafik, orografik, biotik, antropogen va tarixiy guruhlariga ajratib o'rganishni taklif qiladi.

Omillarning tirik organizmlarga ta'sir qilish qonunlari.

Muhit omillari ta'sirini organizmlari ma'lum chegarada qabul qiladi. Ekologik omillarga organizm ma'lum darajada javob reaksiyasini qiladi.

Abiotik omillar organizmlarga to'g'ridan – to'g'ri va bilvosita ta'sir qiladi. Masalan muhit harorati o'simlik va hayvonlarga bevosita ta'sir qilib, ular tanasidagi issiqlik balansi, fiziologik jarayonlar o'tishini o'zgartiradi. Lekin abiotik omildan yorug'lik o'simlikka to'g'ridan – to'g'ri ta'sir qilib, ular tanasida biomassa hosil bo'lishiga olib keladi., shu biomassa (yem-xashak , ozuqa) orqali hayvonlarning hayot-faoliyatiga ta'sir qiladi.

Organizmlarning yaxshi o'sish rivojlanish sharoiti optimal abiotik omillar ta'sirida bo'lsa ularning yomon holati minimal sharoiti, ya'ni abiotik omillarning salbiy ta'sir natijasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коваленок, Ю.К. Микроэлементозы крупного рогатого скота на откорме в условиях республики Беларусь: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора ветеринарных наук. – СПб., 2012. – 38 с.
2. Коваленок, Ю.К. Рекомендации по применению комплексонатов микро-элементов при гипокобальтозе и гипокупрозе телят на откорме / Ю.К. Коваленок, А.А. Голубь, П.Г. Роскач. – Витебск: Изд. УО ВГАВМ, 2007. – 15 с.
3. Ковальский, В.В. Микроэлементы в растениях и кормах / В.В. Ковальский. – М.: Колос, 1971. – 235 с.
4. Микроэлементозы человека / А.П. Авцын, А.А. Жаворонков, М.А. Риш, Л.С. Строчкова. – М.: Изд. «Медицина», 1991. – 486 с.
5. Ноздрюхина, Л.Р. Биологическая роль микроэлементов в организме животных и человека / Л.Р. Ноздрюхина. – М.: Наука, 1977. – 184 с.

KOBALT MIKROELEMENTINI ORGANIZMDAGI TA'SIRI (Adabiyotlar tahlili)

Annotatsiya: Mahsuldor sigirlarda kobalt yetishmovchiligi kasalligining o'rganilganlig darajasi, tarqalishi, iqtisodiy zarari, sabablari, kasalikni rivojlanishi, kobalt mikroelementining fiziologik jarayonlardagi ishtiroki va ta'siri hamda oldini olish bo'yicha adabiyot ma'lumotlari bayon e'tilgan.

Аннотация: Изложены литературные данные об уровне исследований, распространении, экономическом ущербе, причинах, развитии заболевания, участии и влиянии микроэлемента кобальта в физиологических процессах и профилактике кобальтодефицитной болезни у продуктивных коров.

Summary: Literature data on the level of research, distribution, economic damage, causes, development of the disease, participation and influence of the microelement cobalt in physiological processes and prevention of cobalt deficiency disease in productive cows are presented.

Kalit so'zlar: Girokaboltoz, kobalt xlorit, megaloblastik, gipoxrom, anemiya, siptom, sindromatika, abort, fosfataza, karboksilaza, arginaza, lizuxa, gemopoez.

Ключевые слова: Гирокаболтоз, хлорит кобальта, мегалобластный, гипохромный, анемия, симптоматический, синдроматический, аборт, фосфатаза, карбоксилаза, аргиназа, лизуха, кроветворение.

Key words: Gyrocabobolosis, cobalt chlorite, megaloblastic, hypochromic, anemia, symptomatic, syndromic, abortion, phosphatase, carboxylase, arginase, lysuha, hematopoiesis.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik davlatlaridagi qoramolchilik xo'jaliklari sharoitida sigirlarning yuqumsiz kasalliklari orasida mikroelemintozlar ko'p uchrab, hayvonlar mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Veterinariya amaliyotida ushbu kasalliklarning etiologiyasini aniqlash, davolash va oldini olishning takomillashgan usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Bugungi kunda dunyoda mahsuldor hayvonlarni parvarishlash va oziqlantirishda ularning yoshi, fiziologik holati, mahsuldorligi, laktasiya, bosqichlari va bo'g'ozlik davrlarini hisobga olinmasligi mikroelemintozlarning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun ushbu gipokaboltozga erta tashxis qo'yish, organizimdagi ahamiyati, rivojlanish mexanizmlari, siptomlari va sindromatikasini tadqiqot qilish, davolash va oldini olishning samarali, tejamkor uslub va vositalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: Mahsuldor sigirlarda kobalt mikroelementining ahamiyati, gipokaboltoz kasalligining tarqalishi, sabablari, simptom va sin-

dromlarini adabiyot ma'lumotlari asosida to'plashdan iborat.

Olingan natijalar: Ko'pchilik olimlarning ma'lumotlariga ko'ra mineral moddalar quyidagi asosiy fiziologik jarayonlarda ishtirok etadi:

- organizimda suv muvozanati va taqsimlanishida;
- qon va xujayra suyuqliklarining osmotik bosimini saqlab turishda;
- kislota-ishqor muvozanatini boshqarishda;
- ko'pgina kimyoviy reaksiyalarda katalizatorlar rovida, fermentlar bilan garmonlarning ta'siri uchun qulay muhit yaratishda;
- tayanch to'qimalar tarkibiga kiradi(kalsiy, fosfor, magniy);
- biologik aktiv moddalar (vitaminlar, fermentlar, gormonlar) tarkibiga kiradi (P,Fe, Zn, Si, Co, Mn);
- biologik suyuqliklar bo'ladi (natriy, kaliy va xlor);
- markaziy asab tizimi, yurak, qon tomirlar va boshqa organlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatishda [1].

Kobalt hayvonlarda moddalar almashinuvida ishtirok etib, fosfataza, karboksilaza, arginaza, katalaza fermentlarini, shuningdek qonning glikolitik funksiya-yasini faollashtiradi, azotning o'zlashtirishini tezlashti-

radi, eritrositlar va gemoglobin hosil bo'lishini hamda nuklien kislotalar, muskul oqsillari sintezini kuchaytiradi. Hidrolitik fermentlar aktivligini oshiradi. Kobalt hayvonlar ratsionida yetarli bo'lganda katta qorindagi mikrofloralar faolligi yaxshi bo'ladi va B guruhi vitaminlari sintezlanishi oshadi [2].

Kobalt va selin yetishmovchiligida: abortlar, embrional abort, tug'ruqdan patalogiyalari, endometritlar, o'lik tug'ilishlar, tuxumdonlar follikulyar kistasi. Umumiy holsizlanish, gandarlash, oqsash, bazan tananing ayrim qismlarining falaji va yarim falaji bilan kechadi [3].

Kobaltning tuproq tarkibida miqdori. $2 \cdot 10^{-6}$ % ni tashkil etganda qoramol va qo'ylar orasida kobalt yetishmovchiligi kuzatiladi. Kasallik endemik xarakterga ega bo'lib, rasionga qo'shimcha ravishda kobalt tuzlari berilganda hayvonlarning sog'ayishini taminlaydi. Kobaltning organizimga ta'siri nafaqat gemopoez, balki uglevod va yog'lar almashinuvi, organizimning ko'payishi va o'sishiga ta'siri bilan izohlanadi. Kobalt yetishmovchiligi oqibatida suyaklarning organik va mineral qismlarining sintezi jarayonlari izdan chiqadi va hayvonlarda osteodistrofiya rivojlanishiga sabab bo'ladi. Qoromollarda kobalt elementining yetishmovchiligi avitaminozlar paytidagidek, modda almashinuvlarining buzilishi, ishtahaning pasayishi, ich qotishi yoki ich ketishi, anemiya rivojlanishi, mahsuldorlik va semizlik darajasining keskin kamayishi, ona hayvonlardan nimjon va hayotchanligi past bola tug'ilishi bilan xarakterlanib, kobaltning yetishmovchiligi asosan qishlov davrida yaqqol namoyon bo'ladi [4].

P.X. Avzalov, P.Ya Gushin ma'lumotlariga (2006) ko'ra, sigirlarda endemik mikroelementozlar servis davrining uzayishi, reproduktiv xususiyatlarining pasayishi kabi abortiv belgilar bilan kechadi. Gipokaboltoz paytida teri qoplamasi xo'rpaygan, shilliq pardalar oqargan, ishtaha o'zgaruvchan (lizuxa) bo'lib, oshqozon oldi bo'limlarining gipo-vaatoniyasi, shirdon va ichaklarning kataral yallig'lanishi qayd etiladi. Qonda gemoglobin miqdori va eritrositlar sonining keskin kamayishi ($47-98 \text{ g/l}$ va $4-2,510^{12}/\text{l}$ gacha) kuzatiladi. Qondagi kobaltning miqdori $0,43 \text{ mkmol/l}$ dan kam bo'ladi [5].

Kobaltning hayvonlar organizimiga talab etiladigan darajadan kam miqdorda tushishi sianoko-

balaming mikrobial sintezining kamayishi, gemopoezning buzilishi, mikrositlar va megaloblastik gipoxrom anemiya kuzatilishiga sabab bo'ladi. B_{12} vitamini tanqisligi kuzatilganda folat kislotasini uning metabolitik faol shakli hisoblangan tetragidrofolat kislotasiga aylanishi qiyinlashadi. Oqibatda qon hosil bo'luvchi xujayralarda, xususan eritro-va normalblastlarda DNK sintezi izdan chiqadi. Bu xujayralarning bo'linishi va etilishi sekinlashadi. Gemopoezning izdan chiqishi to'qima va a'zolarida oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining sekinlashishiga olib keladi. Kobalt transmitlanish reaksiyalarida qatnashadi, oqsillarning mikrobial sintezi uchun zarur hisoblanadigan arginaza, karbongidraza, aldolaza, ishqoriy fosfataza kabi fermentlarni faollashtiradi. Shuning uchun kobalt yetishmaganda oziqalar tarkibidagi proteinning o'zlashtirishi yomonlashib, manfiy azot balansini rivojlanadi, yani organizimdagi zaxira oqsillari ishlatila boshlaydi va oqibatda kuchli oriqlash (suxotka) kuzatiladi [6].

Xulosa. Adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish bilan shunday xulosaga keldikki, dunyo olimlari kobalt mikroelementining yetishmovchiligining sabablari, kechish xususiyatlari, klinik belgilari hamda oldini olish usullari to'g'risida turlicha xulosa qilishgan. Respublikamizning qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitida chetdan keltirilgan yuqori mahsuldor sigirlarda kobalt mikroelementining etiologiyasi, patogenizi va ushbu gipokaboltoz kasalligining diagnostikasi to'liq o'rganilmagan va oldini olishning samarali usullari ishlab chiqilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Husanova V., Toshpulatov E. Qishloq xo'jalik hayvonlari fiziologiyasi. Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti. 1994.
2. Абрамов С.С. Минеральная обеспеченность рационов дойных и стельных сухостойных коров и его влияние на уровень минерального обмена у них. / С.С. Абрамов, М.М. Григорчик, Ю.К. Ковалёнок. // Международный вестник ветеринарии.-2005.-№ 5-6. –с.52-55.
3. Arechiga, С.Е. Effect of parturition injection of vitamin E and selenium on postpartum reproduction

function of dairy cattle. /С.Е. Arechiga, О. Ortiz, R.J. Hansen // Theriogenol. 1994.

4. Кондрахин, И.П. Внутренние не заразные болезни животных Текст.: учебник по специальности 3104 «Ветеринария» / И.П. Кондрахин, Г.А. Таланов, В.В. Пак. М.: Колос.

5. Авзалов Р.Х., Гушин П.Я. Влияние геохимические факторов на физиолого-биохимических статус животных // Тр. Башкирский ГАУ, 2006. – С.11-12.

6. Norboyev Q.N., Bakirov B., Eshburiyev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Toshkent, 2020.

7. . Norbek o'g'li, X. B., & Vaxtiyar, B. (2022, April). OSHQOZON OLDI BO'LIMLARIDA HAZMLANISH JARAYONLARI NAZORATI. In *E Conference Zone* (pp. 147-148).

8. . Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive

Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.

9. . Бакиров, Б., Бобоев, О. Р., & Хайитов, Б. Н. (2021). Ўзбекистон шароитидаги махсулдор қорамолларда метаболизм бузилишларининг алиментар-микробиал табиати ва гепатоген ҳамда эндокрен хусусиятлари. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).

10. . Бакиров, Б., Хайитов, Б. Н., & Улуғмуродов, Ю. (2021). МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТАБОЛИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АЦИДОЗА РУБЦА У ВЫСОКОПРОДУКТИВНЫХ КОРОВ. *Вестник Омского государственного университета*, (1-2), 210-214.

11. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocoalbitosis in productive cows. *Academica: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.



QATTOA BUG'DOYNI "ISTIQLOL-25" NAVI URUG'LARINING UNUVCHANLIGIGA SUBO'TLARINING TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqola bir hujayrali yashil suvotlar turkumiga mansub *Chlorococcales* va *Scenedesmus* suvo'tining qattoa bug'doyni "Istiqlol-25" navi urug'larining unuvchanligiga subo'tlarining ta'siri mavzusida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib bu orqali ular tuzilishi va yashash tarzi, suspenziyasining ishlatilishi o'rganilib chiqilgan.

Kalit sozlar. *Scenedesmaceae*, *Chlorococcales*, *Protokokkalar*, yashil suvotlar, suspenzia, suspenziya, "Istiqlol-25", urug'larining unuvchanligi.

Kirish. Qishloq xo'jaligi hozir hamma joyda ma'lum bir muammolarga duch kelmoqda. Dunyo bo'ylab siyosatchilar va yer boshqaruvchilari sayyoramizning tobora ko'payib borayotgan aholisini yer va suv resurslari hamda oziq-ovqat bilan ta'minlash, deqratatsiya jarayonlari va unumdorlikni pasayishi davom etayotgan kabi masalasiga duch kelishmoqda. Umuman olganda, bu muammolar qishloq xo'jaligi uchun bir qator aniq vazifalarni keltirib chiqaradi:

- ekinlar hosildorligini qanday oshirish mumkin?
- mahsulot sifatini qanday yaxshilash yoki hech bo'lmaganda yo'qotmaslik kerak?
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xarajatlarini kamaytirish va rentabelligini qanday oshirish mumkin?

Qishloq xo'jaligi mutaxassislari yangi resurs tejankor texnologiyalarni izlamogdalar va ular oldida maksimal darajada oziq-ovqat va bugungi kunda eng muhimi, ekologik toza mahsulotlarni minimal xarajatlar va tabiatga antropogen ta'sirni oqilona kamaytirish bilan qanday ta'minlash kerak degan shunday vazifalar turibdi.

Yuqorida aytib o'tilgan qishloq xo'jaligi muammolarini hal qiladigan vositalardan biri- bu suvo'tlaridir. Ayniqsa yashil suvo'tlarga kiruvchi *Chlorococcales* va *Scenedesmus* avlodlari vakillari muhim ahamiyatga ega.

Xlorokokk suvo'tlari bir hujayrali, bir qator hayot shakllari bilan ifodalanadi, kolonialar yoki senobiyalar hosil qiladigan, suv ustunida erkin suzuvchi (plankton), suvning pastki qismiga yaqin joylashgan yoki substratga biriktirilgan organizmlar. Bir hujayrali shakllari ba'zan bir qatlamli plastinalar yoki formasiz ko'rinishdagi konglomeratlar hosil qiladi. Xlorokokk suvo'tlarining hujayralari juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi, shakllari: sharsimon, ovalsimon, ellipsoidsimon, shpindelsimon, silindsimon, limonsimon, tuxum-, yurak-

buyrak-, oy- yoki o'roq-, spiral, H shakllarida bo'ladi. Xlorokokk suv o'tlari hujayra qobig'i qattiq, zich, qalinligi, tuzilishi va tarkibi har xil bo'ladi.

Scenedesmus (*Scenedesmus*) - chuchuk suvda tarqalgan yashil mikrosvoti, xlorellaga o'xshash, ammo hazm bo'lishi va tarkibi yaxshiroq. *Scenedesmus* avlodi 4-8 (kamdan-kam hollarda 2-32) cho'zinchoq yoki yumaloq plastinkalardan iborat, yon tomonlari oddiy yoki juft qatorlarga bog'langan senobiyalarni o'z ichiga oladi. Qobiqlari silliq yoki gadir-budur, qovurg'asimon, so'rg'ichli bo'lib, ko'pincha hujayralar uchida uzun tikanlar yoki shoxchali bo'ladi.

Xloroplasti lamelyar shaklda bo'lib, yon pirenoid va markaziy yadroga ega. Avtosporalar orqali ko'payadi, ular ona hujayra ichida qiz senobiyasiga aylanadi. *Scenedesmus* planktonda keng tarqalgan, ko'pincha qirg'oq zonasida moxlar va boshqalar orasida uchraydi. 500 dan ortiq turlari va shakllari ma'lum. Ko'pincha *Scenedesmus* to'rt shoxli (*S. quadricauda*), *Scenedesmus* o'tkir uchli (*S. acuminatus*), *Scenedesmus* mayda tishli (*S. denticulatus*) va boshqalar uchraydi.

Mikrosvoti bir hujayrali fotosintetik mikroorganizmlar bo'lib, quyosh energiyasini quruqlikdagi o'simliklarga qaraganda samaraliroq o'zlashtirib, organik modda hosil qiladilar.

Mikroalglar qimmatbaho kimyoviy moddalarning yangi manbai sifatida qaraladi, bu esa mikroskopik suv o'tlarini ishlab chiqarish (fotobioreaktorlar) va biomassani qayta ishlash texnologiyalarining rivojlanishiga olib keldi.

Biotexnologiya sanoatida mikroalglar va ularning metabolitlari, masalan, polisakkaridlar biomassasidan foydalanish imkoniyatlari biosintez mahsulotlari narxining barqaror pasayishiga olib keladi.

Qattiq bug‘doyning “Istiqlol-25” urug‘ning unib chiqish energiyasi

Variantlar	Ekilgan urug‘ miqdori, dona	Aniqlanish muddati, kun				Urug‘ning unib chiqish energiyasi, %
		1-kun	2-kun	3-kun	Jami	
1- oddiy tindirilgan vodoprovod suvida (nazorat)	50	5	20	41	46	
2- Chlorococcales suspenziyasi	50	33	50	-	50	100
3-Scenedesmus suspenziyasi	50	24	49	50	50	100

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan usullaryu Tajriba ishlarimiz Respublika qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Fan va ishlab chiqarish markazi, ilmiy – tadqiqot institutlari, Davlat nav sinash markazi, Respublika Davlat Urug‘ Nazorat markazi tavsiyalari qo‘llanmalari va usullari bo‘yicha o‘tkazildi. Tadqiqotning asosiy qismini kuzgi qattiq bug‘doyning “Istiqlol-25” urug‘larining unuvchanligiga Chlorococcales va Scenedesmus suspenziyalarining ta‘sir bo‘yicha olingan natijalar, ularning tahlili tashkil etadi. Buning uchun bizlar bug‘doy urug‘larini Petri liqobchalarida undirib, unuvchanligini aniqladik. Tadqiqotlarimiz 3 varianda; 1-variant oddiy tindirilgan vodoprovod suvida (nazorat); 2-variant Chlorococcales suspenziyasi va 3-variant Scenedesmus suspenziyasida olib borildi.

Natijalar va ularning tahlili. Respublikamizda qishloq xo‘jalik ekinlarini etishtirishda hozirgi davrda ko‘p miqdordagi kimyoviy o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish vositalari qo‘llaniladi. Tijorat preparatlarining asosini tuproq ekotizimlariga, o‘simlik mahsulotlarining sifatiga va o‘simliklarning mevalarini iste‘mol qiladigan odamga toksik ta‘sir ko‘rsatadigan sintetik birikmalar tashkil etadi.

Kimyoviy o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish vositalariga alternativa ekologik toza biologik preparatlar bo‘lib, ular orasida yashil miksuvo‘tlar va siyanobakteriyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ushbu mikroorganizmlar o‘simliklarning o‘shishini faol ravishda rag‘batlantiradi, kasalliklardan himoya qiladi, tuproq unumdorligini oshiradi, azot fiksatsiyasi, makrova mikroelementlar, o‘simliklarning o‘shishiga yordam beradigan biologik faol moddalar chiqarilishi tufayli urug‘larning unib chiqishi va o‘shish tezligini oshiradi.

Urug‘larning unib chiqish samaradorligini oshirish ekinlar etishtirishning muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun turli xil yondashuvlar qo‘llaniladi, shu jumladan oqsillar, aminokislotalar, vitaminlar va mineral elementlariga boy mikroskopik yosunlardan foydalaniladi.

Tadqiqotlarimiz natijasida ma‘lum bo‘lishicha suvo‘tlari suspenziyasi ta‘sir ostida bug‘doy urug‘lari bir necha vaqt ilgariroq unib chiqar ekan hamda hosil b‘lgan ildizchalari nazoratga nisbatdan baquvvatroq bo‘lganligini kuzatdik (1-jadval).

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib tiriptiki, suvo‘tlari suspenziyasida undirilgan urug‘larning unuvchanligi nazoratga nisbatdan yuqori bo‘lib, urug‘ning unib chiqish energiyasi 2- va 3-variantlarda 100% , nazorat variantida esa 92%ni tashkil qildi.

Xulosa. Shunday qilib, organik dehqonchilikda Chlorococcales va Scenedesmus tuproq unumdorligini oshiruvchi suspenziya shaklida qo‘llaniladi, bu urug‘larning unib chiqish energiyasini oshiradi, ekinlarning rivojlanishi va o‘shishini faollashtiradi, shuningdek o‘simliklarning immunitetini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Батаева Ю.В., Дзержинская И.С. Способ стимуляции роста и развития растений, повышения урожайности и защиты от фитопатогенных грибов в Аридной зоне // Патент на изобретение №2634387 26 2017 г.
2. Водоросли и цианобактерии в природных и сельскохозяйственных экосистемах: Материалы II Международной научно-практической конференции. 2015. – Киров: Вятская ГСХА. – 308 с.
3. Лукьянов В.А., Стифеев А.И. Прикладные аспекты применения микроводорослей в агроценозе / В.А. Лукьянов, А.И. Стифеев. – Курск: Издательство Курской государственной сельскохозяйственной академии, 2014.- 181с.
4. Khodjaeva Nasiba, Akbarova Gulirukhsor Vafaevna, and Jurabaeva Dilafruz. “WAYS TO GROW AZOLLA CAROLINIANA IN THE ZARAFSHAN VALLEY CONDITIONS.” *E-Conference Globe*. 2022.
5. Shernazarov, Shavkat Shuxratovich, Nasiba Jo‘raqulovna Xodjayeva, and Dilafruz Nuridinovna Jo‘rabojeva. “Samarqand viloyatidagi baliqchilik xo‘jaliklarida boqiladigan o‘txo‘r baliqlarni fitoplanktonlar bilan oziqlantirish.” *Vestnik Veterinarii i Jivotnovodstva* 1.1 (2021).

ҚОРАМОЛЛАРДА ГИПОКОБАЛЬТОЗНИНГ СИМПТОМЛАРИ ВА ГЕМАТОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИ

Аннотация: Мақолада гипокобальтоз касаллигининг клиник белгилари ва қоннинг морфобиокимёвий кўрсаткичларида кузатиладиган ўзгаришлар баён қилинган.

Аннотация: В статье приведено клинические признаки и изменение в показателях крови при гипокобальтозе.

Калит сўзлар: Сигирлар, рацион, кобальт, гиподинамия, ошқозон олди бўлимлари, гипотония, ато-ния.

Ключевые слова: Коровы, рацион, кобальт, гиподинамия, преджелудочные срезы, гипотония, ато-ния.

Мавзунинг долзарблиги. Самарқанд вилояти чорвачилик фермер хўжалик шароитидаги маҳсулдор қорамолларда гипокобальтознинг симптомлари ва гематологик кўрсаткичлари бўлиб бажарилган ушбу мақоладаги тадқиқотлар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026» йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги, 2019 йил 28 мартдаги ПФ-5696-сон «Ветеринария ва чорвачилик соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида»ги фармонлари, 2020 йил 29 январдаги ПҚ-4576-сонли «Чорвачилик тармоғини давлат тамонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча-чора тадбирлари тўғрисида»ги ва 2022 йил 8 февралдаги ПҚ-121-сонли чорвачиликни янада ривожлантириш ва озиқа базасини мустаҳкамлаш чора тадбирлари тўғрисидаги, 2022 йил 31 мартдаги ПҚ-187-сон «Ветеринария ва чорвачилик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги қарорлари ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган устувор вазифаларни амалга оширишда муаян даражада хизмат қилади.

Республикамининг чорвачилик жадал ривожланган фермер хўжаликлари шароитида маҳсулдор сигирларда кобальт етишмовчилиги касаллигининг тарқалиши, иқтисодий зарари, сабаблари, касалликни ривожланиш механизмларини ўрганиш, эрта аниқлаш ва олдини олишнинг самарали усулларини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга жорий этиш бугунги

кунда ветеринария фани ва амалиёти олдидаги долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Ҳар-бир модда алмашинуви бузилиши касаллигига хос патогномоник белгилар бўлгани каби, гипокобальтоз касаллигини ҳам ўзига хос клиник белгилари ва қоннинг кўрсаткичларида ўзгаришлар кузатилади. Микроэлементлар, жумладан кобальтнинг етишмовчилиги катта қориндаги микрофлораларнинг ривожланишдан тўхташи, катта қорин суюқлиги кислоталигининг ортиши, оксилларнинг тўлиқ парчаланмаслиги оқибатида ҳосил бўлган оралик маҳсулотлар ва аммиакнинг қонга сўрилиши сурункали интоксикацияга сабаб бўлади. Кобальт етишмовчилигига диагноз қўйишда лаборатор текширишларнинг жуда мураккаблиги туфайли диагностик мақсадда касалликга гумон қилинган ҳайвонларга кобальт тузларини бериш ёки В₁₂ витамини препаратларини қўллаб кўриш яхши натижа беради. Гипокобальтознинг диагностик биогеокимёвий провинциянинг хусусиятларини эътиборга олиш, клиник белгилар ва лаборатор текширишлар натижаларига асосланади. Кобальт етишмовчилигида иштаҳанинг ўзгариши, тана вазнининг кескин камайиши, жигардаги кобальт миқдорини 0,15 мкг% , қон зардобидаги В₁₂ витамини миқдорини 1,0 мкг/л дан кам бўлиши, қонда гемоглобинни 9-5 г%, эритроцитларни – 5-4 млн/мкл, кобальтни -2,5-2 мкг% ва умумий оксил миқдорини 7-6,5 г% гача камайиши кузатилади (Қ.Н.Норбоев ва б., 2020).

Республикамининг қорамолчилик фермер хўжаликлари шароитида парвариланиётган

Таърибадаги сигирларнинг клиник кўрсаткичлари.

№	Бирка номери	Нафас сони 1 дақиқада	Пулс, 1 дақиқада	Тана ҳарорати, °С	Катта қорин ҳаракати, 2-дақиқада	Катта қорин суюқлигининг рН кўрсаткичи
1	00003881	19	81	38,4	3	8,5
2	37891	15	61	38,8	2	8
3	56897	12	57	39,0	2	7,3
4	03517	16	77	39,2	2	8,2
5	03543	14	74	39,4	2	6,5
6	03523	20	79	39,6	3	7,8
7	37809	18	79	38,1	3	8,5
8	37870	21	69	38,2	2	6,2
9	56887	18	71	39,3	3	7
10	56891	18	77	39,2	2	7,2
Ўртача		17,1	72,5	38,9	2,4	7,5

№	Бирка номери	Эритроцит, млн/мкл	Гемоглобин, г/л	Гемокрит, %	Эритроцит-лар чўкиш тезлиги, дақиқа	Глюкоза, ммол/л	Умий оқсил, г/л	Креатинин
1	00003881	3,56	98,0	32	4	2,6	55	96
2	37891	4,0	100,0	33	6	2,0	60,8	104
3	56897	4,0	120,0	38	2	3,1	66,7	81
4	03517	4,0	106,0	34	4	2,2	56,6	60,0
5	03543	4,0	100,0	33	4	3,7	75	74
6	03523	4,0	104,0	34	6	2,5	74,3	100
7	37809	4,0	100,0	33	6	4,0	59,3	88
8	37870	4,0	102,0	34	4	3,4	63,5	80
9	56887	4,0	108,0	35	4	3,0	60,2	52
10	56891	4,0	104,0	34	4	3,8	80,0	76,4
Ўртача		3,956	1,042	34	4,4	3,03	65,14	81,14

Маҳсулдор сигирлар қонининг марфобиокимёвий кўрсаткичлари(н=10).

Маҳсулдор сигирларда гипокальтознинг кечиш хусусиятлари ва белгилари тўғрисидаги фикрлари турлича бўлиб, кўпчилик тадқиқотчилар (И.П.Кондрахин ва б., 2005; Б.М.Эшбуриев, 2016) гипокальтозни асосан маҳсулдорликнинг камайиши, иштаҳанинг пасайиши ва ўзгариши, ошқозон олди бўлимларининг гипотонияси, тери қопламаси ўсишининг ёмонлашиши, тушувчан бўлиши (алопеция), суякларнинг минералсизланиши, бўғинларнинг катталашиши, сервис даврини узайиши ва репродуктив хусусиятларининг ёмонлашиши, бола ташлаш ва ўлик бола туғилиши, ёш

хайвонларнинг ўсиш ва ривожланишидан қолиши каби умумий белгилар билан кечишини такидлашди.

Тадқиқотнинг мақсади. Соғин сигирларда кобальт этишмовчилиги касаллигига диагноз қўйиш учун асос бўладиган клиник белгилари ва хайвонлар қонининг айрим морфобиокимёвий кўрсаткичларида кузатиладиган ўзгаришлар ҳамда катта қорин суюқлиги кўрсаткичларини ўрганишдан иборат.

Тадқиқотнинг вазифалари. Маҳсулдор сигирларда кобальт этишмовчилиги касаллигининг

патогномоник симптом ва синдромлари, қоннинг кўрсаткичларидаги ўзгаришларни ўрганиш.

Тадқиқотнинг объекти, жойи ва услубиятлари. Тадқиқот объекти сифатида Самарқанд вилояти, Пастдарғом туманига қарашли “Омад замин” қорамолчилик фермер хўжалиги шароитида парвариланаётган маҳсулдор сигирлар ва улардан олинган қон намуналари, рацион ва асосий озиқалар намуналари олинди.

Фермер хўжалигига қарашли голштин-фриз зотига мансуб четдан келтирилган 4-5 ёшли соғин сигирлардан “ўхшаш жуфтликлар” тамойили асосида “эталон” сифатида ажратилган 10 бош сигирларда клиник текширишлар ўтказилди. Улардан олинган қон ва катта қорин шираси айрим кўрсаткичлари бўйича лаборатор текширишлардан ўтказилди.

Умумий қабул қилинган усуллар ёрдамида шиллик пардаларнинг ҳолати, семизлик даражаси, иштаха, тана ҳарорати, бир дақиқадаги юрак уриши ва нафас сони, ошқозон олди бўлимларининг 2 дақиқадаги қисқаришлари сони аниқланди.

Қондаги эритроцитлар (Горьев санок тўри), гемоглобин (Гемоглобин-цианидли усул), гемокрет (Микроцентрифуга), глюкоза (Орто-толуидинли рангли реакция усули), умумий оксил (Рефрактометр усул) ва креатинин (Поппер усули) миқдори, эритроцитларнинг чўкиш тезлиги (Панченков усули), катта қорин суюқлигининг кислоталик даражаси, инфузориялар сони ва улар ҳаракатчанлиги аниқланди.

Олинган натижалар ва унинг муҳокамаси. Тадқиқотларимизда эталон гуруҳидаги сурункали кетоз, иккиламчи остеодистрофия, гипомикроэлементозлар, туғруқдан кейинги фалаж, йўлдошни ушланиб қолиши, алиментар анемия каби юқумсиз характердаги касалликлар кўп қайд этилиши билан тавсифланиб, маҳсулдор соғин сигирларда шиллик пардаларнинг оқариши (анемия) ва семизликнинг ўртачадан паст бўлиши (ўртача 40% хайвонда) ошқозон олди бўлимлари гипотонияси (ўртача 30% хайвонларда) қайд этилди.

Хулоса. Маҳсулдор сигирларда гипокобальтознинг симптомлари сифатида ошқозон олди бўлимлари дистониялари, иштаханинг ўзгариши (лизуха), шиллик пардаларнинг оқариши, ориқлаш ва кўз ёшларни оқиши, тери ва тери қопламасини қуриқлашиши, пульс ва нафас сонининг тезлашиши, ошқозон олди бўлимларининг 2 дақиқадаги қисқаришлари сонини камайиши (гипотония), қондаги гемоглобин, глюкоза, умумий оксил, ишқорий заҳира миқдорларининг физиологик кўрсаткичларга нисбатан камайиши, катта қорин суюқлигида кислоталикнинг ортиши, инфузориялар сонининг камайиши ва улар ҳаракатининг сусайиши билан кечиши характерли бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Методы ветеринарной клинической лабораторной диагностики: Справочник/ под ред. Проф. И.П.Кондирахинова.М.: Колос, 2004.-С.520.
2. Нормы и рационы кормления сельскохозяйственных животных. Справочное пособие / А.П.Калашников, В.И.Фисинина, Н.И.Клейменова //Москва, 2003.- 455 с.
3. Порфирьев И.А. Нарушение обмена веществ у высокопродуктивных коров при различных условиях содержания и кормления // Сельскохозяйственная биология. - 2001. №2. -с. 27-40
4. Эшбуриев Б.М. Ҳайвонларнинг эндемик микроэлементозлари. Монография. «Н Доба» ХТ. Самарқанд, 2009.
5. Хмельков Я.Т. Этиологическая структура, патогенез и лечение вторичных застойных дистонией преджелудков у коров: Автореф. дис....канд. вет. наук. - Белгород: 2006. - С. 16-17.
6. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocobaltosis in productive cows. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.

SEASONAL AND AGE-RELATED DYNAMICS OF INFECTIOUS LARYNGOTRACHEITIS IN POULTRY FARMS

Summary: According to the results of the study, it was found that infection laryngotracheitis is a common infectious disease in some regions of the region, especially among young chicks, 35-50% of which there are between 10-12.5% of deaths, and a timely immunofluorescence analysis of diseases has achieved a quick diagnosis (there is or not a patient) and the correct conduct of measures against them. Recommendations were made to the LLC for the prevention and fight against infectious laryngotracheitis and to the existing poultry and poultry farm specialists in the population.

Keywords: laryngotracheitis, immunoglobulin, vaccine, immunity, immunophore, antigen, epizootology, clinical, pathoanatomics, bacteriologist, virologist, epidemiology, pathobiology.

Relevance of the topic. Poultry farming has a special place in the Agriculture of the economy of our republic, and great importance is attached to the development of this sector by our government. One of the main branches of animal husbandry, the development of poultry farming and increasing the profitability of limited liability societies, increasing the head number of poultry in farmers and personal auxiliary farms, increasing their productivity, healthy chick acquisition, and proper care, depends on factors such as maintenance from various diseases. Various diseases of poultry are considered a major threat to poultry farming. It is known to everyone that infection laryngotracheitis among poultry is one of the problems that cause great economic damage. In veterinary medicine, the lack of biological and chemical preparations further complicates the problem, allowing for a wider spread of disease. In the following years, a number of decisions have been developed by our government in order to ensure the food safety of people in our country, develop poultry farming, meet the demand for livestock products (meat, milk, eggs).

In particular, the decree of the president of the Republic of Uzbekistan “on the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026” No. PF-60 of January 28, 2022, PQ-4015 of November 13, 2018” additional measures for the further development of poultry farming”, PQ - 187 of March 31, 2022”measures for further improvement of the personnel system in the field

of Veterinary and livestock, The decisions of PQ-281 of June 15, 2022 “on measures to further improve the state support system for the poultry sector” and the implementation of tasks set out in other legal and regulatory documents related to this area will serve to a certain extent the research within this dissertation.

The prevalence of the disease in poultry farming, especially among chickens, is greatly detrimental to the economy of farmers who are involved in very copious poultry farming. The mortality rate of poultry infected with the above-named disease among poultry is 80-85%. A significant amount is spent on the treatment of sick poultry and measures to combat the disease. Chicks that have recovered from the disease are left behind in growth and development relative to their tengur and become carriers of this disease pathogen. No special complex methods and means have been developed for diagnostic, therapeutic and preventive measures for this disease. To apply biopreparations produced in foreign countries, it is necessary to spend a lot of time and currency.

Object and methodologies of research. The research was carried out at the Microbiology Laboratory of the Veterinary Research Institute and the Institute’s Kashkadarya Experimental Station. In some regions of the Republic, poultry farms were conducted on the basis of experiments on the detection of the prevalence and pathomorphological changes in infectious laryngotracheitis.

cheitis among chickens, as well as methods of diagnosing the disease.

In laboratory experiments, infected and undamaged adults with infectious laryngotracheitis in natural conditions were carried out in "Loman Brown classic and Loman LSL classic", as well as chickens of the local breed.

In order to study the pathomorphological changes in internal organs, changes were identified by preparing histopreparations based on general rules from them.

Results of the study. The prevalence of laryngotracheitis among poultry as well as etiological factors have been studied. To do this, an epizootic case of infectious diseases found among poultry in 5 farms of the Kashkadarya region was examined. For inspection, it was selected based on the recommendation of the veterinary service personnel of poultry factories. In factories, all poultry were subjected to a clinical examination, their patients were isolated and treated, and poultry that died or were forcibly slaughtered were subjected to pathoanatomic examinations. It became known to what extent veterinary-sanitary, feeding, preservation events were organized. Diseases were diagnosed based on the results of the examination of epizootological, clinical, pathoanatomic, bacteriological, virological IFA. Based on the results of research on poultry farms, farms, clusters, LLC and existing poultry in private entrepreneurs of the Kashkadarya region, the incidence of poultry in the regions where infectious laryngotracheitis was tested was 3-80 percent compared to the total number of 25,270 heads examined, and the mortality rate from the disease was around 37.8 percent. According to the results of the study, it was found that infectious laryngotracheitis is a common infectious disease in some regions of the region, especially among young chicks, 35-50% of which up to 10-12.5% of deaths are observed, and a timely immunofluorescence analysis of diseases has achieved a quick diagnosis (whether there is a patient or not) and the correct conduct of measures against them. Recommendations were made to the LLC for the prevention and fight against infectious laryngotracheitis and to the existing poultry and poultry farm specialists in the population. In our research work, the following clinical signs were observed in poultry infected with the infectious laryngotracheitis virus: the latent period of the disease lasted from several hours to 2 – 3 days. The disease took the form of acute, acute, semi-acute. In the acute course, the clinic of ILT was observed, mainly due

to the sudden illness of the chicks. They suddenly dormonized, and the body temperature (up to +43.5 - 44°C) rose rapidly. In poultry affected by the virus, pus flow from the nose with foamy exudate on the inner floor of the eye, deep injuries in the trachea and bronchi as well, yellow purulent exudate and blood clots on the larynx and mucous membrane were observed, and sometimes the heart rate, breathing was accelerated by the accumulation of mass in the eyeball, cornea damage, sinusitis, rhinitis, Sick Chicks were exhausted, only lying down, their beaks were dry, and blood clots were observed on the mucous membranes of the eyes. It was in a comatose state between 1-2 days, and the process was fatal. According to data, the occurrence and spread of the disease occurs in a manner related to the inconvenience of external environmental factors and the fact that hot and humid conditions provide an opportunity for constant circulation of pathogens of diseases of the upper respiratory tract in the external environment, and in most poultry farms - low sanitary conditions and other conditions [6; 17-18-b., 5; 4276-4277 P.]. In some districts of the Kashubian province, the dynamics and mortality rates of avian infective laryngotracheitis are associated with the seasonality of laryngotracheitis infection. For example: in our studies, the disease manifested itself mainly in the highest rates in April-May of spring and October-November of autumn. It was during this period that 884 heads (3.5%) of the 25,270 heads (100%) of poultry examined during the studies fell. There was an increase in incidence from April to June, a further decrease from June and a re-increase from October to November, with a 2.0-3.0 percent incidence compared to the total April – November avian population. It was recognized that this is the highest result in our research.

The co-occurrence of laryngotracheitis and colibacteriosis in the avian population was studied in the same organism and their mortality rates were determined. The highest number of deaths occurred in November-April, when the death rate for sick poultry was 56%.

Similar results have been reported in literature data of infective laryngotracheitis (ILT) virus-infected poultry with foamy exudate on the inner floor of the eye, leakage of pus from the nose, deep jarochates in the trachea and bronchi, yellow purulent exudate on the larynx and mucous membrane, as well as blood clots, and sometimes eye apples, damage to the cornea, sinusitis, rhinitis, accumulation of caseose mass in the visual sacs. Disease triggers were found in damaged cells



Diagram 1. Dynamics of damage and death of poultry with infectious laryngotracheitis

of the epithelium of the larynx, trachea, conjunctiva, lungs, cloaca, air sacs of the mucous membrane on the 1-5th day of the disease in infected poultry, as a result of which it was recorded that the disease appeared up to 100%, with a death rate of 10-30% [7; 21-31-b., 4; 173-179 P., 3; 104-109 P.].

In the first 1-5 days of Chick life, up to 62.3 percent of cases or 37.8 percent of them had deaths, while in the following days the amount of cases went to kamaya and amounted to 5.3 percent in the 22-30 days, while in 9.3 percent of them there were deaths (diagram 1).

When the age dependence of avian infection and death from laryngotracheitis was statistically analyzed, it was also statistically proven that there is an inverse, analytically expressed linear relationship ($y=a+bx$; $R>-0.86$) between them according to their orientation, higher correlation coefficient, i.e. higher incidence and mortality of chicks in the early days (days 1-5)

According to the results of our studies, it was found that on 22-30 days the incidence was 5.3 percent and the mortality rate was 9.3 percent, that is, the percentage of deaths increased by 1.75 times.

Conclusions: The prevalence of loren-gotracheitis among poultry has been studied as well as major economic damage to poultry farms, as well as the course and spread of the disease in these farms. Also in the diagnosis of the disease, great importance was attached to the epizootic State, clinical signs, pathologoanatomic and pathogistological changes in diseases. Detection of the causative agents of the disease was carried out on the basis of bacteriological and virological methods of IFT examination. As a result, in our scientific research work, it was found that the course of the disease loren-

gotrachitis is much more severe and complex in young chicks than in chickens in natural conditions.

REFERENCES

1. Fayzullayev I. A., Saparov O. J., Shodiyeva J. S. RABBIT PASTEURELLOSIS AND ITS EPIZOOTOLOGICAL ANALYSIS //World scientific research journal. – 2024. – T. 26. – №. 1. – C. 120-123.
2. Barhoom S., Dalab A. 2012. Molecular diagnosis of explosive outbreak of Infectious Laryngotracheitis (ILT) by polymerase chain reaction in // Palestine. Proc Elev Vet Sci Conf. :-P. 104–109.
3. Creelan J.L., Calvert V.M., Graham D.A., McCullough S.J. 2006. Rapid detection and characterization from field cases of infectious laryngotracheitis virus by real-time polymerase chain reaction and restriction fragment length polymorphism. // Avian Pathol. 35(2):-P.173–179.
4. Gowthaman V., Koul M., Kumar S. 2016. Avian infectious laryngotracheitis: // A neglected poultry health threat in India. Vaccine. 34(36):-P 4276–4277.
5. Rozikulov R. F., Fayzullaev I. A. CHARACTERISTICS OF THE CONSTITUTION OF ANTI-INFECTION RESISTANCE OF KORAKUL SHEEP // Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 375-380.
6. Toshmurodov D. et al. The use of Chitosan hydroxyapatite in improving the Clinico-physiological indicators of broiler chicks, as well as in increasing productivity and preservation //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 95. – C. 01030.

МАҲСУЛДОР СИГИРЛАР ГИПОКОБАЛЬТОЗНИНГ ЭТИОПАТОГЕНЕЗИ

Аннотация: Ушбу мақолада маҳсулдор сигирларда гипокобальтознинг сабаблари, клиник белгилари, патогенези ва катта қорин суюқлиги кўрсаткичларидаги ўзгаришлари баён этилган.

Аннотация: В статье описание причины, патогенеза гипокобальтоза, симптомы и изменения в рубцовом жидкости при данной патологии у продуктивных коров.

Summary: The article describes the cause, pathogenesis of hypocabolosis, symptoms and changes in the cicatricial fluid in this pathology in productive cows.

Калит сўзлар: Рацион, гипокобальтоз, микроэлементоз, остеодистрофия, паракератоз, мацион, гиподинамия, ошқозон олди бўлимлари, ацидоз, кетоз, дистониялар, инфузориялар.

Ключевые слова: Рацион, гипокобальтоз, микроэлементоз, остеодистрофия, паракератоз, мутация, гиподинамика, передний гастрит, ацидоз, кетоз, дистония, инфузория.

Мавзунинг долзарблиги. Адабиёт маълумотларининг таҳлили шуни кўрсатадики, ҳозирги кунгача Республикамиз фермер хўжалиқларига четдан келтирилган сигирларнинг мамлакатимиз иқлим шароитига мослашуви, улар орасида микроэлементозлар, жумладан гипокобальтоз касаллигининг тарқалиши, сабаблари, кечиш хусусиятлари тўлиқ ўрганилмаган. Касалликни даволаш ва олдини олишнинг самарали усуллари ишлаб чиқилмаган.

Қорамолчилик фермер хўжалиқларига четдан келтирилган ва маҳаллий зотларга мансуб сигирлар орасида гипокобальтознинг тарқалиши, иқтисодий зарари, сабаблари, уларнинг келиб чиқишида алиментар омилларнинг аҳамияти, ривожланиш механизмлари, эргачи аниқлаш усуллари ўрганиш, касалликни даволаш ва олдини олишнинг самарали усуллари ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга татбиқ этиш бугунги кунда ветеринария фани ва амалиёти олдидаги долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Кобальт углеводларнинг парчаланишини стимуллайти, фосфоглюкомутаза, енолаза ва аргиназаларни фаоллаштиради, фосфорни суякларда тўпланишини ва оксиллар алмашинувини кучайтиради. Кобальтнинг этишмовчилиги V_{12} авитаминози ва анемияга сабаб бўлади. Кобальт этишмовчилиги оқибатида суякларнинг органик ва минерал қисмларининг синтези жараёнлари издан чиқади ва хайвонларда остеодистрофия ривожланишига сабаб бўлади (Кондрахин И.П., Левченко В.И. 2005).

Микрофлораларнинг меъёрида фаолият кўсатиши учун катта қорин суюқлигида биотин,

парааминобензой кислотаси ва V_{12} витамини ҳамда 100 мг/л темир, 10 мг/л кобальт бўлиши лозим (Heimer P.J. 1996).

Рационда кобальтнинг этишмовчилиги V_{12} гиповитаминозининг ривожланиши ва анемияга сабаб бўлади, шунингдек, суякларнинг органик ва минерал қисмларининг синтези издан чиқади ва хайвонларда остеодистрофиянинг ривожланишига сабаб бўлади (Кондрахин И.П., Левченко В.И. 2005).

Соғин сигирлар рационда қанд-протеин нисбатининг бузилиши, клетчатканинг танқислиги, катта қоринда сурункали сут кислотали ацидоз кузатилиши ва руминитга сабаб бўлади. Ошқозон олди бўлимларида микрофлораларнинг миқдор ва сифат жиҳатдан ўзгариши, катта ва ўртача инфузориялар сонининг камайиши, улар фаоллигининг пасайиши, клетчатканинг гидролизланишини ва этишмовчилигини кучайтиради. Рацион таркибида концентрат озикаларнинг ортиқча бўлиши катта қорин суюқлигида рН ни ўртача $6,5 \pm 0,05$ (меъёр 6,8-7,4) бўлишини таъминлайди (N.D.Grace, D.N. Lewis, 1999).

Сигирлар рационда мис, кобальт, рух, марганец каби микроэлементлар этишмовчилигида катта қорин микрофлораларининг ривожланишдан тўхташи, кислоталикнинг ортиши, оксилларнинг тўлиқ парчаланмаслиги оқибатида ҳосил бўлган оралиқ маҳсулотлар ва аммиакнинг қонга сўрилиши, ацидоз ва сурункали интоксикацияга сабаб бўлади (И.П.Кондрахин, 1999).

Радиоактив зарарланган ҳудудларда парваришланаётган сигирларда йод, кобальт, А ва Д витаминлари етишмовчилиги белгиларидан 86,7% ҳайвонда терининг қуруқлашиши ва паракератози, 26,7% ҳайвонда энофтальм, 90% ҳайвонда конъюнктиванинг оқариши, 57,8% ҳайвонда брадикардия, 3,35% ҳайвонда қалқонсимон безнинг катгалашиши ва мексидема белгилари аниқланган. Шунингдек, 92,6% сутдан чиқарилган бўғоз сигирларда камқонлик, 93,8-100% ҳайвонларда гипокальциемия, 50-92,6 фоизда гипофосфатемия, 90% ҳайвонларда қон зардобидаги мис, кобальт ва рух миқдорларининг камайиши қайд этилган (И.П.Лигомина, 2003).

Клиник соғлом ҳайвонларда катта қорин суюқлигида рН $6,65 \pm 0,06$ ни ташкил этган бўлса, сурункали катта қорин ацидозиди пайтида $6,37 \pm 0,05$, кетозда $6,25 \pm 0,06$, иккиламчи остеодинстрофияда $6,49 \pm 0,03$, микроэлементозларда $6,30 \pm 0,09$ ни, инфузориялар сонининг клиник соғлом ҳайвонларда 595 ± 43 минг/мл ни, катта қорин ацидозидида 90 ± 56 минг/мл, кетозда 370 ± 26 минг/мл, иккиламчи остеодинстрофияда 435 ± 23 минг/мл, микроэлементозларда эса 300 ± 43 минг/мл ни ташкил этган (Хмельков Я.Т., 2006).

Тадқиқотнинг мақсади. Соғин сигирларда гипокобальтознинг тарқалиши, иқтисодий зарари, сабаблари, ривожланиш механизми, клиникаси, қоннинг морфобиокимёвий ва катта қорин суюқлиги кўрсаткичларидаги ўзгаришларни ўрганиш.

Тадқиқотлар жойи, объекти ва услубиятлари. Илмий тадқиқот ишлари Самарқанд вилояти, Паяриқ туманининг “Очилов Маҳмуджон даласи” қорамолчилик фермер хўжалиги шароитида бажарилди.

Сигирларда гипокобальтознинг тарқалиши, сабаблари, ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари, қондаги морфобиокимёвий ўзгаришлар ва катта қорин суюқлиги кўрсаткичларини ўрганиш мақсадида диспансер тадқиқотлар ўтказилиб, хўжаликдаги қора-ола зотли, 5-6 ёшли соғин сигирлардан “ўхшаш жуфтликлар” тамойили асосида эталон ҳайвонлар сифатида 10 бош ажратилди. Соғин сигирларда лактациянинг 2-, 3-, 4-, 5- ва 6- ойларида ҳар ойда бир марта клиник-гематологик текширишлар штказилди ва улардан олинган катта қорин суюқлиги айрим кўрсаткичлари бўйича текширилди.

Сигирларда умумий қабул қилинган клиник текшириш усуллари билан умумий ҳолат, иштаха,

семизлик даражаси, ташқи таъсиротларга жавоб реакцияси, шиллиқ пардалар, тери ва тери қопламаси, ҳаракат аъзоларининг ҳолати, ошқозон олди бўлимларининг 2 дақиқадаги қисқаришлари, 1 дақиқадаги юрак уриши ва нафас сони, кесувчи тишларнинг қимирлаши ва охириги дум умуртқаларининг сўрилиш даражаси ҳамда гипокобальтозга хос клиник белгиларнинг бор-йўқлиги аниқланди.

Соғин сигирлардан олинган қон намуналарида эритроцитлар сони (Горяев санок турида), гемоглобин (гемоглобин-цианидди усул), глюкоза (Орто-толуидин билан рангли реакция), қон зардобидида умумий оксил (Рефрактометриқ усул), ишқорий заҳира (И.П.Кондрахин усули), умумий кальций (В.П.Вичев, Л.В.Каракашов усули), анорганик фосфор (Пулс бўйича В.Ф.Кромыслов ва Л.А.Кудрявцева усули), қон таркибидидаги микроэлементлар миқдори (атомли-абсорбцион спектрофотометрия усулида), катта қорин суюқлигининг муҳити (РНТ-026 мулти-параметер ватер қуалийт монитор асбоби ёрдамида, катта қориндаги микрофлораларнинг фаоллиги (G. Diriksen бўйича), инфузориялар сони (Горяев санок турида), кобальт элементини (МакКлора Алдирича) усули ёрдамида аниқланди [8].

Олинган натижалар таҳлили. Хўжаликдаги сигирлар йилнинг барча фаслларида асосан бир жойда боғлаб парваришланади. Шунинг учун сигирларда пода синдроматикаси сурункали кетоз, иккиламчи остеодинстрофия, гипомикроэлементозлар, туғруқдан кейинги фалаж, йўлдошни ушланиб қолиши, алиментар анемия каби юқумсиз характердаги касалликлар кўп қайд этилиши билан тавсифланди. Шунингдек, 30% сигирларда сурункали кетоз ва иккиламчи остеодинстрофия, 12% ҳайвонларда йўлдошнинг ушланиб қолиши, мастит, эндометрит, 20% ҳайвонда туғруқдан кейинги фалаж ва туёқларнинг турли патологиялари учрайди.

Текширишлар давомида хўжаликдаги сигирларда тана ҳарорати физиологик меъёрлар чегарасида бўлсада, бир дақиқадаги юрак уриши текширишларнинг бошида ўртача $66,4 \pm 3,8$ марта, текширишларнинг охирига келиб $84,5 \pm 6,2$ мартани (меъёр бир дақиқада 50-80 марта), нафас сони шунга мос равишда $14,6 \pm 1,20$ - $26,8 \pm 1,45$ мартани (меъёр бир дақиқада 12-25 марта) ташкил этди.

Ошқозон олди бўлимларининг 2 дақиқадаги қисқаришлари сони текширишларнинг бошида ўртача $4,8 \pm 1,36$ марта бўлса (меъёр 2 дақиқада 3-5

марта), текширишларнинг охирига келиб $2,8 \pm 2,4$ мартани ташкил этди.

Соғин сигирларда ошқозон олди бўлимларининг гипотонияси кузатилишини уларни йил давомида бир жойда сақланиши, бир томонлама силос-концентрат типда озиклантириш, озикалар сифати ва тўйимлигининг пастлиги билан изоҳлаш мумкин.

Текширишлар бошида соғин сигирларда охиригидум умуртқаларининг сўрилиши, кесувчи тишларнинг қимирлаши кучсиз даражада кузатилган бўлса, лактация давомида бу белгиларнинг кучайиб бориши характерли бўлди. Текширишлар бошида 40-50 фоиз сигирларда иштаҳанинг ўзгариши (лизуха), 60,0 фоизида шиллик пардаларнинг оқариши қайд этилди. Лактациянинг бешинчи ойига келиб, бу кўрсаткичлар шунга мос равишда 60,0 ва 80,0 фоизни ташкил этди. Шунингдек, деярли барча сигирларда иштаҳанинг ўзгариши (лизуха), ташки таъсиротларга бефарқлик, юрак уриши ва нафас сонининг тезлашиши, шиллик пардаларнинг оқариши, кўздан ёш оқиши, оғиздан сўлак оқишининг кучайиши, кўз атрофида ва тананинг айрим жойларида жунларнинг тушиши, тери қопламаси ва туёқлар ялтироқлигининг пасайиши каби гипокобальтозга хос белгилар қайд этилди.

Соғин сигирлар қонидаги эритроцитлар сони текширишлар бошида, ўртача $5,18 \pm 0,08$ млн/мкл ни (меъёр $5,0-7,5$ млн/мкл) ташкил этган бўлса, текширишларнинг охирига келиб, ўртача $4,68 \pm 0,06$ млн/мкл гача, гемоглобин концентрациясининг $110,6 \pm 4,6$ г/л дан $86,4 \pm 5,7$ г/л гача камайиши (меъёр $99-129$ г/л) кузатилди ($P < 0,05$).

Диспансер текширишлар бошида соғин сигирлар қонидаги глюкозанинг концентрацияси меъёрий кўрсаткичлардан анча кам эканлиги қайд этилиб, ўртача (меъёр $2,22-2,33$ ммоль/л) $2,19 \pm 0,24$ ммоль/л ни ташкил этди. Лактация давомида бу кўрсаткич камайиб бориб, текширишлар охирида ўртача $2,12 \pm 0,06$ ммоль/л ни ташкил этди. Қондаги глюкоза миқдорининг текширишлар давомида камайиб боришини сут бериш даврида сигирларнинг энергияга нисбатан эҳтиёжларини қондирилиш даражасининг пастлиги билан изоҳлаш мумкин.

Соғин сигирларда қон зардобадаги умумий оксил миқдори текширишларнинг бошида ўртача $83,6 \pm 6,3$ г/л ни ташкил этиб, текширишларнинг охирига келиб ўртача $64,8 \pm 5,2$ г/л ни ташкил этди. Сигирлар қон зардобадаги ишқорий заҳира миқдори меъёр-

даги (меъёр $46-66$ ҳажм% CO_2) кўрсаткичлардан анча кам бўлиб, текширишларнинг бошида ўртача $48,5 \pm 2,02$ ҳажм% CO_2 ни ташкил этган бўлса, текширишларнинг охирига келиб, ўртача $38,4 \pm 2,26$ ҳажм% CO_2 гача камайиши қайд этилди. Қондаги ишқорий моддалар заҳирасининг камайиши соғин сигирлар организмда муҳитнинг кислоталик томонга ўзгариши, яъни ацидоз ҳолатининг кучайишидан далолат беради ($P < 0,05$).

Соғин сигирларда лактация давомида қондаги умумий кальций ва аорганик фосфор миқдорларининг камайиб бориши характерли бўлди. Текширишлар бошида қон зардобадаги умумий кальций ўртача $2,26 \pm 0,34$ ммоль/л (меъёр $2,5-3,13$ ммоль/л) ни ташкил этган бўлса, текширишларнинг охирига келиб, $2,16 \pm 0,26$ ммоль/л гача камайиши кузатилди. Аорганик фосфор шунга мос равишда ўртача $1,56 \pm 0,52$ ва $1,18 \pm 0,34$ ммоль/л ни ($P < 0,05$) ташкил этди. Бундай ҳолатни хўжаликдаги сигирлар рационда кальцийнинг ортиқча бўлишига қарамадан микроэлементлар етишмовчилиги ва катта қоринда муҳитнинг кислоталик томонга ўзгариши туфайли кальцийни сўрилишининг ёмонлашиши билан изоҳлаш мумкин.

Текширишларнинг бошида сигирлар қонидаги миснинг миқдори ўртача $10,6 \pm 0,22$ мкмоль/л ни ташкил этиб, текширишларнинг охирига келиб ўртача $9,06 \pm 0,32$ мкмоль/л га камайиши, кобальт миқдори шунга мос равишда $0,34 \pm 0,02$ мкмоль/л дан $0,19 \pm 0,06$ мкмоль/л га, марганец $2,34 \pm 0,4$ мкмоль/л дан $2,18 \pm 0,3$ мкмоль/л га ва рух $36,6 \pm 4,0$ мкмоль/л дан $19,8 \pm 4,7$ мкмоль/л гача камайиши кузатилди ($P < 0,05$).

Соғин сигирларда гематологик текширишлар ўтказиш билан шундай ҳулосага келдикки, уларда гипокобальтоз қондаги эритроцитлар сони, гемоглобин, глюкоза, ишқорий заҳира, умумий кальций, аорганик фосфор, кобальт, шунингдек, мис, марганец, рух каби микроэлементлар миқдорининг камайиши билан кечади.

Катта қорин суюқлигининг муҳити (рН) текширишлар бошида физиологик меъёрларнинг пастки чегарасида бўлиб, ўртача $6,50 \pm 0,09$ ни (меъёр рН- $6,5-7,5$) ташкил этди, бу кўрсаткични лактация давомида кислоталик томонга ошиб бориши ва текширишларнинг охирига келиб, ўртача $5,86 \pm 0,04$ гача камайиб бориши ($P < 0,001$) характерли бўлди.

Катта қорин суюқлигидаги инфузориялар сони текширишларнинг бошида ўртача $578,2 \pm 54,2$ минг/мл ни ташкил этган бўлса, текширишларнинг охирига келиб, ўртача $346,8 \pm 28,7$ минг/мл гача ($P < 0,01$) камайиши кузатилди. Шунингдек, текширишларнинг охирига келиб микроорганизмлар фаоллигининг сусайиши қайд этилди. Бу кўрсаткичлар микрофлоралар томонидан кобальтни ўзлаштирилишини ёмонлашишига шароит яратилишидан далолат беради.

Хулосалар. 1. Сигирларда гипокобальтоз муркаб патология тарзида кузатилиб, иштаҳанинг ўзгариши (лизуха), ташқи таъсиротларга бефарқлик, юрак уриши ва нафас сонининг тезлашиши, шиллиқ пардаларнинг оқариши, ошқозон олди бўлимларининг гипотонияси, кўз атрофида ва тананинг айрим жойларида жунларнинг тушиши ва ялтироқлигининг пасайиши, кўздан ёш оқиши каби патогномоник белгилар ва кесувчи тишларнинг кимираши, охириги дум умуртқаларининг сўрилиши каби микроэлементозларга хос умумий клиник белгилар билан кечади.

2. Соғин сигирларда гипокобальтоз қондаги эритроцитлар сонининг ўртача $4,68 \pm 0,06$ млн/мкл, гемоглобин миқдори $86,4 \pm 5,7$ г/л (анемия), глюкозани $2,12 \pm 0,06$ ммоль/л (гипогликемия), ишқорий захирани $38,4 \pm 2,26$ ҳажм% CO_2 гача, умумий каль-

ций ва аорганик фосфор миқдори $2,16 \pm 0,26$ ва $1,18 \pm 0,34$ ммоль/л гача, кобальт, мис, марганец ва рух миқдори шунга мос равишда $0,19 \pm 0,06$; $9,06 \pm 0,32$; $2,18 \pm 0,3$; $19,8 \pm 4,7$ мкмоль/л гача камайиши билан характерланади.

3. Соғин сигирларда гипокобальтоз катта қорин суюқлигида рН кўрсаткичини $5,86 \pm 0,04$ га (ацидоз), инфузориялар сонини $346,8 \pm 28,7$ минг/мл гача камайиши ва фаоллигининг сусайиши билан тавсифланади.

4. Маҳсулдор сигирларда кобальт микроэлементининг этишмовчилиги модда алмашинув даражасига, тана вазнининг камайишиб иштаҳанинг ўзгариши, катта қорин деворининг гипотонияси, гиподинамия, шиллиқ пардаларнинг оқариши ва кўздан ёш оқиш билан тавсифланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Лигомина И.П. Состояние минерального обмена и природной резистентности коров и их коррекция в хозяйствах житомирского полесья: Автореф. дис. ... канд. вет. наук. - Белая Церковь: 2003. - 17 с.
2. Методы ветеринарной клинической лабораторной диагностики: Справочник/ под ред. проф. И.П.Кондрахина. М.: Колос, 2004. - С. 520.
3. Хмельков Я.Т. Этиологическая структура, патогенез и лечение вторичных застойных дистонией преджелудков у коров: Автореф. дис....канд. вет. наук. - Белгород: 2006. - С. 16-17.
4. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. М.: Изд. ООО «Аквариум-Принт», 2005. - С. 652-664.
5. Grace N.D., Lewis D.N. An. Evaluation of the efficacy of injectable microencapsulated vitamin B₁₂ in increasing and maintaining the serum and liver vitamin B₁₂ concentration of lambs // N.Z. veter j. - 1999.- Vol. 4, №1. - P. 3-7.
6. Heimer P.J. Thy donts ruminal bacteria digest cellulose faster / P.J.Heimer// J.Dairy sci. 1996.-Volj. 79. - №8. - P. 1496-1502.
7. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocobaltosis in productive cows. *Academia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.



AZOLLA CAROLINIANA BILAN OQAVA SUVLARNI TOZALASH BIOTEXNOLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida *Azolla caroliniana* ta'siri ostida parrandachilik korxonalarining oqava suvlarini biologik tozalash maqsadida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tasvirlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, azolla parrandachilik korxonalarining oqava suvlarida o'stirilganda, u 1 m² suv yuzasida 100-150 dan 403-750 g gacha biomassani to'playdi va organo-mineral moddalardan oqava suvlarni tozalash darajasi 88-92% ga etadi.

Kalit so'zlar: azolla, oqava suvlari, biofiltr; biologik usul, eichornia, Pistia, biomassa, rivojlanish dinamikasi.

Suv inson hayoti jarayonida birinchi zaruriy narsalardan biri bo'lib, uni iste'mol qilishdan tashqari, suvda zarur oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash ham tozalash va sanitariyada muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, suv o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi.

Bugungi kunda suv dunyodagi eng kam resurslardan biri bo'lib, uning kamayishi nafaqat suv resurslarining taqsimlanishi, balki foydalanilayotgan suvning ifloslanishi va samarali tozalanishining yo'qligi bilan bog'liq.

Yangi zamonaviy suv tozalash inshootlari barpo etilganiga qaramay, bir qator joylarda sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi korxonalari va aholi turar-joylaridagi barcha turdagi oqava suvlar tozalanmasdan daryolarga, suvlari sayoz bo'lgan tabiiy va sun'iy suv havzalariga oqizilmoqda. Bu ifloslangan oqava suvlar miqdorining oshishiga olib keladi. Bunday suvlar ko'plab zararli moddalar va patogen bakteriyalarni o'z ichiga oladi va aholi salomatligi uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

Eng achinarlisi shundaki, bunday chiqindi suvlar yildan-yilga ko'payib bormoqda, bundan tashqari, bunday chiqindi suvlar atrof-muhitni ifloslantirib, isrof bo'lmoqda.

Oddiy, arzon, qulay, ekologik toza biologik usullardan foydalangan holda oqava suvlarni tozalashni ta'komillashtirish, shuningdek, bunday suvlardan samarali foydalanish tizimini yaratish va joriy etish hozirgi zamonning dolzarb vazifalaridan biridir. Samarqand viloyatida ham bu borada muammolar mavjud. Shundan kelib chiqib, parrandachilik korxonalarining oqava suvlarini yuqori o'simliklar ta'sirida biologik tozalash, tozalangan suvdan qayta foydalanish, parrandachilikda o'simlik biomassasidan ozuqa sifatida foydalanish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Oqava suvlarni biologik tozalashda O'zbekiston sharoitiga moslashgan yuksak suv o'simliklari, ya'ni yaqqol biofiltratsiya xususiyatiga ega bo'lgan pistiya (*Pistia stratiotes*), ryaska (*lemna minor*), eyxorniya (*Eichhornia crassipes*) va *Azolla caroliniana*dan foydalanish mumkin. Olimlar ushbu o'simliklar turli ishlab chiqarish korxonalari, sanoat, shahar va qishloq xo'jaligi korxonalarining oqava suvlarini tozalashini bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'rsatib o'tganlaqr [5, p. 305-307].

Samarqand viloyati sharoitida ilmiy izlanishlar olib borish uchun turli iqlim sharoitlariga tez moslashishi, sho'rlanishga nisbatan chidamliligi, qisqa vaqt ichida tez ko'payishi va eng muhimi oqava suvlarning yuqori ko'rsatkichlar bilan tozalashga qodir bo'lgan *Azolla* o'simligi (*Azolla caroliniana*)dan foydalandik.

Materiallar va usullar. Tajribalar *Azolla* o'simligi (*Azolla caroliniana*) bilan o'tkazildi, u tez ko'payish bilan birga yuqori biofiltratsiya va ozuqaviy xususiyatlarga ega, suvni kislorod va azot bilan boyitadi [5, 6, 7].

Tajribalar Biotexnologiya kafelrasining laboratoriyasida kvadrat shaklidagi plastik akvariumlar va sun'iy ravishda tayyorlangan biologik hovuzlarda o'tkazildi. Tadqiqot ishlarimizni olib borishda Taubaev T.T., Kantanskaya V.M. va I. N. Beidemanning tavsiyalaridan foydalandik [3,5,7].

Azollaning oqava suvlarda o'sishi va rivojlanishi natijasida hosil bo'lgan biomassani tarozida o'lchash yo'li bilan aniqlandi. Yu.S.Strogonovlarning umumiy gidrokimyoviy usullari asosida oqava suvlarning fizik-kimyoviy tarkibi, ekishdan oldingi va keyingi tarkibi aniqlandi.

Tajribalar laboratoriya sharoitida 3 xil variantda (1. Suyultirilmagan oqava suv; 2. Chiqindi suv 75% + 25% musluk suvi; 3. Oqava suv 50% + 50% vodoprovod suvi) o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Azolla Shimoliy Amerika, G'arbiy va Markaziy Yevropa, Janubiy Amerika va Galapagos orollari suvlarida tabiiy sharoitda yaxshi o'sadi va O'zbekiston sharoitiga moslashgan [7].

Bu o'simlik asosan ifloslangan suvlarni biologik tozalash va ozuqa sifatida foydalanish maqsadida ko'paytiriladi [2,3,4].

Karolina azollasi 0,7-1,8 sm li mayda, suv yuzasida suzib o'suvchi o'simlikdir. O'zbekiston sharoitida ham suv havzalarida o'sib, ko'payish xususiyatlarini namoyon qiladi. Natijada suv yuzasini qoplab olib, suv havzalariga yorug'lik tushirmay qo'yadi. O'ziga mos ekologik sharoitda azolla tez va jadal vegetativ ko'payishga o'tadi. Karolina azollasi sporafiti shohlangan suzuvchi 25 mm uzunlikdagi ildizchadan iborat. Uning yuqori qismida ikki qator bo'lib, mayda (0,5-1mm) bargcha, go'yo cherepitsa kabi shoxchani qoplab olgan bo'ladi. Shoxchalarning ayrim bo'g'inlaridan suvda uzun osilib turuvchi ildizchalar ko'rinib turadi. O'zbekiston sharoitida Karolina azollasi asosan vegetativ yo'l bilan ko'payadi.

Parrandachilik xo'jaliklarining oqava suvlarida Azolla o'simligining o'sishi, rivojlanishi va ko'payishi 8 kun davomida aniqlandi. Tajribalar davomida qayd etildiki, birinchi variantda oqava suv yuzasida 755 g biomassa, ikkinchi variantda 25% li suyultirilgan oqava suvda 608 g biomassa, uchinchi variantda esa 50 % suyultirilgan oqava suvda 403 g biomassa hosil bo'ldi.

Parrandachilik fermasi oqava suvlarining fizik-kimyoviy tarkibi Azolla karolinani ekishdan oldin aniqlandi.



1-rasm. Azolla caroliniananing ko'rinishi

Oqava suvning parametrlari quyidagicha edi: harorat 29 °C, muhit pH - 6,3, rangi sariq, hidi - 5 ball, erig-

an kislorod yo'q. Kislorodning biokimyoviy sarfi 166,5 mg O₂/l, oksidlanish darajasi 179,5 mg O₂/l, ammiak - 8,7 mg/l, nitritlar - 0,09 mg/l, nitratlar - 7,5 mg/l, xloridlar - 95,0 mg/l, sulfatlar - 105,5 mg/l 5 mg/l. /l va qattiq moddalar 55,4 mg/l. Suyultirilgan oqava suv variantlarida yuqoridagi ko'rsatkichlar yig'indisi suyultirish darajasiga qarab kamaydi.

Parrandachilik fermasining oqava suvlariga azolla ekilganining 8-kuni, suv tarkibidagi o'zgarishlar qayd etildi.

Xulosa. Natijalarni baholashda 1 m² parrandachilik korxonalarining oqava suvlarida azolla etishtirishda suv yuzasida 100-150 dan 403-750 g gacha biomassa to'planganligi va oqava suvlarni organo-minerallardan tozalash darajasi 88-92% ga etganligi aniqlandi.

Bu shuni ko'rsatadiki, azolla o'simligi (Azolla caroliniana) ta'sirida oqava suvlarni tozalash biotexnologiyasi O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan boshqa kimyoviy va biologik texnologiyalardan afzalroqdir, chunki u oddiy, qulay, arzon, tejamkor va eng ekologik toza. Shu bilan birga, oqava suvlarda o'sadigan azolla biomassasidan baliq va parrandachilikda bioqo'shimcha sifatida foydalanish natijasida ozuqaning 25-30 foizini tejash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Досметов А.Т. Каролина азолласининг мавсумий ўсиши ва кўпайиш динамикаси // Ўзб. биол. журн. 2002 б., № 4. 48-52 б.
2. Досметов А.Т. Каролина азолласи-озикабоп ва оксил витаминли ўсимлик//ГулДУ ахборотномаси.2002в.,№4. 17-20 б.
3. Раимбеков К. Т. Биологическая очистка сточных вод животноводческих комплексов с использованием высших водных растений// Химия и биология. Международный научный журнал № 3 (33)
4. Шоякубов Р.Ш., Досметов А.Т. О распространении азоллы каролинской в водоемах Узбекистана // Узб. биол. журн. 2001, №5-6.С.46-52.
5. Ходжаева Н.Ж., Жўрабоева Д.Н., Мустафакулова Ф. Ўзбекистон шароитида янги бўлган Азолла каролинанинг биоэкологик хусусиятлари// Тенденции развития ветеринарной паразитологии на пространстве СНГ и других стран в начале XXI века 28-30 апреля 2021 года.
6. Lumpkin T.A., Plucknett D.L. Azolla as a green manure use and management in crop production // Boulder (Col.):Westview press, (Westview Trop.Agr.Ser.;№5) . 1982.130 p.
7. Шоякубов Р. Ш., Муминова Р. Н., Хасанов О. Х., Абдуллаев А. А. Доочистка сточных вод гидролизных производств путем культивирования азоллы каролинской (AZOLLA CAROLINIANA WILLD.,СЕМ. AZOLLACEAE) // Развитие ботанической науки в центральной Азии и её интеграция в производство. – Ташкент, 2004. – С. 305-307.

PRODUCTIVITY AND PHYSIOLOGICAL INDICATORS OF KARAKOL SHEEP

Annotation: this article describes the analysis of scientific sources on productivity and physiological indicators of the Karakol sheep.

Summary: This article describes the analysis of scientific sources on productivity and physiological indicators of Karakol sheep.

Keywords: scabies, breed, scabies, proteins, parenchymatosis, dystrophy, atrophy, protein biocenosis, enzymes, polymers, chitin, chitosan.

Introduction: on the basis of further development of the karakul sector in our country and strengthening its economic stagnation, increasing the level of employment of the population and the income of families on the basis of increasing the production of livestock products is envisaged.

According to the decree of the president of the Republic of Uzbekistan dated March 16, 2017 PQ-2841 “on additional measures to deepen economic reforms in livestock”, many practical works and tasks were set in order to further deepen structural changes in agriculture, ensure the priority importance and place of private property in livestock, effective use of pastures, increase the production volumes of livestock

The decision of the president of the Republic of Uzbekistan on August 16, 2019 “on measures for the complex development of the karakul culture network” PQ-4420 and the decision of the president of the Republic of Uzbekistan on February 10, 2021 “on additional measures for the further development of the karakul culture network” PQ-4984 set out specific measures for the implementation of further development of the karakul culture sector [1].

To date, the improvement of the created factory types of Karakul Sheep in full compliance with the technology of conducting selectionist – breeding work in karakul culture requires strengthening in qualitative terms of the breed at the expense of the creation of new types. The potential to increase the productivity of the karakul breed in terms of color and flower forms is very high, and the most productive use of this potential can be achieved by applying selective – genetically effective methods [3].

The Karakul Sheep is a breed that is well adapted to desert-steppe pastures. These sheep feed on dry cartilage for 9-10 months of the year. To meet its extensibility, sheep cover 10-15 km of grazing distance every day. Scientists believe that it is this condition that leads to the appearance of flowers of different shapes in blackcurrant lambs. It is known from many years of experience that if a scarecrow sheep is fed blue food before lamination, the wool cover of the Scarecrow skins will be good that year and the quality of the Scarecrow will be low. Conversely, when sheep feed on dry food even during the lambing season, the quality of the scaly skin is high. The Karakol sheep cannot get enough food for themselves from the pasture even in seasons in all years. This is due to the low amount of precipitation in the steppe pastures of Uzbekistan.

In some years, the growing season of meadow grasses is short, remains 1-1.5 months, and the grass dries quickly in a scorching climate. Among the herders, there is a saying: a sheep has five mouths, eating grass with one mouth, and with four hooves it grinds dry cartilage and clogs it into the soil. They are forced to change places 3-4 times throughout the year. The conditions of pastures deteriorate due to the dry arrival of the year, low precipitation in the spring. There will not be enough reserves for mating sheep. Therefore, the creation of a reserve of food for the wintering season has a special purpose. [8,9,10]

In order to develop karakul farming livestock, breeding breeding of breeds that are obtained from competitive products in the world markets, providing only high yields, is effective. Therefore, due to the rational use of natural pastures and additional feeding, opportunities

are created to increase meat productivity in karakulk. In this case, it is good to use the biological potential of animals being raised for meat production in order to increase meat production in desert areas. Providing and supplying the population with quality meat products is one of the pressing problems of today.

In blackcurrant, mainly meat products are obtained as follows. That is; barra meat obtained by slaughtering lambs of 1-3 days old for Karakol skins, lamb meat from birth to 4-4.5 months old is referred to as shirboz meat, and one – year-old as thin meat. Those over one year old are mutton. [11,12]

The physiological state of animals depends on various environmental factors, which include all climatic factors that affect the viability, behavior and productivity of animals, the air environment, the amount, composition and quality of soil, nutrient mixtures and water, methods of feeding and watering animals, the technology of their storage, etc. In particular, adaptations occur as a result of environmental factors affecting the young organism [2,8]

The activity of biochemical processes is considered important in the growth and reproduction of animals and performs the necessary functions in the tissues and organs of all growing organisms. During the growth processes of the larval lambs, the exchange of substances takes place in different activities. The reduction of protein substances in the blood from the age of 2 months of the Karakol lambs has been cited in the studies of many scientists. To prevent lambs isolated from their mothers from lagging behind growth and development, they are placed in pastures where barra-ephemeral grasses are preserved and fed daily with an additional amount of 100-150 g of fodder [2,3].

The fact that the dynamic state of proteins in the blood is in equilibrium depends primarily on the specificity characteristics, nutrition and metabolism of individual fractions of protein concentration. Due to the use of muscle protein for the body's needs, their atrophy, the accumulation of intermediate products, ketogenic amino acids in the body, as well as fatty, protein, amyloid dystrophy in parenchymatosis and other organs, cause the body to lose track of vital functions. As a result, animals lag behind growth, development [4].

The question of protein biosynthesis management is one of the important problems of modern biochemistry and Molecular Biology. In living cells, the amount of various proteins and enzymes is present in

the optimal ratio between them. This ratio is due to the control of protein biosynthesis. Living organism cells have the ability to synthesize a large number of different proteins. But they do not synthesize all proteins. The amount of proteins is associated with the degree of their participation in metabolism. Control of protein synthesis is based on the study of enzyme induction in bacterial cells [5].

Chitosan is a natural polymer of the XXI century. The peculiarities of chitin and chitosan attract the attention of many specialists of various specialties. The role of polymers in our lives is universally recognized, which can be used in everyday life, Industrial Production, Science, Medicine, culture [6].

Conclusion: the analysis of literature data has shown that the specificity and physiological state of the Karakol sheep depends on various environmental factors, which affect the viability, behavior and productivity of animals. Together with this, it is important for the activity of biochemical processes in the growth and reproduction of animals, the management of protein biosynthesis and performs the necessary functions in the tissues and organs of all growing organisms

Literature

1. Fayzullayev I. A., Saparov O. J., Shodiyeva J. S. RABBIT PASTEURELLOSIS AND ITS EPIZOOTOLOGICAL ANALYSIS //World scientific research journal. – 2024. – T. 26. – №. 1. – C. 120-123.
2. Rozikulov R. F., Fayzullaev I. A. CHARACTERISTICS OF THE CONSTITUTION OF ANTI-INFECTION RESISTANCE OF KORAKUL SHEEP //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 375-380.
3. Toshmurodov D. et al. The use of Chitosan hydroxyapatite in improving the Clinico-physiological indicators of broiler chicks, as well as in increasing productivity and preservation //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 95. – C. 01030.
4. Fayzullayev I. A., Murodov X. U. SEASONAL AND AGE-RELATED DYNAMICS OF INFECTIOUS LARYNGOTRACHEITIS IN POULTRY FARMS //SCHOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 33. – C. 105-111.
5. Aliboyevich N. A., Alisherovich F. I. Change of Biochemical Indicators of the Blood of Goats during Throat //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 328-331.

UDK :636.032/.038:591.2

Avazov O.S., tayanch doktorant, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali,

Aliyev D.D., ilmiy rahbar, b.f.d., Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,

Anvarjonov S.B., iqtidorli talaba Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

TUG‘ULGAN VAQTDAGI TANA VAZNINING QORAKO‘L QO‘ZILARI O‘SISH DINAMIKASIGA TA‘SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tug‘ulgan vaqtdagi tana vaznining qorako‘l qo‘zilari o‘shish dinamikasi va gemotologik ko‘rsatgichlariga ta‘sirini o‘rganish maqsadida tadqiqotlar o‘tkazilgan va olingan natijalari bayon qilingan.

Summary: In this article, the results of studies conducted to study the influence of body weight at birth on growth dynamics and hematological indicators of Karakol lambs are described.

Kalit so‘zlar: Qorako‘lchilik, zot, qorako‘l teri, oqsillar, biopolimerlar, xitin, xitozan, zavod tiplari, oqsil, metabolizm, immunomodulyator, eritrotsit, leykotsit, glyukoza, immunogenez, stimulyator.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi PQ-2841-sonli “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish, chorvachilikda xususiy mulkning ustuvor ahamiyati va o‘rnini ta‘minlash, yaylovlardan samarali foydalanish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish va raqobatdoshligini oshirish maqsadida ko‘plab amaliy ishlar va vazifalar belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 avgustdagi “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4420-sonli Qarori hamda 2021 yil 10 fevraldagi “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4984 sonli Qarorida qorako‘lchilik sohasini yanada rivojlantirishni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan [1].

Hayvonlarning o‘shish va rivojlanishida biokimyoviy jarayonlarning faolligi muhim hisoblanadi hamda barcha o‘suvschi organizm to‘qima va organlarida kerakli vazifalarni bajaradi. Qorako‘l qo‘zilari o‘shish jarayonlarida moddalar almashinuvi har xil faollikda kechadi. Qorako‘l qo‘zilarining 2 oylikdan boshlab qondagi oqsil moddalarining kamayishi ko‘plab olimlarning tadqiqotlarida keltirib o‘tilgan. Onalaridan ajratilgan qo‘zilar o‘shish va rivojlanishdan ortda qolmasligi uchun ularni barra-efemer o‘tlar saqlanib qolgan yaylovlarga joy-

lashtiriladi va har kuni 100-150 g miqdorida qo‘shimcha omuxta yem bilan oziqlantirib boriladi [2,3].

Qon tarkibidagi oqsillar dinamik holatining muvozanatda bo‘lishi birinchi navbatda oqsillar konsentratsiyasining alohida fraksiyalarining o‘ziga xoslik xususiyatlariga, oziqlanishiga va moddalar almashinuvlariga bog‘liq. Organizm ehtiyojlari uchun muskullar oqsilining ishlatilishi oqibatida ularning atrofiyasi, organizmda oraliq mahsulotlarning, ketogen aminokislotalarning to‘planib qolishi, hamda parenxamatoz va boshqa a‘zolarida yog‘li, oqsilli, amiloidli distrofiya, organizmning hayotiy muhim funktsiyalarini izdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Natijada hayvonlar o‘shish, rivojlanishdan ortda qoladi [4].

Qorako‘l qo‘zilarining tirik vazni ularning yashovchanligiga chambarchas bog‘liqdir. Tug‘ulganda tirik vazni 3 kg bo‘lgan urg‘ochi qo‘zilarning yashovchanligi ancha yuqori bo‘lgan. Ular sut emadigan davrda yaxshi rivojlangan va garmonik tuzulgan gavdali qo‘zilar yetilgan. Bunday hayvonlar 1,5 yoshligida normal rivojlangan holatda kelgan va tirik vazni yuqori bo‘lgan, yoppasiga kuyka boshlagan, qish davridagi noqulay boqish va asrash sharoitiga yaxshi bardosh bergan. [5,6,8].

Tug‘ulganda vazni 3 kgdan kam bo‘lgan urg‘ochi qo‘zilarning yashash qobiliyati pastroq bo‘lib chiqdi. Ularning ko‘pchilik qismi sut emadigan davrdayoq nobut bo‘lib ketgan, tirik qolganlari esa yomon o‘sgan va yaxshi rivojlanmagan. Ular yozgi issiqdan va qishki noqulay ob-havoda, ayniqsa qishning ikkinchi yar-

Tajribadagi qo‘zilar tana vaznining o‘shish dinamikasi

Tana vaznini aniqlash vaqtlari	Guruhlar	
	I-guruh tirik vazni, kg	II-guruh tirik vazni, kg
Tug‘ilganda	2,85±0,83	3,92±0,14
1 oylikda	7,92±0,25	9,7±0,56
2 oylikda	16,5±0,46	19,2±0,07
3 oylikda	20,3±0,33	21,4±0,09
4 oylikda	22,1±0,67	24,9±0,08

midan boshlab, yaylovlardagi o‘tlarning to‘yimliliği pasaygan, ob-havo yomonlashgan va yog‘inlar yog‘a boshlagan davrda qattiq qiynalgan. Bir yarim yoshligida ularda chala rivojlanganlik belgilari sezilib turgan.

Ular qo‘shimcha em- xashakdan semirib va bir vaqtda kuyikmas edi. Zot ichida ushoq, infantil hayvonlar ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun faqat yaxshi rivojlangan, kelishgan jussali, yangi tug‘ulgan paytda tirik vazni kamida 3 kg bo‘lgan qo‘zilarni nasl uchun qoldirish, maydaroq qo‘zilarni esa qorako‘l teri olish uchun so‘yishga jo‘natish maqsadga muvofiqdir [5,9].

Ishning maqsadi – qorako‘l qo‘zilarining tana vaznining o‘shish dinamikasi va gemotologik ko‘rsatkichlarini tug‘ulgan vaqtdagi tana vazniga bog‘liqligini o‘rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanidagi cho‘l-dasht hududida joylashgan qorako‘lchilik xo‘jaliklarida boqilayotgan qorako‘l qo‘zilarida o‘tkazildi. Buning uchun ikkinchi tug‘ishdagi sovuqlardan olingan 20 bosh qorako‘l qo‘zilari “o‘xshash juftliklar” asosida tanlab olindi. Qo‘zilar 2 guruhga tug‘ilgan vaqtdagi tana vaznidan kelib chiqqan holda, har bir guruhda 10 boshdan bo‘lib tajribalar o‘tkazildi.


Birinchi tajriba guruhiga qo‘zilar tug‘ulgandagi tana vazni 3 kgdan past bo‘lgan va ikkinchi tajriba guruhi qo‘zilariga tug‘ulgandagi tana vazni 3 kgdan yuqori bo‘lgan qo‘zilar tanlab olindi.

Tajriba davomida qo‘zilarning tana vazni elektron tarozida, qon ko‘rsatkichlari BIOBASE BK6190 gematologik analizatori yordamida hamda Goryayev sanoq to‘ri va Salli gemometrlari yordamida aniqlandi.

Natijalar va ularning tahlili. Tajribadagi qo‘zilar tana vaznining o‘shish dinamikasi tug‘ulganda, 1, 2, 3 va 4 oylik yoshida tirik vazni tekshirildi va olingan natijalar taxlili shuni ko‘rsatadiki 1 va 2-tajriba guruhlar-

idagi qo‘zilar tana vaznining o‘shish ko‘rsatkichlarida o‘zaro farq borligi kuzatildi.

Tug‘ilganda tana vazni 3 kgdan past bo‘lgan qo‘zilarni tana vazni tajribaning barcha bosqichlarida tana vazni tug‘ulganda 3 kgdan yuqori bo‘lgan qo‘zilarga nisbatan past ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Qo‘zilarning yoshi 4 oylikga yetganida 1-tajriba guruhidagi qo‘zilarga nisbatan 2-tajriba guruhidagi qo‘zilarning tirik vazni 2,8 kg yuqori bo‘lganligi aniqlandi. (1-jadval).



1-diagramma. Tajribadagi qo‘zilarning davrlar bo‘yicha o‘shish ko‘rsatkichlari, kg

Hozirgi kunga kelib qorako‘lchilikda seleksion – naslchilik ishlari yuritish texnologiyasini to‘la amal qilgan holda qorako‘l qo‘ylarining yaratilgan zavod tiplarini takomillashtirish, yangi tiplarni yaratish hisobiga zotning sifatijihatidan mustahkamlashni talab qiladi. Qorako‘l zotining mahsuldorligini rang va gul shakllari bo‘yicha oshirish salohiyati juda yuqori bo‘lib, ushbu salohiyatdan unumli foydalanishga seleksion – genetik samarali usullarni qo‘llash yo‘li bilan erishish mumkin [7].

Organizmida qonning muhim ahamiyati, hayvonlar qoni tarkibidagi morfologik ko‘rsatkichlar va oqsillar konsentratsiyasini o‘rganish zarur. Oqsil to‘qima va organlarda muhim qurilish materiali bo‘lib, organizm-

Qorako'l qo'zilarining gematologik ko'rsatkichlari

Qon ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	2 oylik yoshda		4 oylik yoshda	
		I-guruh	II-guruh	I-guruh	II-guruh
AsaT,	mk/mol	40,23±9,5	42,75±10,2	41,4±9,7	43,4±10,9
Umumiy oqsil	g/l	65,3±2,9	70,8±2,1	65,9±2,3	72,5±3,2
Eritrotsit	mln	8,49±5,7	9,74±7,8	8,20±4,5	10,48±9,5
Leykotsit	ming	7,46±1,2	7,21±0,24	7,81±0,65	7,24±0,86
Gemoglobin	g/l	9,69±2,75	11,4±3,02	10,72±2,36	11,82±2,4

da immunobiologik, katalizatorlik, transportlik, regulyatorlik vazifalari qon orqali amalga oshiriladi. Shu sababli tajribadagi qo'zilarining gematologik ko'rsatkichlari 2 va 4 oylik yoshida tekshirildi.

Tajriba davomida qorako'l qo'zilarining ikki oylik yosh davrida gematologik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda birinchi tajriba guruhiga nisbatan ikkinchi tajriba guruhidagi qo'zilar qon tarkibida AsaT 6,26 %, umumiy oqsil 8,4 %, eritrotsit 14,7 %, gemoglobin 17,6 % ga ko'pligi va leykotsitlar miqdori 3,3 % ga kamligi, to'rt oylik yosh davrida qon tarkibida AsaT 4,6 %, umumiy oqsil 10,01 %, eritrotsit 27,8 %, gemoglobin 10,26 % ga ko'pligi va leykotsitlar miqdori 7,87 % ga kamligi aniqlandi.

Xulosa: Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki tug'ulgan vaqtda tirik vazni 3 kg dan yuqori bo'lgan qo'zilarining gematologik ko'rsatkichlari tug'ulganda tirik vazni 3 kg dan past bo'lgan qo'zilar o'rtasida o'zaro farq borligi aniqlandi va bu ko'rsatkichlar qo'zilarining 1, 2, 3 va 4 oylik yosh davrlarida tirik vaznining o'sish dinamikasiga ta'sir ko'rsatib, birinchi tajriba guruhidagi qo'zilarining tirik vazni ikkinchi tajriba guruhidagi qo'zilarinikiga nisbatan past bo'lishiga olib keldi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2841-sonli qarori

2. Sharipov B.Q., Hayitov E.Sh., Boboqulov N.A va boshqalar. Qorako'lehilikda texnologik jarayonlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar. Samarqand -2021.-11-12 b.

3. Xotamov T.T. Forel balig'i jigari ekstraktini qorako'l qo'zilar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri. Hamburg, Germaniya – 2022. 355-357 b.

4. Паронян И.А., Юрченко О.П., Шабанова С.А., Бахромеев А.Б. Сохранение и использование отечественного генофонда животных – важнейшая задача животноводство. России. Достижения науки и техники. АПК. № 4 – 2010 г.

5. M.Zokirov, Y.Valiev, Sh.Shirinboev, Qorako'lehilik. Toshkent 1983. 196 b.

6. M.Sh.Ismoilov, A.G.Gaziev, A.M.Sherqulov. Qo'ylarning mahsuldorlik parametrlari va ularga biometrik ishlov berish metodlari. Samarqand 2016. 7-8 b.

7. Aliyev D.D. Surxondaryo sur qorako'l qo'ylari mahsuldorligini oshirishning fiziologik jihatlari. Dissertatsiya. Samarqand -2021.-15,-68 b.

8. Tulqinovich, X. T. (2022, April). Forel balig'i jigari ekstraktini qorako'l qo'zilar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri. In E Conference Zone (pp. 355-357).

9. Sh. X. Jiyanmurodova, Z.S.Klichev. Qorako'l qo'zilarining o'sish dinamikasi. International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey-2022 yil 121-124 b.

МАККАЖЎХОРИ ДОН ҲОСИЛДОРЛИГИ ЭКИШ МУДДАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

Аннотация. Ушбу мақолада Самарқанд вилоятининг ўтлоқи тупроқлар шароитида маккажўхорининг ўртапишар “Ўзбекистон 601 ЕСВ” ва ўрта-эртапишар “Қорасув 350АМВ” дурагайларининг экиш меъёри ва туп қалинлигига боғлиқ ҳолда ўсиши, ривожланиши, ҳосилдорлиги ўрганилган ва тадқиқот натижасида энг юқори дон ҳосилдорлиги экиш муддати 1 апрель ва экиш меъёри 75 минг уруғ/га бўлганда “Ўзбекистон 601 ЕСВ” дурагайида 80.1, экиш муддати 10 апрель бўлган муддатда экилган “Қорасув 350АМВ” дурагайида 65.7 ц/га ташиқил қилган ҳамда озуқа бирлигининг чиқими ва ҳазмланадиган протеин миқдори бўйича маълумотлар баён қилинган.

В этой статье приведены сведения о норме высева, роста, развития и урожайности среднеспелого гибрида кукурузы «Узбекистан 601 ЕСВ» и средне-раннего гибрида «Корасув 350 АМВ» в зависимости от нормы высева и густоты стояния растений в условиях пастбищных почв Самаркандской области. В результате исследований самая высокая урожайность зерна 80,1 ц/га получена у гибрида «Узбекистан 601 ЕСВ», а у гибрида «Корасув 350 АМВ» этот показатель составлял 65,7 ц/га.

This article provides information on the seeding rate, growth, development and yield of the mid-season corn hybrid “Uzbekistan 601 ECB” and the mid-early hybrid “Korasuv 350 AMB”, depending on the seeding rate and plant density in the conditions of pasture soils of the Samarkand region. As a result of the research, the highest grain yield of 80.1 c / ha was obtained from the hybrid Uzbekistan 601 ESB, and from the hybrid Korasuv 350 AMB this figure was 65.7 c / ha.

Таянч иборалар: “Ўзбекистон 601 ЕСВ”, “Қорасув 350АМВ”, маккажўхори, экиш муддатлари, экиш меъёрлари дурагай, дон, ҳосилдорлик, тупроқ, ўртапишар, ўрта-эртапишар, ўтлоқи, озуқа бирлиги, ҳазмланадиган протеин.

Мавзунинг долзарблиги. Ҳозирги кунда дунёда ва мамлакатимизда маккажўхори асосий ем-хашак экинларидан бири ҳисобланади. Маккажўхори суғориладиган ерларда дони ва силос массаси учун етиштирилади. Асосий экин сифатида баҳорда экилганда дон учун, такрорий экилганда силос массаси учун экиш республикамизда кенг тарқалган. Маккажўхори серҳосил, озуқавий қиммати юқори экин сифатида асосан республикамизнинг суғориладиган ерларда етиштирилмоқда. Ҳозирда, маккажўхори чорвачиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида асосий озуқа экини сифатида экилмоқда.

Маккажўхори қимматли, энг кўп етиштириладиган юқори ҳосилли донли, озуқа экини ҳисобланиб, озиқ-овқат, ем-хашак, техник аҳамиятга эга. Озиқ-овқат ва концентрат ем сифатида маккажўхорининг дони ишлатилади. Донидан омухта ем тайёрлашда кенг фойдаланилади. Унинг дони тўйимли ҳисобланиб, таркибида 68-75% крахмал, 8-13,5% оқсил, 4-8% ёғ, 2,0% клечатка, 1,4% кул шунингдек маъданли тузлар ва витаминлар бор. Унинг 1 кг до-

нида 1,34 озиқа бирлиги мавжуд. Ўзбекистон шароитида маккажўхорини ўрта ва тезпишар дурагайларини экиш натижасида бир йилда икки марта ҳосил олиш ва уни бошқа экинлар билан қўшиб экиш мумкин. Ем-хашак сифатида маккажўхорининг дони ва силос массаси ишлатилади. Унинг дони сут-мумпишиш фазасида ўрилганда юқори сифатли силос тайёрланади.

Чорвачиликда соғин сигирларни сут маҳсулдорлигини оширишда рацион таркибидаги ширали озиқалар алоҳида ўрин тутаяди. Айниқса куз ва қиш даврида соғин сигирларни тўлиқ қийматли рацион билан озиқлантириш сифатли силос захирасини яратишни талаб қилинади. Маккажўхори силоси соғин сигирлар учун сут ҳайдовчи озуқа ҳисобланади.

Республикамизда сўнгги йилларда маккажўхорини янги навлари, дурагайлари яратилди ва Давлат Реестрига киритилди. Аммо, янги нав ва дурагайларнинг биологик хусусиятларига ҳамда минтақа тупроқ-иқлим шароитига мос экиш меъёри, туп қалинлиги ишлаб чиқилмаганлиги туфайли маккажўхорининг янги дурагайларининг потенциал

дон ва силос масса ҳосилдорлигидан тўлиқ фойдаланилмапти. Шунинг учун Самарқанд вилояти шароитида маккажўхорининг асосий экин сифатида экиладиган ўртапишар ва такрорий экин сифатида экиладиган эртапишар дурагайлариининг мўл ва сифатли ҳосил олишни таъминлайдиган энг мақбул экиш меъёри ҳамда туп қалинлигини аниқлаш дончиликдаги долзарб муаммолардан бири ҳисобланди.

Бугунги кунга қадар республикамиз ва хорижда маккажўхорининг биологияси, етиштириш технологияси бўйичатурили тадқиқотчилар тамонидан илмий изланишлар олиб борилган (Р.Валиев., (1) И.Массино.,(5) М.Қосимов.,(7) А.Махматмуродов.,(6) О.Лохманова., (4) А.Загинайлов(3), аммо янги дурагайлари мақбул экиш меъёри, туп қалинлигини дон ва такрорий экинда силос массаси учун етиштириш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмаган.

Тажрибанинг услубияти. Тажрибалар 2016-2018 йиллар давомида Самарқанд ветеринария медицинаси институти (собик Самарқанд қишлоқ хўжалиги институти) Ўқув-тажриба хўжалигида ўтказилган.

Тажриба даласининг тупроқлари ўтлоқи, сизот сувлар 2.5-3.5 м чуқурликда жойлашган. Биз тажриба ўтказган дала тупроқларининг агрохимёвий таърифи куйидагича: тупроқнинг 0-25 см қатламида гумуснинг миқдори 1,20 %, ялпи азот 0,12 %, ҳаракатчан нитрат азоти 18,5 мг/кг, фосфор 0,21 %, ҳаракатчан P_2O_5 —24,0 мг/кг, ялпи калий 1,64%, алмашинувчан калий – 245 мг/кг ни ташкил этган. Тупроқнинг чуқурроқ 25-50 см қатламларда эса ҳаракатчан нитрат азоти, фосфор камайиб борса, алмашинувчан калий кўпайиб боради. Шунингдек тупроқнинг ҳажм оғирлиги ҳам ошиб борган.

Дала тажрибаларини қўйишда тажриба пайкалчаларини ўлчами 50 дан 100м² гача 4 такрорли қилиб ўтказилади. Пайкалчалар энини узунлигига нисбати 1:5-1:10 нисбатда сақланди. Пайкалчаларни жойлашиши кетма-кет, бир ва икки ярусли суғориш ўқ ариқларига перпендикуляр жойлаштирилади. Ўтмишдош–буғдой. Тажриба объекти ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ ва ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайлари. Экиш учун 1 авлод дурагай уруғлардан фойдаланилди. Тажрибада барча вари-

антлар 1, 10 ва 20 апрель саналарида ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайи уруғлари 1 гектарга 45, 55, 65, 75, 85 минг уруғ ёки 15.0, 18.4, 21.7, 25.1, 28.4 кг, ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайи 45, 55, 65, 75 ,85 минг уруғ ёки 14.3, 17.5, 20.7, 23.8, 27.0 кг ҳисобида 11 апрелда экилди. Навларнинг экиш меъёри кг ҳисобида ҳар хил, дон ҳисобида бир хил бўлиши 1000 дон уруғ массасининг ҳар хил бўлиши натижасида юзага келган.

Тажрибаларда тупроқдаги намлик чекланган нам сифими(ЧДНС)нинг 70% дан кам бўлмаган ҳолда сақланди. Экишдан олдин гектарига 800м³ меъёрда суғориш ўтказилади. Тажрибада ўрганилган усуллардан бошқа барча технологик усуллар минтақа бўйича қабул қилинган умумий агротехника асосида ўтказилади.

Тажрибада маккажўхори ҳосилдорлиги барча вариантларда ҳосилни ўриб–янчиб олиш йўли билан аниқланди. Олинган ҳосил стандарт намликка ва 100% тозаликка келтириб ҳисобланди (Б.А.Доспехов, 1985). (2)

Олинган натижалар таҳлили. Тадқиқот натижаларининг кўрсатишича, экиш меъёрларини ошиб бориши билан ҳар иккала дурагайда ҳам уруғларнинг дала шароитида унвчанлиги камайиши кузатилди.

Ўтказилган тадқиқотларимизда Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайи 15.0 кг ёки 45 минг дон уруғ экилганда 43.3 минг дон майса, 18.4 кг ёки 55 минг дон уруғ экилганда 50.8 минг дон майса, 21.7 кг ёки 65 минг дон уруғ экилганда 59.5 минг дон майса, 25.1 кг ёки 75 минг дон уруғ экилганда 67.9 минг дон майса, 28.4 кг уруғ ёки 85 минг дон уруғ экилганда 76.1 минг дон майса ҳосил бўлган. Қорасув 350 АМВ дурагайи 14.3 кг уруғ ёки 45 минг дон уруғ экилганда—42.4 минг дон майса, 17.5 кг уруғ ёки 55 минг дон уруғ экилганда 50.5 минг дон майса, 20.7 кг ёки 65 минг дон уруғ экилганда 58.4 минг дон майса, 23.8 кг дон ёки 75 минг дон уруғ экилганда 66.9 минг дон майса, 27.0 кг уруғ ёки 85 минг дон уруғ экилганда 75.8 минг дон майса ҳосил бўлган.

Тажриба даласидан олинган тадқиқот натижаларининг кўрсатишича, экиш меъёрларини ошиб бориши билан ҳар иккала дурагайда ҳам уруғларнинг

дала шароитида унувчанлиги камайиши кузатилди. Ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайида экиш меъёрларига боғлиқ ҳолда 1м² да майсаларнинг сони 43.3-76.1минг донагача (96.2-89.5%) ўзгарди. Ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайида бу кўрсаткичлар мувофиқ ҳолда 42.4-75.8 минг донагача (94.2-89.1%) ўзгарди. Уруғларнинг дала шароитида унувчанлиги пастлиги экилган уруғларнинг сонига нисбатан ҳақиқатда ҳосил бўлган майсаларнинг сони кам бўлиши ҳисобига юзага келган. Экиш меъёрларини ошиб бориши билан ўсимликларнинг бўйининг баландлиги ҳам ҳар иккала дурагайида ҳам ошиб бориш қонуниятига кузатилди. Стандарт вариантга (55минг уруғ/га) нисбатан гектарига 45 минг дона уруғ экилган вариантда ўсимликнинг бўйи паст эканлиги қайд этилди. Ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайида ўсимликларнинг бўйи барча экиш меъёрлари ва туп қалинлигида ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайига нисбатан баланд бўлди.

Дурагайларнинг ҳосилдорлик кўрсаткичлари ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайида экиш меъёрлари ва туп қалинлигига боғлиқ ҳолда 55.3-80.1 ц/га гача ўзгарди. Энг юқори дон ҳосилдорлиги 1га 75 минг уруғ экилганда (ҳақиқатда 67.9 минг) кузатилган. Экиш меъёрлари 45 минг бўлганда ҳосилдорлик 55.3 ц/га бўлди ва стандарт вариант 55 минг уруғ/га нисбатан 9.6 ц/га камайди. Экиш меъёрларини 65 минг уруғ/га оширилганда ҳосилдорлик 72.6 ц/га, 75 минг уруғ/га оширилганда энг юқори дон ҳосили олинди 80.1ц/га ёки стандарт вариантга нисбатан қўшимча ҳосил15.2ц/га ни ташкил этди. Ўсимликларнинг туп қалинлиги яна оширилганда, экиш меъёри гектарига 85 минг уруғ/га бўлганда ҳосилдорлик экиш меъёри 75 минг уруғ/га нисбатан 3.7 ц/га камайди.

Ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайи ҳосилдорлиги барча экиш меъёрларида ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайига нисбатан кам бўлиши аниқланди. Экиш меъёри 45 минг уруғ/га бўлганда дон ҳосилдорлиги 44.9 ц/га бўлди ва стандарт 55 минг уруғ/га нисбатан 8.8 ц/га камайди. Экиш меъёри 75 минг уруғ/га оширилганда 65.7 ц/га, энг юқори дон ҳосилдорлиги олинishi таъминланди ва қўшимча ҳосил стандарт вариантга нисба-

тан 12.0 ц/га ни ташкил этди. Экиш меъёрини 85 минг уруғ/га ошириш ҳосилдорликни 75 минг уруғ/га нисбатан 2.9 ц/га камайишига олиб келди.

Асосий экин сифатида дон учун экилган маккажўхорининг экиш меъёрларига боғлиқ ҳолда озуқа бирлигининг чиқими, ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайида 74.1 дан 107.3 ц/га, ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайида 60.1 дан 88.0 ц/га ўзгариши кузатилди. Энг юқори озуқа бирлигининг чиқими ҳар иккала дурагайида ҳам экиш меъёри 75 минг уруғ/га бўлганда мувофиқ ҳолда 107.3 ва 88.0 ц/га ни ташкил қилиши ва экиш меъёрларини камайтириш ёки ошириш озуқа бирлигининг камайишига олиб келди. Ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайида озуқа бирлигининг ҳосилдорлиги ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайига нисбатан энг мақбул экиш меъёри 75 минг уруғ/га вариантыда 19.3 ц/га кўп бўлиши аниқланди.

Дон учун экилган маккажўхори таркибидаги ҳазмланадиган протеин миқдори экиш меъёрларига боғлиқ ҳолда ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайида 4.31 дан 6.24 ц/га, ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайида 3.50 дан 5.12 ц/га гача ўзгариши ва энг юқори ҳазмланадиган протеин миқдори экиш меъёри 75 минг уруғ/га бўлганда дурагайларда мувофиқ ҳолда 6.24 ва 5.12 ц/га бўлиши аниқланди. Экиш меъёрини гектарига 85 минг уруғ/га ошириш ёки 75 минг уруғ/га дан камайтириш ҳазмланадиган протеин миқдорини камайишига олиб келди.

Хулоса қилиб айтганда, Самарқанд вилоятининг ўтлоқи тупроқлари шароитида маккажўхорининг ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайи экиш муддати 1 апрель ва ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайлари 10 апрел санасида экилганда уруғларни энг мақбул экиш меъёри 75 минг уруғ/га бўлиши ва хўжаликларда қабул қилинган экиш меъёри (st) 55 минг уруғ/га нисбатан мувофиқ ҳолда 15.2; 12.0 ц/га қўшимча дон ҳосили олишни таъминлаши аниқланди. Озуқа бирлигининг чиқими экиш меъёрларига боғлиқ ҳолда, ўртапишар Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайида 74.1 дан 107.3 ц/га, ўрта-эртапишар Қорасув 350 АМВ дурагайида 60.1 дан 88.0 ц/га ўзгариши кузатилди. Энг юқори озуқа бирлигининг чиқими ва ҳазмланадиган протеин

миқдори ҳар иккала дурагайда ҳам экиш меъёри 75 минг уруғ/га бўлганда кузатилди. Экиш меъёрларини камайтириш ёки ошириш озуқа бирлигининг ҳамда ҳазмланидиган протеин миқдорини камайишига олиб келди

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Валиев Р.З. Особенности роста, развития и продуктивность кукурузы в зависимости от густоты стояния и способа посева на орошаемых типичных сероземах Зарафшанской долины. Самарканд 1987. 180 с.

2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.- М.:Агропромиздат, 1985. 351 с.

3. Лохманова О.И. Обоснование оптимальной густоты стояния растений выращивания зерновой

(среднеспелого и среднепозднего гибридов) кукурузы на мицелярно-карбанатных черноземах Ростовской области. Автореф. дис. канд. с.-х. наук. –Москва, 1996. -22с.

4. Массино А.В., Массино И.В. Селекция гибридной кукурузы для оршаемых условий Узбекистана, Монография –Ташкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015. 240ст.

5. Махматмуродов А.У. Влияния питания на урожайность кукурузы основного и повторного посева. Автореф. дис. докт. с.-х. наук. Ташкент, 2018. -257 с.

6. Қосимов М.И. Андижон вилояти суғориладиган ерлари шароитида турли хил экиш муддатида ва схемасида эртапишар маккажўхори дурагаи она-ота шакллари ҳосилдорлиги ва уруғ сифати. Қ.х.ф.-ном. дисс. - Тошкент 2005. 118 б.



THE STRUCTURE, FUNCTIONS AND IMPORTANCE OF THE LUNGS, INHALATION, EXHALATION MECHANISM

Abstract: To know the structure, functions, importance of the lungs and to study its operation, examination methods. Inhalation, exhalation, understanding of the types of breathing, learning the mechanism of inhalation and exhalation.

Breathing is a physiological act that includes biochemical processes that ensure the consumption of oxygen taken in by the body's tissues, resulting in the release of carbon dioxide gas and water.

In highly developed animals, the breathing process consists of the following stages. External breath: air exchange between the alveoli and the outside environment gas exchange between alveolar air and blood.

Transport of gases by blood: transport from the lungs to the tissues, transport of so from tissues to lungs by blood. Internal breath: gas exchange between blood and tissues, cells consume O and release CO, cellular respiration.

Therefore, the lungs participate only in external breathing, that is, in gas exchange between the external environment and the blood.

The lungs are a well-developed pair of organs, located in the chest, in a closed cavity. Each lung is shaped like a cone, the upper part is called the tip, and the lower part is called the base. The lungs are connected to the external environment through the nasal and oral cavities, throat, larynx, larynx and bronchi. Depending on the diameter, the bronchi are divided into first, second, and third order bronchi. Third-order bronchi divide and branch to form very thin tubes called bronchioles. Bronchioles end with air bubbles - alveoli. Because lung parenchyma is made up of alveoli. Their wall consists of a single layer of cells, where many capillary blood vessels are intertwined and form a network. The walls of these capillaries are also composed of a single layer of endothelial cells. Thus, there are very good conditions for gas exchange between the blood flowing in the capillaries and the air inside the alveoli. Because the air in the alveolus and the blood in the capillaries are separated from each other by a layer of cells with a thickness of only 0.004 mm. The number of alveoli is very large, and the total surface is extremely wide. This ensures that gas exchange in

the lungs takes place over an extremely wide surface. In order for gas exchange to occur through the lungs, air must continuously flow in and out. For this, it is necessary to constantly expand and contract. The lung itself does not have its own musculature that ensures its expansion and contraction. But since it is located in the closed space of the chest, it expands when the chest expands, and when it narrows, it contracts. In this way, the lungs move passively, following the active movement of the chest. This behavior appears as soon as the animal is born.

Lung function is studied using the following methods:

Observation method - the chest is examined, the frequency and rhythm of breathing is determined. Palpation method - pain, temperature and changes in the chest are detected. Percussion method - the limit of the location of the lungs is determined.

In this method, percussion hammer and perimeter tools are used. The limit of the lungs changes during the following diseases: Atelectasis is a collapse of the lungs. Emphysema is an enlargement of the lungs. Pleurisy - inflammation of the pleura.

Auscultation method - breath sounds (noises) are determined. In this method, stethoscope, phonendoscope and stetophonendoscope instruments are used.

Two types of physiological noise are distinguished in the lungs: Bronchial rumble - heard in the pronunciation of the letter "X" and seen in dogs and ruminants.

Vesicular noise - heard in the pronunciation of the letter "F", in horses and people. If other sounds are added to these noises, it is called pathological noises.

Spirometry is a method of determining the vital capacity of the lungs. A spirometer is used for this.

Pneumography is a method of recording and studying breathing movements using a pneumograph. This method allows you to think about the rhythm, strength and various changes of the breath.

Agricultural animals: horses, cattle, sheep and goats are studied by observation, palpation, percussion and auscultation methods, the data obtained are recorded in a notebook and analyzed. Based on the results, conclusions are drawn.

In order for gases to be exchanged through the lungs, it is necessary to constantly expand and contract. As a result, air enters and exits the lungs.

Breathing into the lungs is called inhalation or inspiration. Exhaling air from the lungs is called exhalation.

Breathing mechanism. Breathing occurs due to the expansion of the chest in width, length and height. During inspiration, the chest expands as a result of the contraction of the intercostal external dentate muscles. As a result of the diaphragm being pulled towards the abdominal cavity and changing to a cone shape, the chest expands. Due to the lowering of the sternum, the chest expands towards the height. As a result, the lungs expand from the side of the chest, and the pressure inside it decreases. As a result, air is sucked into the lungs.

Air absorption continues until the lungs expand completely and the pressure inside becomes equal to the atmospheric pressure. Due to the active expansion of the chest during exhalation, the pressure in the chest cavity decreases significantly. For example, in large an-

imals, the pressure in the chest cavity decreases to 30-50 mm due to the mercury column. As a result, there is a very good opportunity for the expansion of the lungs. Muscles involved in chest expansion (external intercostal muscles) are called inspiratory muscles.

Breathing mechanism. As soon as inspiration, i.e. the absorption of air into the lungs, ends, the exhalation process begins. At the end of breathing, the ribs begin to compress, trying to take their previous position due to their own weight and the elasticity of their ankles. As a result, the chest and, following it, the lungs begin to narrow. At this time, due to the pressure of the organs in the abdominal cavity, the diaphragm bends towards the chest cavity and becomes convex. The sternum takes its previous position. Thus, due to the narrowing of the chest from all sides, the lungs are also narrowed and the air in it is expelled. The muscles involved in exhalation (intercostal intercostal muscles) are called expiratory muscles.

Three types of respiration are distinguished in animals: Chest - rib breathing, Abdomen - breathing with the diaphragm. Chest-belly, or mixed breathing.

Most farm animals are mixed, i.e. chest-abdominal breathers, because when they breathe, the diaphragm takes part in the expansion of the chest along with the ribs.

Due to certain physiological events (for example: during suffocation) or diseases (for example: when the lungs are inflamed), the animal's breathing can change.

List of used literature:

1. R.X.Xaitov, B.Z.Zaripov, Z.T.Rajamurodov. "Animal Physiology". Textbook. Tashkent, Teacher - 2005.
2. D.E.Eshimov, R.F.Rozikulov. "Practical laboratory training in animal physiology". Study guide. Tashkent, Ilm Ziya - 2012.
3. V.G. Skopichov and dr. "Physiology of life and ethology". Textbook. Moscow. Colossus - 2005.
4. Bradley G. Klein. "Cunningham's Textbook of Veterinary Physiology". Saunders 5 edition USA 2013.



ITLARNING SUT BEZI O'SMALARIDA KLINIK-FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand shahridagi xizmat itlari va aholiga qarashli itlar orasida keng tarqalgan sut bezi o'smalari bilan kasallangan itlarda yuzaga keladigan turli xil klinik-fiziologik o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье дана информация о клинико-физиологических изменениях при опухолях молочной железы среди служебных и частности собак города Самарканд.

Abstract. In this article was given information an about clinic-physiological exchanges on mammary tumors service dogs and under supervising of inhibitions of Samarkand city.

Kalit so'zlar: sut bezi, o'sma, onkologiya, kinologiya, klinik-fiziologik tekshirish, laborator tekshirish.

A primary responsibility of National Veterinary Service (NVS) a develop ante and post-mortem meat inspection guidelines. Wherever possible, inspection procedures should be designed according to a risk-based approach and management systems should reflect international norms [8]. The national competent authority (Cabinet of Ministries RUz) should also provide an appropriate institutional environment for Veterinary Services (NVS) to develop such policies and measures [7].

The guidelines of NVS requires to use the Meat Factory Cell (MFC) approach, which provides smaller carcass parts and targeted risk based investigation at meat inspection that make opportunities for future objective sensing and diagnosis. We assume that a meat inspection can be significantly improved and made more relevant by adoption, adaptation and development of present and future inline technologies on objective sensing and diagnostic tools [9].

The meat inspection should keep on prioritizing assessment of food chain information, *ante mortem* inspection, diagnosing, verification and removal of pathological changes, monitoring and control of zoonosis and zoonotic agents, sampling for the National Residue Plans, and detection of notifiable animal diseases on the OIE (The World Organization for Animal

Health) list¹. Types of hazards that may be present in meat products include chemicals, biological agents' pathogenic bacteria, viruses and parasites as well as [12]. The quality and safety of meat and meat products are best maintained by an integrated preventive approach throughout all segments of the meat sector, including producers, processors, retailers, food service, as well as consumers.

In case of Uzbekistan slaughterhouses are following national and international guidelines, that veterinarian inspection specialists checking animal's health, a taking a blood from animal and providing laboratory analysis. A blood analysis against brucellosis, and in negative cases are allowing to slaughter the animal. However, subsistence family farms for domestic consumption not always follows these guidelines at remote rural areas, although they using traditional 'eye' and 'touch' checking before slaughtering at home.

The aim of meat inspection is to provide safe and wholesome meat for human consumption. Meat inspection, meat hygiene and official control tasks in the slaughterhouse have always been of major importance in the meat industry, and are intimately related with animal diseases and animal welfare. Various factors influence the quality and safety of meat including public

¹ <http://www.oie.int/animal-health-in-the-world/oie-listed-diseases-2018/>

health hazards (zoonotic pathogens, infectious diseases, pesticides, chemical substances and veterinary drugs), animal health and welfare issues during transportation and slaughter.

Summary

In Uzbekistan, enrich to healthy meat products for consumption, should be organized a regularly trainings for inspection specialists, implementing modern best practices for monitoring and using express sample tests for meat quality control. As mentioned to enrich international sanitary inspection standards the country has to monitor existing all legislative norms and modernize its for current conditions, improve infrastructure of inspection laboratories, and capacity building of specialists is also key point. These measures provides a meat products safety and quality for consumption toward domestic and international markets.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 28, 2019 № PF-5696 “On measures to radically improve the public administration system in the field of veterinary medicine and livestock” www.lex.uz
2. Law of the President of the Republic of Uzbekistan “On quality and safety of food products” dated August 30, 1997 № 483-I. www.lex.uz
3. Law of the President of the Republic of Uzbekistan “On protection and use of wildlife” dated December 26, 1997 № 545-I. www.lex.uz.
4. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. “On measures to further improve the system for streamlining the activities of specialized enterprises for slaughtering livestock and delivering meat and meat products to the consumer market” May 8, 2019, № 386. <https://lex.uz/docs/4327600>
5. Resolution cabinet of ministers of the Republic of Uzbekistan. On adoption of the general technical regulation on safety of meat and meat products. Tashkent, January 22, 2018, № 36 <https://lex.uz/docs/3516470>
6. Begoña Panea, Guillermo Ripoll. Quality and Safety of Meat Products. Foods 2018/ www.mdpi.com/journal/foods.
7. J. B. Wintle and B. W. Kenzie. In the absence of a risk-based approach, inspection measures are prescribed according to long-standing practice: see Appendix I. Copyright Unit. 2001.
8. OIE Animal Production Food Safety Working Group. “Role and functionality of veterinary services in meat hygiene throughout the food chain”. 71st General Session of the OIE. 2003.
9. Ole Alvseike, Miguel Prieto, Kristin Torkveen, Cecilie Ruud, Truls Nesbakken. Meat inspection and hygiene in a Meat Factory Cell - An alternative concept. Food Control 90 (2018) 35-36.
10. Samatova G. Influence of refrigeration on the quality and safety of raw materials / Journal of zoo veterinary. 2016. -№1.17-19.
11. S. Murodov, S. Xoliqov, A. Xudoyberganov. Physicochemical changes in the structural structure of beef. Article. Science and education in the modern world: challenges of the XXI century. Nur-sultan, Kazakhstan, December 2019. Pp 7-11.
12. T. Ninios, J. Lundén, H. Korkeala, M. Fredriksson-Ahomaa. Meat inspection and control in the slaughterhouse. John Wiley & Sons (2014).

ACHCHIQ SHUVOQNING DOPIVOP PREPARATLARI VA ULARNINGNING FARMATSEVTIKA SOHASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Tadqiqotlarda achchiq shuvoqni fitokimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari va uning farmatsevtika sohasidagi ahamiyati o'rganilib, tegishli xulosalar berilgan.

Abstract. The studies examined the phytochemical composition of artemisia absinthium, medicinal properties and its importance in the field of pharmaceuticals and drew appropriate conclusions.

Kalit so'zlar: farmatsevtika, achchiq shuvoq, fitokimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari, efir moyi (absintol), achchiq glikozidlar, flavonoidlar hamda oshlovchi moddalar.

Key words: pharmaceuticals, wormwood (artemisia absinthium), phytochemical composition, medicinal properties, essential oil (absinthol), bitter glycosides, flavonoids and additives.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi "2022-2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-son farmoni hamda 2020 yil 10 apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son va 2020 yil 26 noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4901-son qarorlari asosida aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish vazifalari belgilangan[1,2,3].

Qadim zamonlardan beri insoniyat o'simliklarni shifobaxsh vosita sifatida ishlatib keladi. Keyingi vaqtlarda kimyo fani keng taraqqiy etishi natijasida tez ta'sir etuvchi yangidan yangi dorivor moddalar sintez qilinib olinmoqda. Bu holat birinchidan dorivor o'simliklarga bo'lgan talabni to'lig'icha qondirgani yo'q. Ikkinchidan kimyoviy usullar yordamida olingan moddalarning asorati borgan sari ortib bormoqda. Shu sababli hozirgi kunda ko'pchilik farmatsevtika sohasida ishlovchi olimlarning ma'lumotlariga qaraganda, o'simliklardan olinadigan dori darmonlar, kimyoviy sun'iy ravishda olinadigan preparatlardan afzalligi va shifobaxshligi bilan ajralib turadi, chunki

o'simliklardan olinadigan dorilar deyarli asoratsiz hisoblanadi[5,6,7].

Shuning uchun ham o'simliklarni fitokimyoviy tarkibini, dorivorlik xususiyatlari va ahamiyatini o'rganib, Respublikamiz farmatsevtika sanoatini tabiiy xomashyo bilan boyitish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Achchiq shuvoqning dorivorlik xususiyatlariga ega preparatlari va ularning farmatsevtika sohasidagi ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqotlarda Samarqand viloyati Poyariq tumaning qir-adir zonasida yovvoyi holda o'suvchi achchiq shuvoqni biologiyasi, fitokimyoviy tarkibi universitetning "Biotexnologiya" kafedrasiga qarashli ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida "Государственная фармакопея. XI издание. 1987.С.285."dan foydalanib aniqlandi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqotlarimizda Samarqand viloyati hududida yovvoyi holda o'suvchi achchiq shuvoqning fitokimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari, preparatlari va ularning farmatsevtika sohasidagi ahamiyatini o'rgandik.

Achchiq shuvoq (ermon) - ko'p yillik, bo'yi 50-100 sm ga yetadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi kalta va shoxlangan, undan ildizoldi barglar, gul hosil qiluvchi bir nechta uzun poyalar va bargli kalta poyalar o'sib chiqadi. Poyasi tik o'suvchi, biroz qirrali bo'lib, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi barglari uzun bandli, uchburchak – yumaloq ko'rinishda, ikki-uch marta patsimon ajralgan. Poyadagi qisqa bandli barglari har xil shaklda: poyaning pastki qismidagilari ikki mar-

Tadqiqotlarimizda aniqlangan achchiq shuvoqning fitokimyoviy tarkibi

Organlarida moddalarni to'planishi	Biologik aktiv moddalar, tarkibi %				
	Namlik	efir moyi (absintol)	achchiq glikozidlar	oshlovchi modda	flavono-idlar
Gulida	13,23 %	2,5%	0,10 %,	0,52%	0,42%
Ildizoldibargida	14,21%	0,9 %	0,8 %	0,35%	0,33%

ta patsimon ajralgan, o'rtadagilari patsimon ajralgan, yuqoridagilari uch bo'lakli. Bargning ayrim bo'laklari lansetsimon yoki chiziqsimon, to'mtoq uchli, tekis, ayrim bo'laklari ba'zan tishsimon qirrali. Ermon o'simligining poya va barglarida tuklar ko'p bo'lganidan kumush rangda ko'rinadi. Iyul - avgust oylarida gullaydi. Gullari mayda, shingilga joylashgan, sharsimon, pastga qapagan, diametri 3 mm li savatchaga to'plangan. Savatchalardan tashkil topgan shingillar ro'vaksimon gul to'plamini hosil qiladi. Savatchadagi hamma gullari sariq rangda, naychasimon, otaligi 5 ta, onalik tuguni bir xonali, yuqoriga joylashgn. Mevasi – o'tkir uchli, cho'zinchoq, qo'ng'ir rangli pista[4,5,7,8].

Fitokimyoviy tarkibi. Tabiiy holda uchraydigan achchiq shuvoq o'simligining er ustki qismi tarkibida 0,5-2 % efir moyi (absintol), achchiq glikozidlar (0,09-0,525 % absintin, 0,03 % anabsintin), xamazulen, proxamazulenogen, artabsin, qahrabo, olma va askorbin kislotalar, karotin, arabsin va boshqa laktonlar, artemizetin flavonoidi hamda oshlovchi moddalar bo'ladi.

Achchiq shuvoq o'simligining gul to'plamida (savatchalarda) ko'p miqdorda (151,0-292,0 mg %), ayniqsa, gullashidan oldin (292,0 mg %), poyasida esa eng kam miqdorda (1-3 mg %) xamazulen to'planadi. Poyaning yuqori qismida joylashgan yosh barglarda (175,0 mg %) poyaning pastki qismida joylashgan barglarga (90,0 mg %) nisbatan 2 baravar ko'p xamazulen bo'ladi.

Efir moyi to'q yashil rangdagi zaharli suyuqlik bo'lib, tarkibida 24,1-35, 2% tuyil spirti, keton-tuyon, pinen, kadinen, fellandren, kariofillen, bizabolen, xamazulenogen hamda tuyil spirtiing sirka, izovalerian va palmitin kislotalari bilan hosil qilgan efirlari bor.

Bizning tadqiqotlarimiz natijasida aniqlangan achchiq shuvoq (ermon) - Artemisia absinthium L.ning fitokimyoviy tarkibi quyidagicha.

Namlik gulida 13,23 %, ildizoldibargida esa 14,21% ni tashkil qildi. Efir moyi (absintol) gulida 2,5% ni,

Ildizoldibargida esa 0,9 % ni , Achchiq glikozidlar, gulida 0,10 %, Ildizoldibargida esa 0,8 % ni oshlovchi modalar, gulida, 0,52% ni Ildizoldibargida esa 0,35% ni, flavonoidlar, gulida 0,42% ni, Ildizoldibargida esa 0,33% ni tashkil qildi.

Dopivop preparatlari. O'simlikdan damlama, nas toyka va quyuq ekstrakt tayyorlanadi. O'simlik ishtaha ochuvchi va o't haydovchi yig'malar - choylar, me'da kasalliklarida ishlatiladigan tabletkalar va achchiq nas toyka tarkibiga kiradi.

Mahsulot tayyorlash. O'simlik gullashidan oldin yoki gullash davrida faqat ildizoldi barglari tayyorlanadi. Gullaganda esa poyaning uchidan 25-30 sm uzunlikda o'rib olinadi. Yig'ilgan mahsulotlar soya, havo kirib turadigan joyda yoki cherdaklarda quritiladi. Mahsulotning achchiqlik ko'rsatkichi 1:10 000 ga teng.

Ishlatilishi. Achchiq shuvoqning dorivor preparatlari ishtaha ochadigan va ovqat hazm qilishga yordam beruvchi dori sifatida hamda jigar, o't pufagi va gastrit kasalliklarida ishlatiladi. O'simlikdan olingan xamazulen bronxial astma, revmatizm, ekzema kasalliklari va rentgen nuri ta'sirida kuygan yerlarni davolashda qo'llaniladi.

XULOSALAR

Achchiq shuvoqning dorivor preparatlari va ularning farmatsevtika sohasidagi ahamiyatini o'rganish natijalariga asosanib, quyidagilarni xulosa qilamiz:

1, Achchiq shuvoq o'simligidan tayyorlangan dorivor preparatlardan qon tomirlarining o'tkazuvchanligini kamaytiruvchi, qon bosimini pasaytiruvchi, tinchlantiruvchi, kardiotonik vosita hamda o't va siydik haydovchi sifatida qo'llash mumkin (chunki, tarkibida flavonoidlar mavjud).

2. Achchiq shuvoqning hozirgi kunda kamayib borayotganligi sababli bu o'simligining urug' mahsuldorligini, yer ustki qismlarining kimyoviy tarkibini, dorivorlik xususiyatlarini batavsil o'rganish esa katta ahamiyatga egadir.

3. Achchiq shuvoq o'simligining ildizoldibargiga nisbatan yalpi gullagan vaqti farmatsevtika sanoati uchun dorivor xomashyo olishni tavsiya qilamiz.

4. Achchiq shuvoq o'simligidan tarkibida turli dorivor moddalar bo'lganligi uchun yangi dori preparatlarini tayyorlash texnologiyalarini ishlab chiqish va xavfsiz farmasevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash ilmiy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi "2022-2026 yillarda respublikaning farmasevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-son farmoni. Toshkent.2022.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori Toshkent.2020.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4901-son qarori. Toshkent.2020.

4. Ahmedov O. A. Ergashev va boshqalar "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi". Darslik. "Tafakkur-bo'stoni". Toshkent-2018 yil.

5. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные Лекарственные растения и их применение» Справочник - Ташкент-1990 й.

6. Begmatova M.X., Shodiyeva Z.Sh. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. "Sam.D.Ch.I." Samarqand 2022

7. Бегматова М. Х., Джумаева М., Хасанова Г. Биология и лекарственные свойства перспективных лекарственных растений //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – т. 16. – №. 5.

8. Усмонходжаев А. ва бошқаларнинг "Ўзбекистонда ўсадиган шифобахш ўсимликларнинг этимологик замонавий Энциклопедияси" китоби "Янги аср авлоди", Тошкент-2018 й.

BUZOQ VA QO‘ZILARNING ICHAK BAKTERIYALARIGA QARSHI TABIIY IMMUN KO‘RSATKICHLARI

Annotatsiya. Tadqiqotlarda buzoq va qo‘zilarning ichak bakteriyalariga qarshi tabiiy immun ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Ichak bakteriyalariga qarshi buzoqlarning qon zardobida 1:100 dan 1:400 gacha, qo‘zilarning qon zardobida esa 1:50 dan 1:175 gacha bo‘lgan yuqori titrdagi antitelolar hosil bo‘lishi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar buzoq va qo‘zilar organizmining ichak bakteriyalariga qarshi tabiiy immun xususiyatlari yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Annotation. Research has examined the natural immune profile of calves and lambs against intestinal bacteria. High titers of antibodies against intestinal bacteria were found in the blood serum of calves from 1:100 to 1:400, and in the blood serum of lambs from 1:50 to 1:175. These indicators indicate that the body of calves and lambs has high natural immune properties against intestinal bacteria.

Kalit so‘zlar: buzoq, qo‘zi, qon zardobi, shartli patogen mikroorganizmlar, kolibakteriya, salmonella, tabiiy immun ko‘rsatkichlar, kolostral immunitet, tabiiy faol immunitet, antitelolar.

Key words: calf, lamb, blood serum, opportunistic microorganisms, *E. coli*, salmonella, natural immune parameters, colostral immunity, natural active immunity, antibodies.

Mavzuning dolzarbligi. Yangi tug‘ilgan hayvonlar kasalliklarining bosh sababi, organizmning himoya kuchi bilan atrof-muhit o‘rtasidagi muvofiqlikni buzilishidir. Hayvonlar amalda steril oshqozon-ichak va nafas olish organlari bilan tug‘iladi, ammo tashqi muhit bilan dastlabki aloqasidayoq, birdaniga mikroorganizmlardan zararlanadi [1,3,4].

Keyingi yillarda hayvonlardan odamlarga o‘tayotgan yangi, o‘ta havfli yuqumli kasalliklar paydo bo‘layapti. O‘tish bosqichida, qoidaga binoan, bu kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilari shartli patogenlik statusini o‘taydi [1,2,6].

Shuning uchun ham shartli patogen mikroorganizmlar hozirgi zamon infeksiyon patologiyasining yetakchi muammolaridan biriga aylandi. Chunki, shartli patogen mikroorganizmlar ham organizm rezistentligi pasaygan paytda yuqumli kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilari kabi ta’sir ko‘rsatadi [1,4,5,6].

Ma’lumki, atrof muhitda shartli patogen mikroorganizmlarning turi juda ko‘p bo‘lsada, ayrimlari bu sohada ustivor ahamiyat kasb etadilar. Amaliyotda ko‘p uchrovchi shartli patogen mikroorganizmlar jumlasiga kolibakteriya, salmonella, pasterella, psevdomonada, stafilokokk, streptokokk kabi bakteriyalar kiradi [1,2,6].

Yosh hayvonlarda bu mikroorganizmlar og‘ir kechuvchi va hayot uchun xavf tug‘diruvchi yuqumli ka-

salliklarga sabab bo‘ladilar. Ularni oldini olish, qarshi kurash va davolashning maxsus chora-tadbirlari ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramasdan muammoning dolzarbligi pasaymayotir.

Tadqiqotning maqsadi. Buzoq va qo‘zilarning ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga qarshi tabiiy immun ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda ularning organizmida ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga nisbatan kolostral va tabiiy faol immunitet hosil bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarini Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani “Zarafshon” chorvachilik MChJning qoramolchilik va qo‘ychilik fermasidagi 10 kunlik, 1 va 3 oylik buzoqlar va qo‘zilarda olib bordik.

Laboratoriya tekshiruvlarini universitetimizning “Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patofiziologiyasi” kafedrasining ilmiy tadqiqot laboratoriyasida o‘tkazdik.

Buzoqlar va qo‘zilarning qon zardobida kolibakteriya va salmonellalarga qarshi antitelolar to‘planish dinamikasini Raytning agglyutinatsiya reaksiyasi yordamida aniqladik.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimizda tabiiy immun ko‘rsat-

10 kunlik, 1 va 3 oylik buzoqlar qon zardobida s ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga nisbatan antitelolar to'planish dinamikasi (M±m)

№	Antitelolar spektri	Buzoqlarining yoshi va soni (n=)		
		10 kunlik (n=5)	1-oylik (n=5)	3-oylik (n=5)
1	Koliagglyutinin	1:250±7,07	1:300±8,36	1:350±8,36
2	Salmonella agglyutinin	1:200±6,32	1:400 ±8,94	1:400 ±8,94

kichlarini o'rganish maqsadida, 2 turdagi shartli patogen mikroorganizmlar (kolibakteriya va salmonella)ga qarshi qo'zilar va buzoqlarning qon zardobida spesifik agglyutininlar borligi aniqlandi va tahlil qilindi.

Dastlab, 10 kunlik, 1 va 3 oylik buzoqlar qon zardobida ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella) ga qarshi antitelolar to'planish dinamikasini o'rganib, tahlil qildik (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yangi tug'ilgan 10 kunlik buzoqlar qon zardobida ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga qarshi yuqori darajada antitelolar titri, ya'ni kolibakteriyalarga qarshi - 1:250 va salmonellalarga - 1:200 spesifik agglyutininlar borligi aniqlandi. Bu esa buzoqlar organizmida kolostral immunitet shakllanganligidan dalolat beradi.

O'tkazilgan tadqiqotlarimizda 1 oylik buzoqlarning qon zardobida kolibakteriyalarga qarshi - 1:350 va salmonellalarga - 1:400 titrda, 3 oylik buzoqlarning qon zardobida esa kolibakteriyalarga qarshi - 1:350 va salmonellalarga - 1:400 titrda spesifik agglyutininlar borligi aniqlandi. Bu esa buzoqlar organizmida tabiiy faol immunitet shakllanganligidan dalolat beradi.

Masalani yanada oydinlashtirish maqsadida, 10 kunlik, 1 va 3 oylik qo'zilarida tadqiqotlarni davom ettirdik va ularning qon zardobida ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga qarshi antitelolar hosil bo'lish dinamikasini o'rgandik (2-jadval).

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 10 kunlik qo'zilar-

ing qon zardobida kolibakteriyalarga qarshi - 1:175 va salmonellalarga - 1:65 titrda spesifik agglyutininlar borligi aniqlandi. Bu esa qo'zilar organizmida passiv, ya'ni kolostral immunitet shakllanganligidan dalolat beradi.

1 va 3 oylik qo'zilarining qon zardobida kolibakteriyalarga qarshi - 1:130dan 1:150 gacha, salmonellalarga - 1:50dan 1:80 gacha titrda antitelolar borligi aniqlandi.

O'tkazilgan tadqiqotlarimizda shartli patogen mikroorganizmlarga qarshi 1 oylik qo'zilarining qon zardobida hosil bo'lgan antitelolar titriga nisbatan 3 oylik qo'zilarining qon zardobida hosil bo'lgan antitelolar titri ancha yuqori ekanligi kuzatildi. Bu esa qorako'l qo'zilar organizmida tabiiy (faol) immunitet shakllanganligidan dalolat beradi.

Xulosalar.

1. 10-kunlik buzoqlar va qo'zilarining qon zardobida ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga nisbatan 1:65 dan 1:250 gacha bo'lgan yuqori titrdagi antitelolar hosil bo'lishi aniqlandi. Bu esa buzoqlar va qo'zilar organizmida kolostral immunitet shakllanganligidan dalolat beradi.

2. 10-kunlik buzoqlar va qo'zilarining qon zardobida bu antitelalar og'iz suti orqali onadan o'tganligi va yosh hayvonlarni tegishli bakteriyalardan himoya qilishga qaratilganligi tabiiydir.

3. Ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella) ga qarshi 1 va 3 oylik qo'zilarining qon zardobida 1:50 dan 1:150 gacha, buzoqlarning qon zardobida esa 1:300

10 kunlik, 1 va 3 oylik qo'zilarining qon zardobida ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga nisbatan antitelolar to'planish dinamikasi (M±m)

№	Antitelolar spektri	Qo'zilarining yoshi va soni (n=)		
		10 kunlik (n= 20)	1-oylik (n=20)	3-oylik (n=20)
1	Koliagglyutinin	1:175±4,2	1:130±2,54	1:150±2,73
2	Salmonella agglyutinin	1:65±5,4	1:50±1,58	1:80±2,00

dan 1:400 gacha, bo'lgan yuqori titrdagi antitelolar hosil bo'lishi aniqlandi. Bu esa ular organizmida tabiiy faol immunitet shakllanganligidan dalolat beradi.

4. Buzoqlarning qon zardobida ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga qarshi hosil bo'lgan antitelolar titri qo'zilarning qon zardobida hosil bo'lgan antitelolar titriga qaraganda ancha yuqori ekanligi, kuzatildi.

Demak, buzoq va qo'zilarning ichak bakteriyalari (kolibakteriya va salmonella)ga qarshi tabiiy immun ko'rsatkichlari o'ziga xos xususiyatga egaligidan hamda ularning organizmida avvalo kolostral (passiv), so'ngra tabiiy faol immunitet shakllanganidan dalolat beradi.

Bu esa veterinariya amaliyotida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев М.А., Рузикулов Р.Ф. Иммуность организма сельскохозяйственных животных против

условно-патогенных микроорганизмов. //Журнал «Известия» Армянской сельскохозяйственной академии. - Ереван, 2004, № 4, С. 60-61.

2. Бурлаков В.А., Родионова В.Б., Интизаров М.М., Бурлаков С.В. Проблемы борьбы и профилактики желудочно-кишечных болезней молодняка животных //Ветеринарная медицина. – Москва, 2002. №1. С.16-17.

3. Железникова Г.Ф. Инфекция и иммунитет: стратегии обеих сторон //Иммунология.- Москва, 2006. - № 6. - С.597 - 614.

4. Лысов В.Ф., Максимов В.И. Основы физиологии и этологии животных. Москва: Колос, 2004. – С. 203-204.

5. Максимюк Н.Н. Адаптация, резистентность, иммунологическая реактивность организма животных и факторы, влияющие на ее формирование.// Вестник МАНЭБ, СПб., 2001, №7(43). С,52-62.

6. Флоров А.Ф., Зарицкий А.М. Еще раз об условной патогенности микроорганизмов. Журнал микробиологии. 1999. – №5. – С.96-98.

QORAKO‘L QO‘ZILARINING KOKKLARGA QARSHI TABIIY IMMUN KO‘RSATKICHLARINI YOSHGA OID XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Tadqiqotlarda qorako‘l qo‘zilarning kokklarga qarshi tabiiy immun ko‘rsatkichlarini yoshga oid xususiyatlari o‘rganildi. Kokklarga qarshi qorako‘l qo‘zilarning qon zardobida 1:50 dan 1:210 gacha bo‘lgan yuqori titrdagi antitelolar hosil bo‘lishi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar qorako‘l qo‘zilari organizmining kokk(stafilokokk va streptokokk) larga qarshi tabiiy immun xususiyatlari yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Annotation. The study examined age-related characteristics of natural indicators of immunity against cocci. It has been established that antibodies with a high titer from 1:50 to 1:210 are formed in the blood serum of black lambs against cocci. These indicators indicate that the body of Karakul lambs has high natural immune properties against cocci (staphylococci and streptococci).

Kalit so‘zlar: qorako‘l qo‘zilari, qon zardobi, shartli patogen mikroorganizmlar; stafilokokk, streptokokk, tabiiy immun ko‘rsatkichlar, kolostral immunitet, tabiiy faol immunitet, antitelolar.

Key words: Karakul lambs, blood serum, conditional pathogenic microorganisms, staphylococcus, streptococcus, natural immune parameters, colostral immunity, natural active immunity, antibodies.

Mavzuning dolzarbligi. Yangi tug‘ilgan hayvonlar kasalliklarining bosh sababi, organizmning himoya kuchi bilan atrof-muhit o‘rtasidagi muvofiqlikni buzilishidir. Hayvonlar amalda steril oshqozon-ichak va nafas olish organlari bilan tug‘iladi, ammo tashqi muhit bilan dastlabki aloqasidayoq, birdaniga mikroorganizmlardan zararlanadi[1,4].

Yangi tug‘ilgan organizmga faqatgina patogen mikroorganizmlar salbiy ta‘sir etib qolmasdan, balki shartli patogen mikroorganizmlar ham organizm rezistentligi pasaygan paytda yuqumli kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilari kabi ta‘sir ko‘rsatadi [1,3,4].

Amaliyotda ko‘p uchrovchi shartli patogen mikroorganizmlar jumlasiga kolibakteriya, salmonella, pastterella, psevdomonada, stafilokokk va streptokokk kabi bakteriyalar kiradi [1,2,3].

Veterinariyada bu bakteriyalar qo‘zg‘atadigan kasalliklar yosh hayvonlarning kasalliklari sifatida alohida o‘rin egallaydilar. Ularni oldini olish, qarshi kurash va davolashning maxsus chora-tadbirlari ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramasdan muammoning dolzarbligi pasaymayotir [1,2].

Tadqiqotning maqsadi. Qorako‘l qo‘zilarning kokklarga qarshi tabiiy immun ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda ularning yoshga oid xususiyatlarini o‘rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Turli yoshdagi qorako‘l qo‘zilari organizmida stafilokokk va streptokokklarga qarshi tabiiy immunitetni qay darajada namoyon bo‘lishini o‘rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordik. Ilmiy-tadqiqot ishlarini Navoiy viloyatining Nurota tumani “Nurota” qorako‘lchilik shirkati xo‘jaligining tabiiy yaylov sharoitlarida bo‘qilayotgan 3, 15 kunlik, 1,2,3,6 oylik, jami 180 bosh qorako‘l qo‘zilarida olib bordik.

Laboratoriya tekshiruvlarini institutimizning “Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining ilmiy tadqiqot laboratoriyasida o‘tkazdik.

Turli yoshdagi qorako‘l qo‘zilarining qon zardobida stafilokokk va streptokokklarga qarshi antitelolar to‘planish dinamikasini Raytning agglyutinatsiya reaksiyasi yordamida aniqladik.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimizda shartli patogen mikroorganizmlar muammosi

1 - jadval.

3 va 15 kunlik qorako‘l qo‘zilarining qon zardobida stafilokokk va streptokokklarga nisbatan antitelolar to‘planish dinamikasi ($M \pm m$)

№	Antitelolar spektri	Qorako‘l qo‘zilarining yoshi va soni (n=)	
		3-kunlik (n=30)	15 kunlik (n=30)
1.	Streptokokk agglyutinini	1:170±2,91	1:210±3,24
2.	Stafilokokk agglyutinini	1:150±2,73	1:200±3,16

1,2,3,6 oylik qorako'l qo'zilarining qon zardobida stafilokokk va streptokokklarga nisbatan antitelolar to'planish dinamikasi (M±m)

№	Antitelolar spektri	Qorako'l qo'zilarining yoshi va soni (n=)			
		1-oylik (n=30)	2-oylik (n=30)	3-oylik (n=30)	6-oylik (n=30)
1.	Streptokokk agglyutinin	1:50 ±1,58	1:170 ±2,91	1:70 ±1,87	1:60 ±1,73
2.	Stafilokokk agglyutinin	1:140 ±2,64	1:160 ±2,82	1:80 ±2,00	1:50 ±1,58

yosh hayvonlarda birmuncha o'tkir qo'yilganligini hisobga olib, 3, 15 kunlik, 1,2,3 va 6 oylik qorako'l qo'zilarining qon zardobida antitelolar hosil bo'lishi hamda ularning kolostral va tabiiy immunitet shakllanishidagi ahamiyati tahlil qilindi.

Avvalo ilmiy tadqiqotlarni 3 va 15 kunlik 30 bosh qorako'l qo'zilarida o'tkazib, ularning qon zardobida 2 xil kokk (stafilokokk va streptokokk)larga qarshi antitelolar titrini aniqladik (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, streptokokklarga qarshi 1:170 dan 1:210 gacha va stafilokokklarga esa 1:150 dan 1:200 gacha titrda antitelolar borligi aniqlandi.

Bu antitelalar og'iz suti orqali onadan o'tganligi tufayli, ularda kolostral immunitet shakllanganligidan dalolat beradi va u yosh hayvonni tegishli bakteriyalardan himoya qilishga qaratilganligi tabiiydir.

Bunda og'iz suti orqali o'tgan immuntanachalar nafaqat antitela, balki antigen vazifasini ham o'taydi. Ya'ni ona organizmi og'iz suti orqali o'z avlodini tabiatda keng tarqalgan shartli patogen mikroorganizmlarga qarshi ham passiv, ham faol emlaydi.

Chunki, kolostral immunitet ona organizmidagi faol immunitetning hosilasidir.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, masalani yanada oydinlashtirish maqsadida, 1,2,3,6 oylik 30 bosh qorako'l qo'zilarida tadqiqotlarni davom ettirdik va ularning qon zardobida 2 xil kokk (stafilokokk va streptokokk)larga qarshi antitelolar hosil bo'lish dinamikasini o'rgandik (2-jadval).

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1,2,3,6 oylik qorako'l qo'zilarining qon zardobida streptokokklarga qarshi – 1:50dan 1:170 gacha va stafilokokklarga esa - 1:50dan 1:160 gacha titrda antitelolar borligi aniqlandi. Bu esa qorako'l qo'zilarini organizmida tabiiy immunitet shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Binobarin, hanuzgacha stafilokokk va streptokokklarga qarshi bu darajada kuchli tabiiy immunitet borligi inkor qilib kelindi. Chunki shu paytgacha qishloq xo'jalik hayvonlarida stafilokokk va streptokokklarga qarshi o'ziga xos xususiyatga ega tabiiy immunitet hosil bo'lishi ma'lum emas edi.

Bu hodisaning nafaqat kolostral, ya'ni passiv immunitetga, balki faol immunitet hosil bo'lishiga ham dahldor ekanligi tabiiydir.

Xulosalar. 1. Turli yoshdagi qorako'l qo'zilarini qon zardobida stafilokokk va streptokokklarga nisbatan 1:50 dan 1:210 gacha bo'lgan yuqori titrdagi antitelolar hosil bo'lishi aniqlandi.

2. Bu esa qorako'l qo'zilarini organizmida stafilokokk va streptokokklarga nisbatan avvalo kolostral (passiv), so'ngra tabiiy (faol) immunitet shakllanganidan dalolat beradi.

3. Bu antitelalar yosh qorako'l qo'zilarini tegishli bakteriyalardan himoya qilishga qaratilganligi tabiiydir.

Demak, qorako'l qo'zilarining kokklarga qarshi tabiiy immun ko'rsatkichlari yuqori ekanligi hamda ularni o'ziga xos xususiyatga egaligidan dalolat beradi. Bu esa veterinariya amaliyotida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев М.А., Рузикулов Р.Ф. Иммуность организма сельскохозяйственных животных против условно-патогенных микроорганизмов. //Журнал «Известия» Армянской сельскохозяйственной академии. -Ереван, 2004, № 4, С. 60-61.

2. Бурлаков В.А., Родионова В.Б., Интизаров М.М., Бурлаков С.В., Бурлакова Г.И., Проблемы борьбы и профилактики желудочно-кишечных болезней молодняка животных //Ветеринарная медицина. – Москва, 2002. №1. С.16-17.

3. Железникова Г.Ф. Инфекция и иммунитет: стратегии обеих сторон //Иммунология. - Москва, 2006. - № 6. - С.597 - 614.

4. Рузикулов Р.Ф., Абдуллаев М.А. Колостральный иммунитет новорождённых животных против условно-патогенных микроорганизмов //Мониторинг распространения и предотвращения особо опасных болезней животных и птиц: Материалы III Международной научной конференции. - Самарканд, 2006. – С. 276-278.

5. Фролов А.Ф., Зарицкий А.М. Еще раз об условной патогенности микроорганизмов. Журнал микробиологии. 1999. – №5. – С.96-98.

MUNDARIJA

Yunusov X.B., Bakirov B., Ro‘ziqulov N.B., Asqarov S.S. Qo‘zilar dispepsiyasining oldini olishning qo‘shaloq profilaktika usuli	3
Жлобич У.С., Селивашко А.В. Изучение полового цикла у сук с использованием цитологического метода исследования	7
Юнусов Х.Ю., Бакиров Б., Сейпуллаев А. Состояние витаминно-минерального обмена у коров в условиях каракалпакистана	8
Кудрявцева Е. Н., Селивашко А.В., Бек В.А., Сакович Ю.В., Гематологические показатели телят при использовании витаминного препарата	11
Yunusov X.B., Soyibov A.Z., Narzullayev J.U. – Asalari mahsuldorligini oshirishda xlorella suspenziyasining ta’siri	13
Маковский Е.Г. Изменения гематологических показателей у жеребят в первые 3 месяца жизни	15
Rahmonov U.A., Norboyev Q.N., Yunusov X.B. Broyler jo‘jalarida oqsillar almashinuvi buzilishlarining oldini olish usullari	17
Яромчик Я. П., Слепцов Ю.В., Пань Чэн, Камолиддинов Г.Х. Анализ отчетности ветеринарных диагностических учреждений республики беларусь по инфекционным энтеритам телят	20
Rayimqulov I.X., Yunusov X.B., Davlatov R.B., Sattiyeva F. Tovuqlarning ektoparazitlarini tarqalishi	22
Би Кайсюань Частота выявления геномов вируса репродуктивно-респираторного синдрома свиней и цирковируса свиней 2 типа в патологическом материале	24
Рўзиқулов Р.Ф. Қизилқум ва тоғолди шароитларидаги қорақўл қўзиларининг табиий иммунитетлари	26
Руденко Л.Л., Алексин М.М. Эффективность комплексного применения препарата «карнивет» и белково-витаминно-минеральной добавки «витамикс-1» для профилактики остеодистрофии у коров	29
Ro‘ziqulov R.F. Fayzullayev I.A. Saparov O.J. Qoramollarda infeksiyon kasalliklarni kelib chiqishida shartli patogen mikroorganizmlarning o‘rni	31
Руденко Л.Л., Алексин М.М., Кирченко К.И. Эффективность сочетанного применения пробиотика «рубиотик», белково-витаминно-минеральной добавки «иммовит» и препарата «мелровет» для профилактики и лечения абомазоэнтеритов у телят	34
Ro‘ziqulov R.F. Saparov O.J. Fayzullayev I.A. Mahalliy quyonlarning o'sishi va rivojlanishiga “AgroTonic” biostimulyatorining ta’siri.	36
Селивашко А.В. Использование искусственного оплодотворения в размножении собак	38
Eshimov D., Toshmurodov D.S., Nuriddinova M.I. Xitozan gidroksiapatitining broyler jo‘jalari qonidagi mineral moddalar almashinuviga ta’siri	40
Стоякова Э.А. Островский А.В. Терапевтическая эффективность применения препарата «рикол» для лечения острых послеродовых эндометритов у коров	42
Chuliyeva.O.Z., Ibragimov.D.I., Eshimov D., Ibragimova.F.D. Broyler tovuqlari qonining morfologik ko‘rsatkichlarga antistress preparatlarning ta’siri.	44
Тюхай Д.В., Шеригов С.Е. Эффективность применения препарата «окситон» для профилактики и лечения патологии родов и послеродового периода у коров	47
Chuliyeva.O.Z., Ibragimov.D.I., Eshimov D., Ibragimova.F.D. Broyler tovuqlar qonining ayrim biokimyoviy ko‘rsatkichlarga antistress preparatlarining ta’siri.	50
Шанина Д.В., Готовский Д. Г., Изучение терапевтических свойств препарата «салицилат-п» при бронхопневмонии у телят	52

Davlatov R.B., Jabborov G'.G'. Qo'ylarning argasidae kanalariga qarshi ivotek dori vositasini sinovdan o'tkazish	54
Юшковский А.Е., Юшковский Е.А. Эффективность препарата «лактопрофи лонг» при патологической молочной железе у коров	57
Bakirov B.B., Hayitov B.N. Navoiy viloyati sharoitlaridagi fitotoksik hamda texnogen ekologik omillarning mayda shoxli hayvonlar organizmiga ta'siri va unga qarshi kurash choralarini	59
Шепилевич А. А., Кривко Т. В., Сандул П. А., Горидовец Е. В. Содержание кальция и магния в сыворотке крови у цыплят-бройлеров в результате применения вспученного вермикулита	62
Бакиров Б., Собиров С. Состояние обмена веществ у коз зааненской породы в условиях Андижанской области ..	64
Понаськов М.А., Скуман Д.Е., Лобачева А.С., Локун Е.В. Эффективность применения препаратов для лечения маститов у коров	69
Бакиров Б., Атабаев А. Состояние и эндемические свойства нарушения обмена веществ у коров в Андижанской области	71
Красочко П.А., Богомольцев А.В., Понаськов М.А., Скуман Д.Е., Лобачева А.С., Локун Е.В. Динамика посмертных изменений в организме белых мышей	75
Bakirov B., Abdullayev B. Zotli sigirlarni texnogen-endemik omillar ta'siridan himoyalashning ilmiy asoslari	77
Понаськов М.А., Скуман Д.Е., Лобачева А.С., Локун Е.В. Коррекция нарушений динамики родового процесса у сук	80
Bakirov B., Asqarov S.S Qo'zilar dispepsiyasini innovatsion davolash usuli	82
Ибрагимов Б.Х., Абдулаева Ш., Эшматова Н., Ишанкулова А., Турсунова Ф. Радиоизотопный метод дифференциации патогенных и непатогенных и непатогенных эшерихии коли.	86
Rahmonov F. X., Eshimov D., Islomov X. I. Broylar jo'jalarini xitozan va sut zardobi kukuni bilan oziqlantirganda ularning fiziologik-biokimyoviy ko'rsatkichlari.	88
Ибрагимов А., Салимов Ю., Халилов Л. Натрий фторидни оқ сичқонлар организмига захарлилик ва хавфлилик даражасини аниқлаш.	91
Norqulova.G.T., Eshimov.D., Ibragimov.D.I., Ibragimova F.D Jo'jalar qonining morfologik va ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga vitaminli preparatlarning tasiri	94
Ibragimov F.B., Rasulov U.I., Dagarov S. Quyong'oshni veterinariya sanitariya jihatdan baholash	97
Norqulova.G.T., Eshimov.D., Ibragimov.D.I., Jo'jalarning o'sib rivojlanishiga ayrim vitaminli preparatlarning ta'siri	99
Ibragimov B.X., Rayimov X., Qo'shboeva S., Rabbimqulova H., Turgunboev D. Hayvonlarning radioaktiv izotoplar bilan nurlangan hayvonlarni tana, a'zolarini veterinariya-sanitariya ekspertizasi.	101
Мирсаидова Р., Рузикулов Р.Ф. Линька кур в промышленном птицеводстве в условиях Узбекистана	104
Холиков А.А., Юнусов Х. Б., Салиев Э., Қўлдошев Ф. Сурфагон препаратининг товуқлар пат қопламининг ўсиши ва ривожланишига таъсири	108
Xatamov T.T., Saliev E.M., Nematullayev O.E. "Biosstimvet" preparatini quyong'oshlarning o'sish va rivojlanishiga ta'siri	112
Xodjayeva N.D., Ummatov O', O'roqov A., Qurbonboyeva M. Scenedesmus suvo'tidan chorvachilikda foydalanish istiqbollari	115
Nuriddinova M.I., Eshimov D., Ibragimov D., Ibragimova F.D. Tuxum yo'nalishidagi jo'jalarning va tuxumdor tovuqlarning fiziologik holatlariga antistressar preparatlarning ta'siri	117

Eshburiyeva N. Ubaydullayeva G.B., Aliyarov S. Ataxanova M.O. Alterations in the nitric oxide system observed during experimental hypercholesterolemia.	120
Aliyarov S.A., Norbo'tayeva D.A., Shomaxsudov A.Sh Quyonlarda gipovitaminozlarning etiologiyasi	124
Hayitova B.A., Ziyotov A.J., O'rinxo'jayev R.A.Sultonov Sh.S. Dislipoproteinemiya, ateroskleroz, kaxeksiya, fosfolipidlar almashinuvi	127
Убайдуллаева Г.Б., Рахмонов Ж.С. Эшбуриева Н. Восстановление тканей после термических ожогов с использованием производных хитозана	130
Бердиев Х.Р., Салимов Х.С. Жўжаларнинг фузариотоксикозини даволашда “Токсо-бонд” дори воситасини синовдан ўтказиш натижалари	133
Камолиддинов Г.Х., Бердирасулов Т.Д., Борисенок.Е.А. Макаревич Г.Ф., Бакиров.Б.Б. Препарат «марбофлоксацин 100» в терапии новорожден-ных телят больных, больных омфалитом	137
Ubaydullayeva G.B., Akramova A.A. Saparov O.J. Investigation of variations in vitamin d in eggs according to the season of the year	139
Бойбутаева Д.А. Расулов У.И. Этиология, патогенез, клинические признаки, лечение и профилактика псороптоза кроликов	142
Nuriddinova M.I. Broylar jo'jalarining B gipovitaminozlari profilaktikasida introvit-B kompleks preparatining ta'siri	144
Халилов Л.Н., Салимов Ю. Замонавий сунъий пиретроидларнинг захарлилик хусусиятлари	146
Abdumajitov V.B. Ergasheva V.A., Toshboltayev X.E. Qoramollarni oziqlanishida mikroelementlarning ahamiyati	148
Мамадуллаев Г.Х., Тўхлиев А.Т., Джуракулов О.К., Файзиев У.М., Хамидов С.Г. Махаллий штаммдан тайёрланган ппд туберкулин диагностика мининг махсус фаоллиги.	152
Abdumajitov V.B., Xayitov B.N. Gipokobaltoz bilan kasallangan qoramollar qonining morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari	156
Habibullayev .S.L., Ibragimov.D.I., Safin.M.G, Ibragimova F.D. Quyonlar qonining ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga vitaminli preparatlarning ta'siri	158
Абдумажитов В.Б., Хайитов Б.Н. Қорамолларни ошқозон олди бўлимларида кечадиган биокимёвий жараёнлар	160
Isayeva N.M., Hayitova B.N., G'afurov L.Sh., Sharifov S.E. Muhit va ekologik omillarni tirik organizmlarga ta'siri etish qonuniytlari va tirik organizmlarda bo'ladigan biokimyoviy o'zgarishlar	163
Abdumajitov V.B., Xayitov B.N. Murodullayev N.O., Naimov J.J. Kobalt mikroelementini organizmdagi ta'siri	166
Xodjayeva N., Jo'raqulov Q., Xolmatova Z. Qattoq bug'doyni “istiqloq-25” navi urug'larining unuvchanligiga su-bo'tlarining ta'siri	169
Абдумажитов В.Б., Сулаймонов М.А. Қорамолларда гипокобальтознинг симптомлари ва гематологик кўрсаткичлари	171
Murodov X.U., Abdullayeva Sh.N., Mahmudov M.Sh., Hamdamova D.A. Seasonal and age-related dynamics of infectious laryngotracheitis in poultry farms.	174
Абдумажитов В.Б. Маҳсулдор сигирлар гипокобальтознинг этиопатогенези	177
Xodjayeva N.D., Ummatov O', Raufov Sh., Jo'rayeva Z. Azolla caroliniana bilan oqava suvlarni tozalash biotexnologiyasi	181
Mahammatabdullayev M.A. Haydarova N.S., Shamsiddinov A.X., Nishonov O.O. Productivity and physiological indicators of karakol sheep	183

Avazov O.S., Aliyev D.D., Anvarjonov S.B. Tug‘ulgan vaqtdagi tana vaznining qorako‘l qo‘zilari o‘shish dinamikasiga ta‘siri	185
Косимова Ш. Исроилова М. Маккажўхори дон ҳосилдорлиги экиш муддатларининг таъсири	188
Mamatova O., Babayeva Sh. The structure, functions and importance of the lungs, inhalation, exhalation mechanism	192
O‘ktamov A.M., Abdullayev I.A., Jabborov A.G‘., Narziyev B.D. Itlarning sut bezi o‘smalarida klinik-fiziologik ko‘rsatkichlar	194
Ochilov Sh., Babayeva Sh. Blood pressure and its determination methods	199
Najmiddinov Q. Babayeva Sh.A. Properties of heart muscles	201
Akbarov A.A., Turdaliyev J.Q., O‘rinboyev Z.S., Raimqulov X.O., Soporboyev J.Sh. Conditional pathogens and their role in rabbit pasteurolysis	203
Xabibulayev X. Babayeva Sh.A. Management of blood vessels	206
Bakhtiyorova O. Babayeva Sh.A. Preparation of blood smear and determination of leukocyte formula	208
Abdurahmanov J. Babayeva Sh.A. Muscle work, fatigue and contraction	210
Mamatova O. Babayeva Sh.A. Reflex control of heart activity	212
Abdurahmanov J. Babayeva Sh.A. Physiology of the digestive system	214
Abdumajidov B.A., Yoqubjonov A.B., Mirzayev A.N., Rahimov R.M. Methodology of some physiological indicators of copper and manganese of micronutrients effect.	216
Duvlayev J.A., Eshburiyev S.B., Abdujabborov Y., Norboyeva M.R. Broylar jo‘jalarda D-gipovitaminozning klinik belgilari	220
O. Achilov – Inspection of meat products and improvement of control at the slaughterhouse.....	223
U.R. Fayzullayev – Achchiq shuvoqning dopivop preparatlari va ularningning farmatsevtika sohasidagi ahamiyati.....	226
R.F. Ruziqulov, D.Z. Sulaymonova – Buzoq va qo‘zilarning ichak bakteriyalariga qarshi tabiiy immun ko‘rsatkichlari	229
R.F. Ro‘ziqulov, T.Z. Ortikov – Qorako‘l qo‘zilarning kokklarga qarshi tabiiy immun ko‘rsatkichlarini yoshga oid xususiyatlari	232